

Qaysi millat orasinda birlik ko'tarilib, nifoq va adovat hukm surgan bo'lqa, ul qavmning inqiroz dunyosiga yuzlangani aniqdir. Bular shuni fahmlamaydilarmi?

Dildagi adovat temirdagi zangga o'xshaydi. Zang temirni yegani kabi, adovat Vatanni azobga soladi. Odamlar nahot adovatdan nari bo'la olmasalar?..Abdulla Avloniyga bag'ishlanadi

Muqaddima o'rnda

- Bahorjon, kela qol, o'ng qanotimga o'tir, bizlarga ilhaq joylarga uchaylik. Sovuqni quvaylik, yerni uyg'otaylik.

- Oftobjon, kela qol, sen chap qanotimga o'tir. Qishning muzlarini eritib tashla, yerni azoblardan o'zing qutqar.

Qaldirg'och shunday der ekanu bir qanotiga oftobni, bir qanotiga bahorni o'tqazib ucharkan. Qish bo'yil o'limtik holga tushgan dovdaraxtlarni uyg'otarkan, muzdan qutulgan tuproq yayrab nafas olarkan. Odamlar shod-xurramlik bilan ish boshlar ekanlar.

Kunlarning birida qaldirg'och uchib yurib, ilonning ariga aytayotgan gapini eshitib qolibdi:

- Men hammadan kuchliman, mendan barcha qo'rqadi. Demak, men eng shirin taomlarni tanovul qilishim kerak. Sen yer yuzidagi bor jonivorlarning go'shtini tatib ko'r, eng shirinini menga kelib aytasan.

Ari, "xo'p bo'ladi", deb uchibdi, qaldirg'och esa uning iziga tushibdi. Ari barcha jonivorlarni tatib ko'ribdi - yoqmabdi. Oxiri pichan g'arami yonida o'ynayotgan bolani chaqibdi-da, ozgina go'shtini uzib olibdi. Shu go'sht unga ma'qul kelib, ilon huzuriga oshiqibdi.

Qaldirg'och hademay unga yetib olibdi-da, arining og'zidagi go'sht bo'lakchasini cho'qibdi. Go'shtga qo'shib arining tilini ham uzibdi.

Ari ilon huzuriga kelgach, nuqlu g'o'ng'illarmish.

- Gapir, aytgan ishimni bajardingmi? - debdi ilon.

- Bajardi, bajardi, - debdi qaldirg'och, - u eng shirin go'sht - qurbaqaniki, deyapti.

Shu-shu ilon qurbaqaga qiron keltira beribdi.

Kunlarning birida ilon qaldirg'ochning nayrangini anglabdi-yu, yovlashib, uni ham tinch qo'ymaydigan bo'libdi...
(O'zbek xalq ertaklaridan)

Ko'ngil, sen bunchalar negaKishanlar bilan do'stlashding?Abdulhamid Cho'lpon.

Birinchi qism - Ikki Qirg'oq

Birinchi bob - Oq Fotiha

1

Asadulla qaldirg'ochlarning bexos qattiq chirqillashidan uyg'onib ketdi. Yostiqqa tirsagini tirab qaddini ko'tardi-da, deraza osha tashqariga qaradi. Devor tomonda yotgan Hojiyaxon ham uyg'ondi:

- Nima bo'ldi ularga? - dedi u, eriga havotir ko'zi bilan qarab.

- Qaray-chi...

Asadulla ayvonga chiqdi-yu, shiftda osilib turgan ilonni ko'rdi. Yo'g'onligi uch yashar bolaning bilagidek keladigan ilon tillarini chiqarib qaldirg'och iniga bosh suqmoqchi bo'lari, ikki qaldirg'och esa unga hamla qilgancha tinmay chirqillardi. Asadulla qarsak urib, "hayt-hayt"lab ilonni cho'chitmoqchi bo'ldi. Ilon bunga parvo qilmagach, hovliga tushib, uzun tol yog'ochni qo'liga oldi.

- Hay, hay, dadasi, o'ldirib qo'y mang tag'in, - dedi uydan shoshilib chiqqan Hojiyaxon.

Asadulla yog'ochni ko'tarib, ilonni chetga surdi. Ilon yog'och bilan bir oz olishgan bo'ldi-da, ishga odam aralashganiga fahmi yetibmi, toqilar orasidagi teshikka kirib ketdi.

Qaldirg'ochlar xavf bartaraf bo'lganiga ishonqiramay inlari atrofida picha uchib yurishdi.

- Ilon boyoqishlarga hech bir tinchlik bermadi-da, qachon qarasang shu yerda. Bular ham inlarini ko'chira qolishmaydi.

- Soddasan-da... inlarini ko'chirsa ilon topib borolmaydimi?

Asadulla to qaldirg'ochlar tinmaguncha joyidan jilmadi. Qushlar inga kirganlaridan keyin ham dam-badam boshlarini chiqarib, jonsarak qarab qo'yishardi.

"Biz ham shularga o'xshab qoldik," deb o'yladi Asadulla. O'ziga shunday deyishga dedi-yu, ko'ngli og'riddi. Xurriyat xuddi shu beozor qushlar misol qanotlarida ozodlik, erkinlik, baxtni olib kelib go'yo xalqqa in'om qilganday edi. Shu kunlarga yetishishni orzu qilgan, kurashgan, hatto umrining bir qismini Sibir o'rmonlariga tashlab kelgan Asadulla "ilon"larning qilmishini hisobga olmagan ekan. "Bahor keldi, vassalom, olam charog'on bo'lajak", deb ko'nglini shodlagan ekan. Bahorning ayamajuzlari, yer-ko'kni larzaga soluvchi momaguldirlar, yo'lida uchragan barcha narsalarni sidirib ketuvchi sellari, do'llari borligini mulohaza qilmagan ekan.

Ikki yildan beri kun nadir, tun nadir, ajratish mahol. Oftobdan qo'rqqan, sovuq tunda o'rmalab kelib ochilajak kurtaklarni bo'g'ib ketgani kabi o'zlarini erkparvar deguvchilar, pinhona kurashlarini avj oldirar edilar. Yarador vahshiy hech nimadan tap tortmaydi, jonzot uchun yanada xavfli bo'lib qoladi.

Zamonning o'yinlari ajabtovur. Ikki yil muqaddam bular og'zidan inqilob so'zi tushmas edi. Ba'zan, "bularning tanglayini "inqilob" deb ko'targanmi", deging kelardi.

Asadulla buni o'tkinchi hol deb yanglishgan ekan. Ha, qattiq yanglishgan ekan. Huriyat so'qmoqlarida achchiq-chuchukni, issiq-sovuqni tatiqan odam uchun bu yanglishish kechirilmas hol edi.

Erkparvar libosidagilar jodugar kabi turli ko'rinishga kiradi: ilonga aylanib qush uyasiga bosh suqmoqchi bo'ladi, tulkiga aylanib makr ishlatadi, bo'riga aylanib qo'qqisidan hamla qiladi... Asadulla bularning hammasiga o'zi shohid bo'ldi. Qo'qonda biqinini o'q teshib o'tganda ham, Toshkentning tahlikali tunini kunga ulaganda ham, birodarlarini o'z qo'li bilan tuproqqa qo'yganda, Turkiston Markaziy iroqo'midagi majlislarda nohaqdan-nohaq ayblaganlarida ham usha "jodugar"ning nafasini his qilib turardi. "Sherni otsang bo'riga aylanadi, bo'rini nishonga ololsang u tulkiga, so'ng tulki quyonga, quyon burgutga aylanib ko'z ilg'amas balandlikka uchadi. O'qing yetib uni mahv etsa tuxum ajraladi, tuxumni poylay olsang, undan igna chiqadi-yu, dengiz tubiga cho'kadi.

Jodugarning joni shu ignada. Uni topib sindirsang - jodugardan qutulasan..." Asadulla o'sha ignani topolmay garang edi. "Do'st makridan o'zing asra, g'animni bartaraf etmoqqa qurbim yetarli", deyishadi. Erkparvarlarning aksari do'st libosida yurgani

Asadullaga ma'lum. Lekin ularni qanday oshkor etish mumkinligi noma'lum edi. Turkijroq'muning majlislarida ba'zan ular po'st tashlab qolay derdilaru, ammo ustalik qilib, niqoblariga o'ralib olardilar.

Asadulla hozir ayvon ustuniga suyanganicha, qaldirg'och uyasiga qarab shularni o'yldardi. Bu o'ylar bexos uyg'onmadi, yo'q, bunga qaldirg'och uyasiga hamla qilgan ilon ham sabab emas. Kechagi Huriyat uyida bo'lgan majlis uning xotiralarini, xayollarini

to'zitib yubordi.

Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi bugun asosan Farg'ona vodiyisidagi aholi muhokama qilishi kerak edi. Buxorolik va afg'onistonlik oliv zotlardan bir qanchasining vodiyya yurgani, mayda qo'rbohilarni birlashtirishga harakat qilayotgani haqida darak topishgach, Asadulla voqeani oydinlashtirish uchun Qo'qonga borgan edi. Afg'on "elchi"lari qo'lga olingenini bilib, Qo'qonda uzoq qolmay, Andijonga jo'nadi. Shahar ChKsida unga to'rt basavlat, sersoqol afg'oni ro'para qildilar. Avvaliga suhabatlari qovushmadi. Ular, "chustlik tojiklarmiz", deb turib oldilar. Chust tojiklar o'zbekchani suvday bilardilar, shuning uchun Asadulla ularga o'zbekcha gapirdi. Javob ololmagandan so'ng yana forschaga o'tdi. Afg'onlar qaysarliklarini davom ettiravergach, u Afg'onistonda amir Habibullaxon o'ldirilgani, uning o'rniga Omonulloxon hukmdor bo'lganini aytdi. Shunda soqoliga oq oralagan afg'on beixtiyor:

- Yo Olloh, yolg'onni o'zing kechir, - deb yubordi.

Asadulla amir Omonulloxonning Maskovga maktub yo'llagani, bu maktubni forsiydan ruschaga o'zi tarjima qilganini aytganda ham afg'onlardan sado chiqmadi.

- Mahmudbek Tarzini bilsizlar, axir? - dedi Asadulla toqati toq bo'lib.

- Sardor Tarzimi? Omonulloxonning padarzanini, - dedi soqoliga oq oralagan afg'on sovuq ohangda.

- Shu odam horijiya noziri bo'libdi. Amir Afg'onistonni butkul mustaqil, o'zgalarga qaram emas, deb yurtga omonlik beribdi. Bu gapni eshitib, afg'onlar bir-birlariga savol nazari bilan qarab oldilar. Shundan keyingina ular amir Habibulloxon istagi bilan bu yerlarga kelganliklari, vazifalari barcha qo'rbohilarni Madaminbek qanotiga to'plash ishida hamkorlik ekanini aytdilar.

Asadulla majlis ahliga shularni bayon qilgach, munozara uzoq cho'zildi. Vodiydag'i ahvol xavotirli edi. Jiddiy muhokamaga, alqissa, jiddiy harakatlarga muhtoj edi. Majlisning cho'zilishi shundan.

Muhokama yakunlangach, barcha uchun kutilmaganda tashqi ishlar xalq noziri so'z olib, kun tartibiga yana bir masalani kiritishni taklif qildi.

- Aprel oyida Termiz qal'asiga ikki afg'on kelib, amirning muhim maktubini topshirgan. Termizlik o'rtoqlar drezinada yo'lga chiqib, bu maktubni bizga yetkazdilar. O'rtoq Asadulla Mira'lamov ishtirokida maktubni ruschaga tarjima qildik. Afg'onistonning yangi amiri Moskvaga murojaat etib, do'stlik aloqalarini o'rnatishni so'ragan. Sizlarga shuni ma'lum qilamanki, Sho'rolar hukumati bir yil avval Afg'oniston amiriga shu masalada murojaat etgan edi. Biz yangi amirning maktubini radiotelegraf orqali Moskvaga uzatgan edik. Bugun javob oldik. Moskva zdulik bilan diplomatik guruh tashkil etib, Afg'onistonga yuborishimizni so'rayapti. Moskva - Toshkent yo'li berk bo'lgani sababli RSFSRning vaqtincha elchisi ham shu yerda tayin qilinishi kerak. Biz bu vazifaga Nikolay Zaxarovich Xmarin nomzodini tasdiqlashni RSFSR hukumatidan iltimos qilmoqchimiz.

- Xmarin? Kim ekan u? - dedi o'tirganlardan biri.

Xalq noziri qog'ozlar orasidan keraklisini tanlab, nomzodni tanishtira boshladi. Asadullaning qulog'i unda, xayoli esa aprel oyidagi uchrashuvda edi. U Xmarin bilan bir mata uchrashgan, bu kibor diplomat unda noxush taassurot uyg'otgan edi.

Xmarinning ko'p yillar davomida imperator elchisi sifatida Eronda xizmat qilgani majlis ahlini o'yantirib qo'ydi. Bu odamga ishonish mumkinmi yo yo'qmi, hech kim bilmas edi. Shu sababli nomzod darrov tasdiqlanmay, munozaraga sabab bo'ldi.

- Siz unga kafillik bera olasizmi? - deb so'radi majlis raisi munozaraga yakun yasash maqsadida.

- Kafillik bersam, bermasam, diplomatiya ishlaridan xabardor boshqa odamimiz yo'q. Uning kimligini RSFSR Tashqi ishlar xalq komissarligida mendan yaxshiroq bilishadi. Nomzod ma'qul kelsa tasdiqlashadi. Bo'lmasa yo'q. RSFSR elchisining birinchi o'rnbosari, ayni paytda Turkiston jumhuriyatining elchisi vazifasiga biz o'rtoq Mira'lamov nomzodini ko'rsatmoqchimiz.

Asadulla yanglish eshitmadimman, deganday hayron bo'lib nozirga qaradi.

- Menmi? - dedi u quloqlariga ishonmay.

- Ha, siz, o'rtoq Mira'lamov, nimaga ajablanyapsiz? Amirning amakivachchasi Ishoqxon bilan borishni taklif etganimizda rad etmagan edingiz?

- Unda... amirga xat olib borishimiz kerak edi. Elchilik... umrimda qilmagan ishim...

- Men ham umrimda nozirlik qilmaganman. Bular ham...

- O'rtoqlar, tushuninglar, axir bu jiddiy mas'uliyatlari ish.

- Shuning uchun ham sizning nomzodingizda to'xtaldik.

Asadulla bosh chayqadi-yu, ammo e'tiroz bildirmadi. Nozir bundan mammun bo'lib, gapini davom ettirdi.

- Elchining harbiy maslahatchisi qilib o'rtoq Shuvalov nomzodini ko'rsatamiz. Orenburg inqilobiy harakatining faollaridan.

Dutovga qarshi janglarda qatnashgan, sinalgan o'rtoq.

- Sobiq politsiyachimi?

- Politsiyada bolsheviklarning topshirig'i bilan ishlagan, - dedi nozir keskin ohangda.

Boshqa savol tushmay, nomzod ma'qullandi.

- Elchining yana bir o'rnbosarligiga o'rtoq Ushinskiy nomzodi...

Asadulla yalt etib nozirga qaradi: "Nima deyapti?! Butun bir katta davlat bilan aloqa o'rnatishga beburd, millatchi odamni yubormoqchimi?"

- Men qarshiman, - dedi Asadulla o'rnidan turib.

- Elchi sifatidami? - dedi kimdir kinoya bilan.

- Yo'q, - dedi Asadulla qat'iy ohangda, - Markaziy ijroqo'm a'zosi sifatida. Men Ushinskiyini yaxshi bilaman.

- Biz ham bilamiz, - dedi nozir. - O'rtoq Ushinskiy inqilob uchun ko'p xizmat qilgan. To'g'ri, u eser1 edi. Ammo yanvar isyonidan2 ancha oldinroq bolshevik3lar safiga o'tgan. Men unga shaxsan kafillik beraman.

- Nomzodi ma'qullansin. O'rtoq Mira'lamov, shaxsiy advovatlarni unutish kerak. Hozir kek saqlaydigan zamon emas... Umuman... deyarli har majlisda o'rtoq Ushinskiyini bir cho'qimasangiz xumordan chiqmaydigan bo'lib qolyapsiz... - Bu ovoz hozirgina kinoya qilgan odamniki edi. Asadulla unga bir qarab oldi-yu, biroq, javob bermadi. Hozir o'zini oqlashga kirishsa, o'tirganlarda boshqacha fikr uyg'onishi mumkin edi. Turkiston Markaziy ijroqo'midagi yagona o'zbek - Asadulla Mira'lamov ular bilan bo'lajak bahsda baribir yengilardi. Shu sababli dardini ichiga yutdi.

Boshqa gaplar Asadullaning qulog'iga kirmadi.

...Turkiston Markaziy ijroqo'midagi majlislar Asadullani tobora qiyab borardi, uni go'yo boshi berk ko'chaga haydayotgandek edi. Milliy uyg'onish, yurt istiqolli orzusi mayhumlik pardasiga chulg'anardi. U jannat bog'larini umid qilib, oqibatda sarobga yo'liqqan chorasiz kishi holida o'zini ko'rib, ruhi faryod cheka boshlardi. "Qaysi nuqtada xatoga yo'l qo'yidik? Nahot, bo'layotgan

gaplarning barchasi yolg'on, nahot biz aldovga uchgan nodonlarmiz?" - Asadulla shu savollarga javob izlardi. Ichki bir hayqiriq: "Senlar aldandilaring, senlar tufayli xalq ham aldandi", deb tursa, so'nib ulgurmagan umid cho'g'i: "Yana ozgina kutaylik-chi..." deb sabrga undardi...

Markaziy ijroqo'mning bir oy avvalgi maxsus majlisida bu umid cho'g'i butkul so'nmog'i lozim edi, lekin bu safar ham sabr ustun chiqdi.

Undan oldinroq Asadullani yo'qlab, maxsus topshiriq bilan Farg'ona muzofotiga borajagini aytishdi. Unga ma'lum qilishlaricha, Eskijo'vada qo'qonliklar "Farg'ona fojeasi" degan tomosha ko'rsatishibdi. Tomosha mazmuni zararli, millatchilik ruhida bo'lgani sababli to'xtatilibdi. Unda zikr etilgan ayrim voqealar esa tekshiruvga muhtoj emish.

Asadullaning tomosha qo'yilishidan xabari bor, biroq, kelib ko'rishga imkon bo'lмаган edi. Tomoshani sahnaga qo'ygan Niyoziyni u yaxshi tanirdi. U bir necha yil muqaddam Asadullaga uchrashib, teatru san'ati bilan qiziqqan, Qo'qonda ham shunday tomoshalar ko'rsatish niyati borligini aytib, maslahatlar so'ragan edi. Shu bahona ular orasida ustoz-shogird maqomida yaqinlik vujudga kelib edi. Asadula Markaziy ijroqo'mdan topshiriq olgach, yo'lga otlanishdan avval Niyoziy bilan uchrashib, tomosha matnini so'radi.

- Matnni olib qo'ydilar, - dedi Hamza Niyoziy afsus bilan. Keyin uning qisqacha mazmunini bayon qilib berdi-da, qo'shib qo'ydi: - Tomoshada fojealarning bir-ikki zarrasigina ko'rsatildi. Agar dashnoqlar vahshiyligining uchdan bir qismini ko'rsatsak edi, dunyoga o't ketardi. Usta, siz Farg'onaga borarsiz-u, ammo bir natija chiqarmikin?

- Biron nimadan gumoningiz bormi?

- Oq podsho zamonida ham tomoshalarimizga bu darajada taz'yiq yo'q edi. Kechagi zo'ravonlikka qaraganda dashnoqlarning Markaziy ijroqo'mingizga ham ta'siri bormikin, deyman?

- Markaziy ijroqo'mda dashnoqlar vakili yo'q.

- Bu bizga ma'lum. Ularni burjua-millatchi firqa sifatida inkor etasizlar. Inkor etasizlaru inon-ixtiyorlarini o'zlariga qo'yib bergansizlar. Ijroqo'mingizda ularning vakillaridan bo'lmasa ham ta'siri bordir. Axir Qo'qon muxtoriyatini shu dashnoqlar qonga botirib berishdi-ku? Komissarlarining ularning bu xolis xizmatlarini unutishmagandir? Ariqlarda suv o'rniga qon oqdi, deganimda ishonmagandingiz. Avval faqat Qo'qondagina ariqlarda suv o'rniga qon oqqan bo'lsa, endi butun Farg'ona soyolarida oqyapti inson qoni.

Asadulla bu masalada Niyoziy bilan bahslashmadi. Safarga u bilan birga borish istagi tug'ildi. Lekin Favqulotda qo'mitadan ijozat tegmadi.

Niyoziy to'g'ri aytibdi: dashnoqlarning vahshiyligini bayon etmoqqa qalam ojiz ekan. Butun bir qishloq ahlini yosh demay - qari demay, bola demay - ayol demay, adirga haydab chiqib, "bosmachilarga qarshi handaq qaziysanlar", deb majburlab, so'ng barchalarini otib o'ldirib, o'zları qazigan handaqlarga ko'mib ketishlarining o'ziyoq ularga qarshi keskin choralar qo'llash uchun yetarli dalil edi. Asadulla ko'rib-bilib kelgan dalillarini bayon qilib, "Odamlarning sho'rolarga qarshi qo'lga qurol olishlariga aynan shunday vahshiyliklar sabab bo'lgan", degan xulosasini aytganida majlis ahli kutilmagan bu haqiqatni tan olganday avvaliga bir oz sukut saqladi.

Bu sukutni o'shanda birinchi bo'lib Ushinskiy buzgan edi:

- O'rtoq Mira'lamochning so'zlariga e'tibor berilsa, bu o'rtoq nutqlarida "bosmachi" degan atamani ishlatishdan qochyaptilar. Yo men adashdimmi?

- Adashmadingiz, - dedi Asadulla. - Ularni siz bilan biz "bosmachi" deymiz. Xalq ularni o'zgacha ataydi.

- Bilaman, - dedi Ushinskiy una qattiq tikilganicha. - Ular o'zlarini "Milliy ozodlik jangchilari" deyishadimi yo "islom lashkarlari" deydilarmi yo yana allanima balolar deydilarmi, bu bizga yaxshi ma'lum. Sizning o'zingiz nima deb ataysiz? Men sizning bu masalaga partiyaviy nuqtai nazaridan munosabatingizni bilmoqchiman.

Farg'onaga jo'nash arafasidagi uchrashuvda Hamza "o'zining uyini himoya etuvchilarni "bosmachi" deyish urf bo'lib boryapti.

Bosmachi kim ekani farqlab olinsa durust bo'lardi", degan edi. Asadulla Ushinskiya shunday javob qaytarmoqchi bo'ldi-yu, bundagilarning behos hujumlaridan saqlanish uchun:

- Gap nima deb atalishida emas, gap - uning kelib chiqishi sabablari va bu urushni to'xtatish masalasida, - dedi. Agar bu majlis ahli orasida gapga tushunadigan, xalq dardini anglaydigan bir odam bo'lganida ham Asadulla Mashrabning "Dil tig'i sitamdin pora bo'lgan xalqni ko'rdu, tani dardu alamdin yora bo'lgan xalqni ko'rdu" - degan baytini o'qib, ruschaga tarjima qilib bergen bo'lardi. Biroq, mashoyihlar: "Tani boshqa dard bilmas", - deb bejiz aytishmaganlar. Asadulla yuragini kuydirayotgan gaplarning ko'pini tilga chiqarmadi. Faqat asosiy xulosani isbot etish maqsadida:

- Farg'ona viloyatida to'hozirga qadar mahalliy millat vakillaridan bironta odamning bolsheviklar firqasiga qabul qilinmasligini qanday izohlash mumkin? - dedi.

Bu savolni ham majlis ahli sukut bilan qarshi oldi.

Bu sukutni ham Ushinskiy budzi:

- Demak, mahalliy millat vakillari orasida bolsheviklar safida turishga arzirli ongli odam yo'q ekan...

Shu odam kutilajak uzoq safarda Asadullaga hamroh bo'lishi kerak...

Ushinskiyning elchilar guruhiga kiritilishi, majlisda "kekchi", "adovatchi" degan nom olishi Asadullani behad g'azablantirdi. O'tgan yili xuddi shu binoda Asadulla bilan Ushinskiy o'rtasida bo'lib o'tgan mojararo hali unutilgani yo'q. Kechagi majlisda Ushinskiy nomzodiga qarshi chiqishi bilan ko'pchilik o'shani eslagan bo'lishi kerak. "Shaxsiy adovat..." degan gaplar shuning oqibati. Ushinskiyga qarshi aytilgan har bir gap istasang-istamasang shu mojaroga qarab yetaklaydi. Do'st libosidagi g'animgalarga bu ayni muddao. Kechagi majlisda "shaxsiy adovat" deb o'sha mojaroga shama qilgan odam chin do'stmi yo ko'ngli qorami, Asadulla aniq bilmaydi. Balki u toza ko'ngildan aytgandir bu gapni. Do'ppini qo'yib, yaxshilab o'ylab ko'rilsa, uning bu fikri bir jihatdan to'g'ri. Shaxsiy adovatga sira yo'l berish kerakmas. Lekin u qora niyatda aytgan bo'lsa-chi?

Ertalab qaldirg'ochlarning bexos chirillashidan uyg'ongan Asadullani ana shu xayollar beorum qilmoqda edi.

Nonushta mahali ham o'yga tolgan holda o'tirdi. Xotiniga ko'zi tushdi-yu, g'alati bo'lib ketdi: Hojiyaxon unga ma'yus tikilib turibdi. Asadulla undan ko'zini olib qochdi. Choydan bir ho'plab, yana qaradi. Yana o'sha ahvol.

- Senga nima bo'ldi? Tobing yo'qmi? - deb so'radi Asadulla.

Hojiyaxon cho'chib tushganday boshini chayqadi.

Asadulla, "choyingni ich,sovutma", deb, undan nigohini oldi. Dam o'tmay yana boqdi: Hojiyaxon endi dasturxon uchini qayirib o'tiribdi, ko'zini dag'allashib qolgan barmoqlariga tikkan.

- Onasi... - Hojiyaxon yalt etib qaradi. Bu safar erining nigohiga dosh berolmay ko'zini olib qochdi. - Dardga yem bo'lmay, ichingdagini aytaver.
- Dardim yo'q... - Hojiyaxon yana dasturxon uchini qayirdi. - Faqat... aytadiganim... juda ishga berilib ketdingiz. Bolalaringizga ham keraksiz. Hadeb o'zingizni o'tga uravermang...
- Bor gaping shumi?
- Shu.

Asadulla kului. Gapni hazilga aylantirmoqchi bo'ldi:

- Hamma erkaklar uyida o'tirib olsa, hurriyatning ahvoli nima kechadi? Xalq dodini kimga aytadi? Yana qulligicha qolaveradimi? Hojiyaxon indamadi. Boshqa xotin bo'lganda: "Uyda o'tirib oling, demayman, begonalarga o'xshab birrov kelib ketmay, "uyim-joyim bor", deb bolalaringiz bilan chaqchaqlashib ham o'tiring. To'rt yil yo'lingizga ko'z tikkanim, to'rt yil ko'zyoshi to'kkanim menga kammidi", deb nolalar chekardi. Hojiyaxon esa indamadi. Shu indamaslik Asadullaning boshiga cho'qmorday urildi. Bunaqa sharoitlarda ibratlari gaplar topishga usta bo'lgan bu shoir odam xotiniga tasalli bera oluvchi so'z aytishga nochor qoldi. Xayoliga kelayotgan gaplarab B" bu og'irlililar vaqtinchaligi, yaxshi kunlar yaqin qolgan, o'zbekning bag'riga ham shamol tegishi... avval aytilgan, takrorlashga hojat yo'q edi. Nima qilganda ham Hojiyaxon haq - oilasiga vaqt ajratishi lozim.

Asadulla o'zini koyib, xayolida turli rejalar tuzib, o'rnidan turdi. Ko'cha eshigi tomon yurdi-yu, to'xtadi.

- Bir nima esingizdan chiqdimi? - dedi Hojiyaxon.

- Haligi gaping... to'g'ri, onasi, - dedi Asadulla jilmayishga harakat qilib. - Bugun ertaroq qaytaman.

Hojiyaxon kulimsiradi. Labida nimkulgu bor edi. Ko'zidan esa ma'yuslik ko'tarilmagandi. Asadulla buni o'sha topda sezmad. Buni keyin, fojia yuz bergandan so'ng, oradan kunlar o'tib eslagona, yuragi zardobga to'lib ko'z oldiga keltirganida sezadi. Hozir esa "xotinimming ko'nglini ko'tardim", degan tasalli bilan ko'chaga chiqadi.

U va'dasida turdi. Uyga odatdagidan erta qaytdi. Hali oqshomga vaqt bor. Bugun Asadulla Kalas tomondagi qishloqlarga borib kelish topshirig'in oldi. Dehqonlar boylardan tortib olingan yerlardan yuz o'girayotgan emishlar. Boshqa joylarda ham shunday bo'layotgani uchun Markaziy ijobo'm bu masalani beto'xtov o'rganishni Asadullaga topshirdi. U ertalab xotiniga bergen va'dasini bajarish, shu bahonada yangi muktab uchun mo'l yozgan kitobidan birini olvolish maqsadida uyiga keldi. Eshigiga yaqinlashganda bir odamga ko'zi tushib, sergak tortdi. ertalab ham ko'rgan edi uni: baland bo'yli, baquvvat odam, engagida chandig'i bor.

Boshidagi marg'ilon nusxa do'ppi ancha urinib qolgan. Notanish odam Asadullani ko'rib cho'chidimi, har holda qadamini sekinlatdi. Keyin tezlatdi. Salom berib o'tib ketmoqchi edi, Asadulla to'xtatdi.

- Inim, birovni qidirib yuribsizmi? ertalab ham ko'rganday edim.

Notanish odam kalovlandi, darrov javob topib bera olmadi.

- Shu deng... birovni izlayotganim yo'q. Omro lekin... ijara uy bo'lsa... Zavutta ishlasmanni...

- Qaerliksiz?

- Rishtondanman. Bezorim chiqib ketdi u yerlarda. Halovat yo'q. Ko'chimni ko'tarib kelaverdim. Ijaraga uy topilmaydimi?

- Siz samovarxonaga kiring. Asadulla aytadi, desangiz, yordam berishadi.

- Qulluq, taqsir.

Notanish odam yengil ta'zim qildi-yu, unga olazarak qarab oldi. Asadulla buni sezmad. "Halovat izlab kelibdi. Shunday baquvvat, dev odam o'zini olib qochsa... Uning halovati uchun boshqalar jon bersa" Asadulla shu xayol bilan uning izidan qaradi. Ayni choqda, notanish odam ham o'girilgan edi. Ammo uning xayolida boshqa gap: "Ijaraga uy topib bermoqchi... Jonini ijara topshirganidan xabari yo'q. Go'lmi u yo o'zini xalqparvar qilib ko'rsatmoqchimi?.. E, nodon, sen Muhiddinning kimligini bilmay o'tasan bu dunyodan...".

2

Turkijroqo'm majlisida Afg'onistonga boradigan elchilar nomzodi muhokama etilayotgan damda Mirkomilboyning Sebzordagi uyida antiqa suhbat borar edi. Tuprog'i ko'pchib yotgan ko'chadagi yagona qayrag'och soyasiga to'nini tashlab o'tirgan Muhiddin esa daraxtning bujur tanasiga suyanib mudrardi. O'tgan-ketgan "issiq elitgan" bu notanish odamga parvo qilmas edi. Muhiddin esa o'zini mudraganday ko'rsatib, chalayumuq ko'zlar bilan ko'chadagi har bir harakatni ziyrak kuzatardi. Agar biror xavfni sezsa, o'rnidan turib, to'nni qoqadi-yu, yelkaga tashlab Qo'shtut ko'chasiga buriladi. Mirkomilboyning boloxonasidan shu tomon tikilib turgan bir juft ko'z uchun bu kifoya: ichkaridagilar darhol ogohlantiriladi.

Ichkaridagilarning biri - uy egasi - Mirkomil hoji. Yaqin-yaqinlarda Mirkomilboy desa odam uyoqda qolib, daraxtlar ham bir silkinib tushardi. Toshkentdagi ikki zavodga ega bo'lgan bu odamning salobati, o'zini tutishini ko'rgan kimsa, "bu boy zavodning egasimi yo dunyoning xo'jasimi?" deb yoqa ushlardi. O'n yettinchi yilning bahoridan to kuziga qadar xo'pam muloyimlashdi.

Ishchilarning maoshini oshirdi, yo'qsillarga in'omlar berdi. Ko'z tikkan umidi - Qo'qon muxtoriyati barham topgach, qolgan umrini toat-ibodatga bag'ishlaganini e'lon qildi. Endi Mirkomilboy emas, taqvodor Mirkomil hoji nomi bilan tilga tushdi. Yetti yil muqaddam Ka'bani ziyorat qilgani endi asqatdi. U besh vaqt namozni masjidda o'qirdi. Biron-bir marta bo'lzin, siyosatdan so'z ochmasdi, sho'rolar qilayotgan ishlarga munosabatini oshkor qilmasdi. Shu tufayli u ashaddiy aksilinqilobchilar ro'yxatidan tushib qolgan edi.

Uning bugungi mehmoni egniga oq surp yaktak, boshiga simobi salsa o'ragan bo'lsa-da, rang-ro'yidan o'zbek emasligini sezish qiyin emasdi. O'zbek emasligi ayniqa gapiргanda oshkor bo'lardi. U so'zlarni bir oz cho'zib, yumshoqroq talaffuz qilardi. Bu odamning ismi - Xauston, o'zi ingliz fuqarosi bo'lib, uzoq yillar davomida Eronda, so'ng Turkistonda turli qiyofalarda yurdi.

Toshkentdagi so'nggi "vazifasi" - ingliz tili muallimi edi. Mirkomilboy Yevropa sanoati egalari bilan mustahkam aloqa o'rnatish maqsadida o'g'llarini shu odam qo'lliga topshirgandi. Ingliz tilida gaplashishga o'rganib olgan ikki o'g'il Angliyaga yuborilgan, orada bolsheviklar to'ntarishi ro'y berib, ular uyga qaytarlarini ham, qaytmasliklarini ham bilmay, o'sha yoqda tentirab yurardilar. Ilgari Mirkomilboy bilan Xaustoni shu ikki o'g'il bir-biriga bog'lagan bo'lsa, endi maqsad birligi qovushtirib turadi. Ingliz tili muallimining asl vazifasi endi Mirkomilboy va unga o'xshash bir-ikki odamga ma'lum edi. Ikki yil avval Xauston ularning ko'ziga kemasi bilan Toshkentga suzib kelib, cho'kayotganlarni qutqaruvchi Nuhday ko'ringan edi. Isyonlarning bostirilishi uni ancha obro'sizlantirdi.

Xauston bu xonadonga Osipov isyonidan avval kelganicha qadam bosmay qo'ygandi. Kerak bo'lganda ular aloqachi orqaligina bog'lanardilar. Bugun uning bu ahvolda kirib kelishi Mirkomilboyni ham ajablantirdi, ham tashvishga soldi.

Xauston maqsadga darrov ko'cha qolmadi. Hol-ahvol so'ragan bo'lди-yu, sukutga berildi. Uning bunaqa odati yo'q edi. Gapini

cheritib-chertib aytuvchi bu odam vaqtini zoe ketkazmasdi. Sharqona lutflar, dasturxon atrofidagi keraksiz gap-so'zlar unga begona edi. Hozir, ajab, xuddi atayin choyxo'rlikka kelganday xotirjam o'tiribdi. Mirkomilboyning toqati toq bo'lsa-da, undan sado chiqishini sabr bilan kutdi.

- Bolsheviklarning janozasini qachon o'qiyimiz?

Qo'qqisdan berilgan bu savoldan Mirkomilboy asabiyashdi. Yuzi uchdi. Qo'lidagi tasbeh donalarini g'ijimladi.

- Janozani... suyangan tog'laringizga o'qib qo'yishdi-ku, - dedi u g'ijinib.

Xauston shunday javob kutgani uchun ham bu kinoyani eshitib ranjimadi. Aniqrog'i, bu savolni atayin mezbonning g'ashiga tegish uchun bergen edi. Uning rejasicha, hamsuhbat bir oz asabiyashganda maqsad ayon etilsa ko'ngildagiday bo'lishi kerak.

Bu rejadan bexabar Mirkomilboy bir kinoya bilan uzib oldim deb, o'z ko'ngliga taskin berdi. Aslida u bundan battar gaplarni aytishga ham haqli edi. Qo'qon muxtoriyatining uzil-kesil g'alabasini bashorat qilgan shu Xauston emasmidi?! Qishda Osipovning ad'yutanti bilan kelib, "zavodlaringizni qabul qilib olishga tadorik ko'ravering", degan ham shu Xauston emasmidi? Qani muxtoriyachilar, qani Osipovning sara askarları, qani "TVO" deb olamga jar solgan "engilmas" tashkilot?! Angliyaning yuz million aqchasi, o'n olti tog' zambaragi, qirqa to'pi, miltiqlarining quadrati nimaga yetdi?! Mirkomilboy bularni o'ylasa, "Turkistonning kuni shularga qolganmidi", deb ezilib, o'zini-o'zi bo'g'izlab tashlagisi kelardi. O'n yettinchi yil to'ntarishida ham, zavodlarini topshirganida ham bunchalik iztirob chekmagan edi. Har bir isyonning bostirilishi, har bir mag'lubiyat unga go'yo azroiuning ogohlantirishi bo'lib tuyular edi.

- Siz... chindan ham tarki dunyo qilganga o'xshaysiz, - dedi Xauston bir zumlik sukutni bузib.

- Ko'rib turganim bu buzuq dunyo - dunyo emas, do'zax. Do'zaxdan battar. Janob Xauston, siz o'zgarib qolibsiz. Muddaongizni anglamay qoldim?

- Hayronligingizni sezib turibman, hoji. Daf'atan maqsadga ko'chmayotganimning boisi bor. Taklifimni qabul qilishingizga ishonmayroq turibman.

- Sabab?

- Bu ancha og'ir ish. Sizni qiyab qo'yishim mumkin.

Bu gap Mirkomilboyga malol kelib, bir qo'zg'alib oldi.

- Aying! - uning ovozidagi amirona ohang Xaustonga yoqdi.

- Sizni Afg'oniston safariga taklif etmoqchiman. Kobulda bir oz turib, so'ng Hindiston orqali Angliyaga, o'g'illaringiz yoniga olib boraman.

Farzandlarining eslatilishidan boyning yuragi hapriqib ketdi. Bu taklif uchun mehmonni bag'riga bosgisi ham keldi. Lekin bu oniy tuyg'u edi. Shamolday g'uv etdi-yu, o'tdi-ketdi. Tuyg'ulari o'sha onning o'zida aqlga bo'ysundi. Xauston boyning yuzi bir dam yorishgani, so'ng nigohi yana sovuq tus olganini sezdi. "Bu odamni laqillatish qiyin", deb qo'ydi o'zicha.

- Lekin... - dedi u o'smoqchilab.

- O'sha "lekin"dan boshlasangiz durust edi gapni, - dedi boy.

- Bir-ikki yumushni sizning yordamingizsiz bajarish mumkin emas. Endi ochiqroq tushuntiray: Afg'onistonning yangi amiri nodonlik qilib Leninga xat yuboribdi. Rossiyaga do'st bo'lish niyati bor. Avvalgi amir Farg'onadagi islom lashkarlariga xayrixoh edi. Bunisi aksi bo'lib chiqdi. Agar Lenining choparlari Kobulga yetib borsa, Buxoroning Toshkentga yurishiga ishonch qolmaydi. Ikki amir bir yoqadan bosh chiqarsa, nur ustiga nur bo'lardi. Bugun Turkijroqo'mda Afg'onistonga boruvchi elchilar nomzodi tasdiqlanishi kerak. Biz elchilarning yo'lga chiqishini kechiktirishimiz shart. Ishning bir tomonini pishitgamiz; ular orasida ishonchli odamlarimiz bor. Eng muhimi, elchilar orasida yerli millat vakillari bo'lmasin. Fikrimni anglagandirsiz?

- O'zbeklardan kim borarkan?

- Asadulla Mir'alam. Eski tanishingiz. Yanglishmasam, "Ulamo" jamiyatni uni o'limga hukm qilgan edi. Hukm ijrosi cho'zilib ketmadimi?

- Hukmdan qochib qutulmas. Lekin... u bormasa, boshqasini yuborishar?

- Biz esa vaqtidan yutamiz. Afg'oniston amiriga ular emas, avval biz ro'para bo'lishimiz shart.

- "Biz" deganiniz kim?

- Ma'zur tuting, so'zdan adashdim. Men "siz" demoqchi edim. Turkiston a'yonlari nomidan amir bilan siz muzokara yuritasiz. Amirga bolsheviklar bilan yaqinlashuvning zarar ekanini aytib, ishontirish kerak.

- Mulohaza qilib ko'rishim lozim buni...

Xauston, "ha, albatta", deganday bosh liqillatib qo'ydi.

Mirkomilboy o'n yettinchi yilning bahorida, Xauston niqbobi yechib, asl qiyofasiga kirgandan beri bir narsani ko'p o'laydi: bu odam "avag'amning avag'asi, umurtqamning sho'rvasi" dan battar bo'laturib, Turkiston taqdiri uchun buncha qayg'urmasa? Ikki yil avval xuddi shu uuda Xauston bu savolni o'taga qo'yib, o'zi javob qilgan edi. Mirkomilboy uning so'zlarini yaxshi eslaydi: "Biz yurtimizni Buyuk Britaniya deb ataymiz. E'tibor qiling: Bu-yuk Britaniya! Siz Buyuk Turkiston sultonligi bonyod etmoqchi ekansiz, nechun biz ko'mak bermaylik? Niyatimiz beg'araz, ishonavering. Shubhalanishingiz o'rinni, bir davlat ikkinchisiga bemaqsad yordam bermaydi. Turkiston, mening nazarimda, mana shu dasturxonday to'kin. Maqsadimiz kamtarona - iltifot etgan choqlaringizda shu dasturxonagi ne'matlardan bahramand bo'lish. Biroq biz dasturxoningizga quruq kelmaymiz: pilla olamiz - shoyi beramiz, paxta olamiz - gazlama beramiz, mashinalar beramiz. Mana, janobi Mirkomilboy hoji korxonasiiga bizning mashinalardan o'rnatsa, o'n hissa kuchayadi. Bu yaxshimi yo yomonmi?" Ha, Xauston shunday deb ishontirmoqchi bo'lgan edi. Tan olish kerak, ishongishgan ham edi. Keyinroq loyqa suv tinib, ariq tubidagi haqiqat ko'rindi. Savolga javob juda oddiy edi: Turkistonni Rossiya qo'lidan tortib olib, Angliyaga tobe qilish. Mirkomilboyning buni anglab yetishi uchun ko'p fursat talab etilmadi. U buni anglab yetgani bilan sir boy bermadi, arqonni uzun tashladi. Boy boshqa narsaga hayron: "Turkiston qo'yimidi ki kim yetaklasa ketaveradigan. Tobe bo'lувимизга нима учун qattiq ishongishadi bular?" Mirkomilboy hozir ham shu savol atrofida aylanib, Xaustonning asl maqsadini tushunmoq istardi. Angliyaga, o'g'illari huzuriga olib borishga va'da qilishi - qarmoq uchidagi chuvalchangdek gap, Mirkomilboy nodon baliq emaski, bu qarmoqqa ilina qolsa. Afg'onistonga borish, amir bilan yuzma-yuz bo'lish Turkistonga nima naf beradi? Hoji shuni anglab yetishi kerak. U hozir ming o'ylagani bilan bari bir aniq maqsadning ildiziga yetib borolmaydi. Chunki Afg'onistondagi voqealardan u to'liq boxabar emas. Amirning o'z chodirida o'ldirilganini, o'rniga uchinchi o'g'il taxtga o'tirganini biladi xolos. Angliya bilan urush boshlanib ketgani, bu urushda afg'onlarni yengish qiyinlashib borayotgani, Hindistondagi g'alayonlar inglizlarni ancha shoshirib qo'yg'anidan bexabar.

Tulki ming bir hiylaga ega bo'lsa ham, qopqonga tushib qoladi. Mirkomilboy tulki qismatiga sherik bo'lishni istamaydi. Shu uchun

o'zicha ajoyib bir qarorga keldi:

- Janob, mening yurtdan uzoqlashish niyatim yo'q. Bu tuproqning pokizalanishiga umidim bor hali. Afg'onistonga jo'nashimni ma'qul ko'rар ekansiz, mayli, siz aytgancha bo'la qolsin. Ammo Kobuldan Hindistonga, undan Angliyoga yurishni rejangizdan chiqarib tashlang. Ishni bunday qilamiz: siz yurtingizdagi baobro' janoblarga yetkazing: o'g'llarim Hindiston orqali Kobulga kelsinlar. Vazifangizni ado etganimdan so'ng, birgalikda Toshkentga qaytamiz. Ma'qulmi?

Xauston kulimsiradi.

- Biz uchun bundan oson ish yo'q. Asadulla Mir'alam taqdirini birga ham etamiz. Men Toshkentdan chiqib ketaman. Sizni Buxoroda kutib olaman. Avvalgiday ishonchli odamlar bilan bog'lanib turamiz.

Xauston bu yerdan shom qorong'isida chiqib ketmoqchi edi. Shu sababli shoshilmadi. Ikkovlon "dunyoning ishlari" dan gaplashib o'tirdilar. Bu til uchidagi dilkash suhbat edi. Aslida har birining xayoli boshqa gaplar bilan band.

Mirkomilboy, garchi safarga rizolik berib qo'ygan bo'lса-da, Xaustonning yashirin maqsadlarini izlardi.

Xauston esa uy egasining makkorligiga ham qoyil qolib, ham g'ashi kelib o'tirar edi. Xauston umrining anchasi Sharqda o'tdi. Kerak paytida gadoga hamtovoq bo'ldi, keragida manman degan boylarning burnidan ip o'tkazib istagan yo'rig'iga soldi. Ko'pni ko'rdi, ammo Mirkomilboydayini ko'rmadi. Bu odamni hatto ChK ham yo'q qila olmadi. U yoqda muxtoriyatchilar, bu yoqda osipovchilar, twochilar badnom bo'lib ketdilar. Manman degan siyosatchilar, rahnamolarning biri avaxtada chiriyapti, biri sarsonlikda yuribdi. Hoji esa suvdan quruq chiqdi. Uning Qo'qonga borganini, bu yerda Osipov bilan aloqada bo'lib turganini juda oz odam bilardi. Biladiganlarning ham og'zi mahkam edi. Xauston yuragida bir og'ir dard bor edi: u sharqliklarni odam o'rnda ko'rmas, uning uchun eng og'iri - buni oshkor eta olmas edi. Kasb-kori shunga majbur qilardi. Tagi past odamni ko'pchilik orasida ulug'lab, "nasli toza aslzoda" ekanini isbotlagandan, tug'ma ahmoq odamning "behad o'tkir zehni" haqida gapirgandan keyin haromga qo'l urganday ijirg'anardi. Uning yuragidagi dardlar yurtiga yo'llangan maktublarga ko'chardi, Toshkentda boshpana topgan o'zga xorijiyalar bilan suhbatlarda picha forig' bo'lardi.

Lekin istisno tariqasida ayrim odamlarni yoqtirib ham qolardi. Mirkomilboy nomi ana shu kichik ro'yxatga kirgan edi. Boy faqat oyoq ostiga qaramasdan, uzoqni ko'zlardi. Uzoqni mo'ljal qilganlar, Xaustonning nazarida o'tkir mulohazali bo'lishadi, bular bilan ish pishitsang qoqilmaysan. Xauston o'n yettinchi yil voqealarida bu odamning qo'llagan yurishlariga besh ketdi. U hokimiyat uchun kurashgan jamiyatlarga hotamtoylit qildi. Ammo o'zi hokimiyatga intilmadi - chetda turdi. "Men boyman, men hukmdor bo'laman", deganlarning nechta siyosatchilar, rahnamolarning biri avaxtada chiriyapti, biri sarsonlikda yuribdi. Hoji esa suvdan quruq chiqdi. Uning Qo'qonga borganini, bu yerda Osipov bilan aloqada bo'lib turganini juda oz odam bilardi. Biladiganlarning ham og'zi mahkam edi. Xauston yuragida bir og'ir dard bor edi: u sharqliklarni odam o'rnda ko'rmas, uning uchun eng og'iri - buni oshkor eta olmas edi. Kasb-kori shunga majbur qilardi. Tagi past odamni ko'pchilik orasida ulug'lab, "nasli toza aslzoda" ekanini isbotlagandan, tug'ma ahmoq odamning "behad o'tkir zehni" haqida gapirgandan keyin haromga qo'l urganday ijirg'anardi. Uning yuragidagi dardlar yurtiga yo'llangan maktublarga ko'chardi, Toshkentda boshpana topgan o'zga xorijiyalar bilan suhbatlarda picha forig' bo'lardi.

Mana hozir ham uning javoblarga lol qolib o'tiribdi. Xauston bu yerga kelishida aytadiganlarini ming taroziga solib ko'rgan, Mirkomilboyning tuzoqni izlab qolishini ham hisobga olgan edi. O'ylay-uylay Angliyaga, o'g'llari huzuriga borishni tuzoq o'rniда ishlatalishga qaror qildi. O'ylagani to'g'ri bo'lib, hoji ilindi. Shu sababli ham Xauston uning shartiga ko'na qoldi. "E, boy, - deb o'yladi u, - makrning ham chegarasi bor. Xaustonni laqillatadigan sharqlik hali dunyoga kelmagan. Sen yurtni to'rqovoqdagi bedana deb o'ylaysan shekilli. Bugun to'rqovoqni Peterburg qo'lidan olib bizga in'om etmoqchisan. Lekin bilib turibman, uni ertaga Istambulga uzatishdan toymaysan. Buyuk Britaniya bog'idagi to'rqovoqlarning birida Hindiston, ikkinchisida Eron, uchinchisida Afg'oniston sayrab turibdi. Xotiring jam bo'lzin: Turkiston ham ular yonida umrbod qoladi. Angliya qudrati qayoqda-yu, sening xomxayoling qayoqda!..."

Xauston shomda o'rnidan qo'zg'aldi. Uni hovligacha kuzatib chiqqan Mirkomilboy xayrlashish uchun uzatilgan qo'lni olib, darrov qo'yib yubormadi.

- Janob Xauston, siz o'g'llarimning taqdirini pesh qilib, bu o'yinni yutdim, desangiz yanglishasiz. Mening o'g'llarimdan ko'nglim to'q, ular xor bo'lmaydilar. Nazarimda, afg'on amirini yo'lidan qaytarish sizga juda zarur. Buning uchun o'g'llarimni garovga qo'yishdan qaytmadingiz.

Xauston ishtoni yirtiqligi ma'lum bo'lib, siri ochilgan odamday shoshib qoldi. E'tiroz bildirmoqchi edi, boy og'iz ochirgani qo'ymadi.

- Men amir bilan muzokara yuritishga tayyorman. Ammo bilib qo'ying: o'g'llarimni Kobulda ko'rganimdan keyingina ishga kirishaman. "Mirkomilboy qo'rqaqti", deb o'ylamang. Nimadan qo'rqaman, bir boshga bir o'lim. Xohlasam, siz aytganday Angliyoga jo'navorishim ham mumkin. Sizning boylaringizdan kam emasman. Ammo... - hoji tin oldi, - men umrim bo'yи ko'p narsalar bilan savdo qilganman. Foyda tushadigan joydan qaytish yo'q. Lekin... yurtimni savdoga qo'yishni sira o'ylamaganman. Shu fikr xayolimga kelgan bo'lса, kalomullo ursin. Endi men bilan ish yuritganingizda shularni hisobga olib qo'ying...

Mirkomilboy shunday degach, mehmonning qo'lini bir siltab, qo'yib yubordi. Xauston tang qotdi: bu o'sha, o'zi bilgan boyimi? Uning zehniga yuqori baho bergen edi, ammo bu darajada bo'lishni kutmovdi. Chindan ham boy bilan endi teppa-tengiga muomala qilishi kerakmi? Ba'zan shunaqa yon bosishga ham to'g'ri keladi. Nachora!

Muhiddin Xaustonning orqasidan soyadek ilashib, Eskijo'vagacha bordi. Mehmon izvoshga o'tirgandan keyin bir oz sabr qildi-da, so'ng izvosh kira qilib, uming izidan jo'nadi. Xaustonning uyiga xojasi bilan ketma-ket yetib bordi.

Unga qarab turib, Xauston o'zicha mammun bo'ldi. Bu aysiqd yigitni Qo'qonda Ergashning changalidan tortib olgan edi. Hamma Qo'qon dardida yurganda bu yigit Ergashga atalgan qiz bilan ovora bo'libdi. Qo'rboshining qahriga uchragan odamning birontasi shu paytgacha tirik qolgan emas. Muhiddinin qismati ham shu bo'lardi. Baxtiga shu inglisl oraga tushdi. Mana bir yildan oshdi, Muhiddin xizmatlarini beminnat ado etib yuribdi. Nechta odamning kallasini olib bir tuki qilt etmagan bu yigitga qarab turib, ba'zan Xaustonning yuragiga qo'rquv oralardi: bu xumday kalla ichida nima xayol borligini qaerdan bilsin? Otasini chavaqlashdan toymaydigan odamdan har narsani kutish mumkin. Shu sababli ham Xauston unga hamisha yumshoq gapiradi. Ko'nglini o'ritmaslikka harakat qiladi. "Cho'pni xor tutma, ko'zingga sanchilur", deb bekorga aytmaganlar-ku, axir!

Ko'rinishi qahrli bo'lgan bu inglising yaxshi muomalada yurishi Muhiddingga ta'sir qilgan edi. U Ergash qo'rboshining odam bolasi bajarishi mushkul bo'lgan yumushlarigacha eplab kelardi. Ammo yaxshi gap eshitmasdi. Qo'rboshi juda erib ketgan taqirda: "Obbo zang'ar-e, boplabsan", deb qo'yardi. Xizmatlarining oqibati nima bo'ldi - jonini bitta qizga olmadi. Bu inglisi Xudo yetkazdimi, bilmaydi, har holda shu odam bo'lmasa bitta qizning oh-vohiga jonini tikib, bu dunyodan ko'z yumib ketaverardi. Muhiddin Xaustonni avval xaloskorim deb sig'ingan bo'lса, endi uni avliyoday aziz ko'rardи. Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, deyishadi. Buni qarangki, yaxshi gap bilan kallakesarning ham yuragini zabt eta olish mumkin ekan.

Muhiddin uyostonasida to'xtab, amr kutdi. Kutilmaganda Xauston yonidan joy ko'rsatib, "o'tir", dedi. Muhiddin chang etigi bilan

gilamni bosib o'tib, ko'r pachaga chordana qurdi. U har safar shunday qiladi. Har safar Xaustonning g'azabi keladi. Ammo indamaydi: gilam jordan aziz emas-ku!

- Bir yumush bor, - dedi Xauston. Muhiddin unga baqrayib tikilib qaradi. Bu qarashga inglis dosh berolmay nigohini chetga oldi. - Bir odamning do'ppisi kerak.

- Shuning o'zimi! - dedi Muhiddin yayrab jilmayib. - Qo'lidan kelmaydigan ishmikan, depman. O'sha odamni aytin, boshini olib kelay, do'ppisini o'z qo'lingiz bilan oling.

- Sen Xudo yarlaqagan odamsan. Olloh yomonlarning jonini sening qo'ling bilan oladi. U dunyo-bu dunyo kam bo'l maysan. Shu ishni qilganidan so'ng, istasang, uch-to'rt kun Farg'onangga borib kel, keyin olis safarga jo'naysan.

- Farg'onada menga nima bor, xo'jayin, siz qaerda bo'l sangiz men ham shundaman.

- Qoyilman, senga. Qulog'ingga quyib ol: Mirobod mahallasiga borasan. Asadulla Mira'lam deganni topasan. Uyi boloxonali deyishadi. Boloxonasida dahriy tomoshalar ko'rsatarkan, topishing oson bo'ladi. Ammo ehtiyyot bo'l: ovoz chiqmasin. Bolsheviklarning kerakli odami u. Do'ppisini olishga urinma. Kuli ko'kka uchsa ham mayli. Undan nom-nishon qolmasligi kerak. Bu ishni qoyillatganidan keyin Mirkomil hoji otang bilan safarga jo'naysan.

Muhiddin, angladim, deganday o'rnidan turib, qulluq qildi. Belbog'i orasidn oshiq olib, "gardkam!" deb gilamga tashladi-da: "Yo Jamshid, nafasingdan!" - deganicha tepdi. Oshiq yumalab borib olchi turdi. Xauston kulumisiradi. Muhiddin har safar shunday qiladi. Har safar oshiq olchi turgach, ko'ngli xotirjam bo'lib, xizmatni ado etishga jo'naydi.

U oshiqni olib, o'pib qo'ydi-da, yana belbog'iga qistirib, Xaustonga qaradi.

- Xo'jayin, pitcha aqcha kerak.

Xauston uning maqsadini darrov fahmladi; u pulni oladiyu Kallaxonagami, Langargami boradi. Oshiq tepib, avval atayin yutqizadi, keyin qimorbozlarning xonumonini kuydirdi. Keyin qarzga botgan, xotini yoki qizini yutqazgan besh-olti chapanini ishga soladi. Bir falokt bosib ish pachava bo'lsa ham shularning o'zi balogardon. Mol egasiga o'xshamasa xarom o'ladi, deganlaricha bor. Muhiddin ehtiyyotkorlikda xo'jasidan qolishmaydi. Xauston mana shunisidan mammun.

3

Chaqirilmagan mehmon chiqib ketgach, boyning yuragiga yana g'ashlik oraladi. U Makkai mukarramaga otlangan chog'ida Asadulla bilan birinchi bor uchrashgan edi. Jadidlarning faollaridan hisoblanmish bu yigit Sebzordagi shu uyga kelib, boyga "Adabiyot yoxud milliy she'rilar" degan kitobini taqdim etgan, o'zbeklarga yangicha saboq berish, dunyoviy ilmlarni o'rgatish haqida kyunub gapirgan edi. Mirkomilboyga uning jonkuyarligi yoqib, so'ragan narsasini - yangi usul mакtabga atalgan hadya pulni berib yuborgan edi. Keyinroq Asadullaning boshqa yo'lga kirganini bilib, astoydil afsuslandi. Shunga qaramay "Sibirdan esi kirib qaytgandir", deb "Sho'royi islomianing gazetini shunga topshirishni taklif qildi. Bu gazitda Asadulla din ahli orasidagi johillarning sharmandasini chiqqarganini ma'qulladi. Chunki ayrim din arboblarining millatni jaholatga tortuvi unga yoqmas, ular qo'lidagi hokimiyatning biron nimaga erishuviga ishommas ham edi. Uning fikricha, din arboblarining siyosatga aralashuvi ishni faqat buzar edi. Asadulla ham, do'sti Mirmuhsin ham buni yaxshi anglab, dindorlarning ayblarini fosh etdi. O'shanda "Ulamo"ning hukmini eshitib, Mirkomil hojining yuragidagi bir tomir uzilganday bo'lib edi. "Bir odamga o'limni ravo ko'rmoq bunchalar oson. Bir odam o'lgani bilan bu "Ulamo" gurkirab yashnab ketadimi? Yo bir odamning o'limidan so'ng hayot chiroyliroq bo'lib qolarmidi? Bir-birovimirizni shu zaylda qirib, ado etamizmi? - deb o'ylagandi u. - Bir qavm o'zaro qirg'in boshlasa ular orasida g'olib bo'lmaydi. Nodonlar nahot buni anglamasalar? Mushriklar Rasulullohni haqoratlar qilganlari yetmay, tosh otib, ozor yetkazganlarida ham, muhtaram afandimiz ularni o'limga hukm etish u yoqda tursin, hatto duoyi bad ham qilmagan ekanlar. Bu nodonlar esa biringa haq gapga chiday olmasdan bema'ni fatvoga qo'l ochib o'tirsalar... Oqibat ne bo'lar ekan endi..."

Oqibat shu bo'ldiki, ulamolar hukmining ijrosi endi Xauston istagi bilan amalga oshmoqchi. Balki ulamolar bu qarordan ogoh emasdirlar. Asadulla o'dirilgach, "Jazosini Ollohnning o'zi berdi", deb qo'ya qolishar... Boyning ko'ngli shundan xijil bo'ldi.

Asadullani xavfdan ogoh qilish fikri ham tug'ildi. Ammo boshqa bir kuch uni to'xtatdi: "Xalqni mendan kam yaxshi ko'rmas edi. Lekin boshi gangidi. Yo'lga ko'ndalang turib qoldi. Taqdiri shu ekanda. Menig yo'rig'imda yurganida ko'proq savobli ishlar qilarmidi... Shunday millatparvar odam nobud bo'lib ketaveradimi... Attang... Nima bo'lsa ham endi gunoh "Ulamo"da..." - deb notinch ko'nglini ovutdi. Faqat nohaq hukm chiqqarganlargina emas, bu hukmnning ijrosini befarq kuzatguvchilar ham Yaratgan huzurida gunohkor ekanligini fahm etmadni.

Mirkomil hoji Asadulla bilan oxirgi marta Osipov isyonidan keyingi g'alag'ovur kunlarda ko'rishgan edi. Osipov otib tashlagan komissarlar orasidagi bittagina o'zbekning tasodif bilan tirik qolishi bolsheviklarga mahalliy millat vakillarini xoinlikda ayplashga bahona bo'ldi. Yangi ijroqo'mdan uni chiqarib, Asadullaning saylanishi Mirkomil hojiga xush kelmadi. Asadullani yo'qlatib, bu yo'lidan qaytarishga undamoqchi bo'lganida uning o'zi kelib qoldi.

Shaharni ikkiga bo'lib oquvchi O'rda suvining so'l tomonida yashovchilarning ahvoli nochor ekanligini bayon qilib, oziq-ovqatdan ko'mak berishga da'vat etdi. Mirkomil hoji uning jonkuyarlik bilan aytayotgan so'zlarini diqqat bilan tinglab, javob berishga oshiqmadi. Asadulla ham uni shoshiltirmadi.

- O'rданing bu tomonidagi eski shahar aholisining ahvoli ham nochor, afandim, - dedi hoji Asadullaga sinovchan tikilib. - Ular ham allaqachondan beri bir tishlam nonga zorlar.

- Bilaman, - dedi Asadulla, yengil xo'rsinib. - Ammo, eski shaharlarning dasturxonida ozgina bo'lsa ham turshakmi, yong'oqmi, nonjiydam - har holda bor. Bug'doya o'roq tushadigan paytga eson-omon yetib oladilar, Xudo xohlasa.

- Afandim, bu lafzingiz ajab g'aroyib bo'ldimi, a? Agar O'rданing narigi tomonidagilarning dasturxonida turshagu jiyya bo'lmasa eski shaharlilar aybdormi? Bug'doyni nonga ishlatmay, achitib aroq haydayotgan bo'lsalar-chi? Agar mening imkonim topilguday bo'lsa, ko'makni eski shaharga beraman. Ortsa... yana o'ylab ko'rman...

- Taqsir, hozir ayirmachilik qiladigan payt emas, - dedi Asadulla tanbeh ohangida.

- Topib gapirdingiz, afandim. Ayrimachilikdan hech zamон yaxshilik kelib chiqmagan. Buni ijroqo'mdagи birodarlarining ham bilisharmikin?

- Bu so'zlarining maqsadiningizni anglamayroq turibman?

- Ayrimachilarning eng ulug'lari komissarlariningiz-ku? Sizni yo'qlab, bir fikr bildirishni niyat qilib yuruvdim, niyat xolis ekan, o'zingiz keldingiz. Endi shu fikrimni aytay: Markaziy ijroqo'mda Nizomiddinxo'ja o'rniqa bo'livingiz menga sira-sira xush kelmadi. Balki siyosat bobida aqlim qosirdir, ammo shu kalta aqlim deydiki: siz o'ris va yahudiy komissarlarning aniq maqsadlarini durust fahmlamay ularning nog'orlariga o'ynamoqlikni lozim ko'ryapsiz?

- Ularning maqsadlarini siz fahmlaysizmi? Bilsangiz aytинг?
- Afandim, sizning zehningiz menikidan o'tkirroq. Xudo sizga aqldan bergen: o'ylang-chi, bu yurt bizniki bo'lsa-yu, yurtni boshqarishga tayin qilinmis Markazi ijroqo'mda bittagina o'zbek bo'lsa? Boshqalari o'russi, yahudiyimi, yana kimlar.. qaysi aqlga sig'ar ish bu? Ular bizlarni o'zlarining xohishlari bilan boshqaradilar. Ehtiyyotdan bitta o'zbeknimi yo qozoqnimi saflarida ushlab turadilar bir falokat yuz bersa o'zlari oppog'u o'sha o'zbekmi qozoqmi balogardon. Misol kerakmi? Osipov isyonida Nizomiddinxo'janing ishtiroki yo'q esa-da, uni aybladilar. Ertaga O'rданing u betida bitta odam ochdan o'lsa yoki ochlar g'alayon ko'tarsa sizni ayblaydilar. Sizga maslahatim, ijroqo'mdan chiqing, qanaqangi noma'qul buzoqning go'shtini yegilari kelsa o'zları yeyaversinlar. El-yurt oldida ham javobni o'zları bersinlar.
- Siz aytayotgan yo'l maqbul emas, taqsir. Biz ijroqo'mdan chiqishni emas, unda ko'proq o'ren egallamoqni o'ylashimiz kerak.
- O'ychi o'yiga yetgunicha tavakkalchi uyiga yetadi. Ertaga aldangan go'l bola holiga tushib qolib, yig'lab yurmasangiz edi, deb qo'rqaman. Oq podsho bir burda bo'lsa ham non berib turardi. Bolsheviklaringiz shuning evini ham qilolmayapti. Nahot sizga shu nochorlik yo'li maqbul bo'lsa? "Oh, millat, millat!" - deb yurib, millatni xorlikka boshlamayapsizmi?
- Siz oq podshonning zamonini qo'msayapsizmi?
- Xudo saqlasin! Xossatan, u zamon menga ma'qul ko'rinar. Boyligimga boylik qo'shilgan zamonlar edi. Ommatan esa u ham xorlik zamonini edikim, buni tan olaman. Yana ommatan shuki, podsho zamonini ham, sizning zamonangiz ham bir go'r - xalqqa nur bermaydi. Siz orzu qilgan millat erki sarobrigicha qolaveradi.
- Aybsitmang, taqsir, sizga bir to'g'ri gap aytay: mol-dunyodan ayrilib, ko'zlarining picha xira tortibdi. Sho'rolarning afzalligini mutlaqo ko'rmayapsiz.
- Ajab, ajab, - dedi Mirkomil boy, - ko'rmaganimni ko'rsating-chi?
- Ovrupoliklar Amriqoni zabit etganlarida yerlik xindularni cho'lubiyobonlarga, tog'u toshlarga ko'chirib, unumdar yerlarni egallab olgan ekanlar. Oq podsho ham shu usulni qo'llashni ihtiyoj etgan edi, bundan bexabarmisiz? O'zbeklarning qismatida yerlarini mujiklarga bo'shatib, cho'llarga chiqib ketish yozilgan ekan. Bolsheviklar bunga barham berdilar-ku?
- Daganingiz vaqtinchcha chora, afandim. Qarab turing, zamonni tinchitib olishgach, yana oq podshonning yo'liga qaytadilar. U zamonlarda balki siz bilan biz bo'lmasmiz. Men avlodlarimizning "Otalarimiz juda nodon bo'lgan ekanlar", deyishlaridan xijolatdaman. Siz mol-dunyoni tilga oldingiz, a? Ha, zoxiran "mol achchig'i - jon achchig'i" bo'lib ko'rindir. Biroq, inoning afandim, qo'ldan ketgan boylika armon qilmasman. Boylik kimga baxt beribdiki, menga vafo qilsa. Olloho lozim ko'rib bu boylikni omonatga bergan ekan, istadi-yu, qaytarib oldi-qo'ydi. Berganda shukur qilib edim. Endi ham shukurdaman, qiyomatdag'i hisobim osonlashdi. Mendan ko'ra xorlanganlar bor, nochorlar bor. O'shalardan qilmaganiga shukur. Siz mulla odamsiz, Ollohnning muqaddas kalomlarini bilasiz, Qudsiy hadisda marhamat qilinishicha, Yaratgan egam deb emishki: "Ey Odam farzandi, senga uch narsani ihtiyoj qildim: ya'ni, oila ahlingni, molu dunyoyingni va amalingni. Ammo, mol-dunyoying sen o'lib, oyog'ing yerdan uzilishi bilan ortingda qoladi. Oyog'ing uydan chiqishi bilan oilang ham ajralib qoladilar. Keyin qabrda bo'lasan. Qiyomat kunida faqat yaxshi amaling foyda beradi. Amaling tuzuk bo'lsa seni ham tuzatib qo'yar, agar yomon bo'lsa, seni halok etguvchi yerga topshir..." Afandim, bayonda xatoga yo'l berib qo'ymadimmi?
- Xato-ku qilmadingiz, biroq, "yaxshi amal" deganingizga nochorlarga yordam berish ham kiradi. Bu mas'alada kofirmi-musulmonni qaralmaydi.

Bu gapdan keyin Asadulla yana sho'rolarga ishonmoq mumkinligini, istiqbolda to'kin va ozod hayot chiroyli jilmayish bilan kutmoqda ekanini ishontirmoqqa urindi. Mirkomil hoji bu eski gaplarni toqat bilan eshitdi. Hamsuhbati so'zlamoqdan tingach:

- Ko'ryapmanki, aqidangizga sobit ekansiz. Sizni aqidangizdan qaytarmoqqa urinish - shamolga qarshi qichqirish kabi bo'lsa-da, musulmonlik burchimga rioya etib, ogohlantirmog'im shartga o'xshaydi: bilarsiz, Olloho demish ekanki: "Ey bandam, agar menga bir qarich yaqin kelsang - men senga bir quloch yaqinlshaman. Agar menga qarab sekin yursang - men senga qarab qattiqroq yuguraman". Ojiz fikrim deyapti-ki, siz bir qarich yaqin yurish o'rniga tobora qochyapsiz. Yaratgan egamdan uzoqlashmoqning oxiri xayrli emasdир. Shundan ogoh bo'lsangiz bas..."

Bu gaplarning to'g'riligiga Asadulla amin bo'lsa-da, hamsuhbatidan eshitish malol keldi. U suhbatdan norozi ekanini yashirmay dedi:

- Sizni avvaldan bilmaganimda "dushmanim yana bittaga ko'paydi" deb qaytardim. Vaqtি kelib hammaslak bo'larmiz, degan umidim bor edi. Har holda siz xalqning qismatiga befarq emas edingiz?
- Siz bilan hammaslak bo'lmoqlik meningda umidim edi. Afsusim shuki, siz nojo'ya qirg'oqni tanlab qo'ydingiz. Savohil ayri-ayri, yo'llarimiz ayri-ayri ekan, nachora...

Mirkomilboy Asadulla bilan bo'lgan shu suhbatni eslab: "O'shandayoq paymonasi to'lgan ekanda, o'sha ko'rishuvimiz oxirgisi ekanda. Endigi diydor qiyomatdam? Ya Robbim, adashgan musulmon bandalariga o'zing rahm qil", deb qo'ydi.

Ikkinchi bob - Xayrli Saboh

1

Dunyoni to'rt yil behalovat qilgan urush barham topdi. Janglar Yevropa yerlarida o'tgani bilan uning nafasi Osiyoga ham yetib kelgan edi. Afg'oniston amiri Habibulloxon Germaniyaning mag'lub bo'lgani haqidagi xabarni eshitib, to'g'ri yo'ldan ozdirmagan Yaratganga shukrlar qildi. Berlindan Kobulga qadar mashaqqatli yo'lni bosib kelgan nemis elining elchilari qanchalik urinmasinlar, qanchalik va'dalar bermasinalar, Afg'onistonni Hindiston sari qo'shin tortib, Angliyaga qarshi urush boshlashga ko'ndira olmagan edilar. Aniqrog'i, Habibulloxon ko'proq Angliyaning va'dasiga ishongan edi. Ana endi hisob-kitob vaqtı yetdi: Afg'oniston urushga aralashmadi, shuning hisobiga xazinasi to'ladijan bo'ldi.

Hisob-kitob vaqtı yetganini faqat Afg'oniston amiri emas, balki Germaniyaga qarshi urushgan yigirma yetti davlat rahnamolari ham anglab, mag'lubning boyliklarini talash bo'yicha o'zlaricha reja tuzardi. G'olib davlatlarning rahbarlari Parijdagi uchrashga tayyorlanayotgan onlarda Kobulda saroy ahli amirning Jalolobodga, qishlik qarorgohiga jo'nashiga tadorik ko'rар edi. Amir Parijda dunyo ahamiyatiga molik masalalar hal etilajagidan xabardor edi va shu bois mazkur yig'indan ham foydalanishni reja qilgandi. U yaqinlari bilan kengashib, Angliyaga noma yuborishni lozim topdi. To ulug' davlatlar Parijga to'plangunlaricha

Angliya Afg'onistonning talabini mulohaza qilib ko'radi. Yo'q desa, o'ziga qiyin, amir Parijga borishga ham tayyor. Uning bu qarori faqat o'zigayu Yaratganga ayon. Shu bois ahdning qat'iyligi xususida fikr bildirish qiyin. Hozir amirning qo'liga Hindiston noib-qiroliga jo'natilajak maktub qoralamasini tutqazdilar. Habibulloxon unga ko'z yogurtirdi: "...Ma'lumingizkim, Jahon muhoribasi avvalida Almon vakillari Buyuk Afg'oniston tufrog'iga bosh urib kelib, afg'on elini Almoniya hamda turk eli tomonida turib, Jahon muhoribasiga kirmoqg'a undagan edilar. Buyuk Afg'onistoniga ko'p va'dalar in'om etilgani inobatga olinmay, ziyo al-millat va-d-din jannatmakon padarim amir Abdurahmonxon tomonidan Buyuk Ingliston hukumati ila imzolangan bitimga sodiq qolishni lozim topib, Almon vakolasini yurtimizdan badarg'a qildik. Bizning bu qarori olivimiz Buyuk Inglistoniga xush kelib, Buyuk Afg'onistonni taqdirlash xususida va'dalar in'om qilib edi. Ya'nikim, muhoriba tugagach, Buyuk Ingliston hukumati Buyuk Afg'oniston xazinasiga ellik million rupiy bermagi lozim edi. Bu - birlamchi. Ikkilamchi: Buyuk Ingliston Buyuk Afg'onistonning barcha muammolar borasida mustaqil hukm chiqara olishiga imkon berish xususidagi o'z va'dalariga amal qilib, Farangistonga jam bo'lajak hukumatlarga murojaat etsa, Buyuk Afg'onistonning hurligi, erkinligi, shuningdek, mutlaq mustaqilligini, ya'ni inon-ixtiyormizni o'z qo'limizga to'la berilushi, kelgusi zamonlarda ham bizning ishlarimizga aralashuvdan, afg'on eliga ziyon-zahmat yetkazuvdan o'zlarini tiyajaklarini e'tirof etuvchi yorliqlarni olib, menga yuborsa - nur alannur. Bil'aks, Buyuk Afg'onistonning o'zi Farangiston qurultoyida ishtirot etmakni lozim ko'rib, qurultoy ahliga o'z haq-huquqlarini anglatadi, Tangri taoloning inoyati ila Buyuk Afg'oniston hukumatiga mutlaq mustaqillik in'om etuvchi yorliqlarni ola biladi..."

Amir maktubning so'nggi jumlasini qayta-qayta o'qidi. U qariyb yigirma yil badalida Angliya nomiga bunday keskin ohangdag'i maktub bitmagan edi. "Bu talablar Inglistonning qahrini qo'zg'atadi. So'ng oqibat nima bo'ladi?" Habibulloxon ijobji javobga ishonmas edi. Qaysi nodon arslon panjasidagi o'ljasini ozodlikka chiqarib yuboribdi? Balki qorni to'q sher o'ljasini bir oz erkin qo'yari, ammo oqibat nima bo'lishi tayin-ku?! Angliya rad javobi bergach (umuman, javob qaytarishni lozim ko'rmasa-chi?), amir ahdida turib Parijga bormog'i ham mumkin. U o'ylagan ishining haqligiga ishonsa, hech nimadan qaytmaydigan qaysar odam. Parijga borishga-ku boraveradi. Ammo mustaqillik yorlig'iga qanday erishadi? Parijga jam bo'lganlar uning so'zlariga quloq osadilarmi yoxud Angliyaning da'volarigami? Amirni shu jumboq qiyarnardi. Shu jumboq maktubga muhr bosishga to'sqinlik qilardi.

Shu o'ya o'tirganda ukasi Nasrulloxon kirdi. Amir bu safar Kobulni uchinch'i o'g'li Omonulloxonaga topshirib ketayotgan edi. Nasrulloxon amirni bu fikrdan qaytarmoq qasida unga ro'para kelib "Omonulloxon o'zboshimcha, u sizga nisbatan padarazanning yo'lini afzal biladi. Omonulloxon biron-bir g'alvani boshlab qo'yhami ham mumkin... Poytaxt mo'min-qobil taxt vorisiga, to'ng'ich o'g'ilga qoldirilgani ma'qulmikin..." dedi. Amir ukasining uzundan-uzoq gaplarini indamay eshitdi. Nasrulloxon jim bo'lishi bilan javobni hayalltmadi:

- Biz farmon berganmiz...

Bo'lak gapga hojat yo'q edi. Nasrulloxonaga akasining odati ma'lum. Akasiga ro'pra kelishning befoydaligini bilsa ham, chiqmagan jondan umid degan o'y bilan kirgan edi. Bo'shashib iziga qaytdi.

Habibulloxon ukasining izidan qarab g'ijindi. "Omonullodan qo'rqadi. Unga Inoyatulloning bayovligi ma'qul. Istagan yo'rig'iga soladi. Omonullo bunday emas. Mendan keyin jonini olsa-Omonullo oladi. U shundan xavotirda..."

Amir maktubga yana bir ko'z tashladi-da, uni nari surdi. "Fursat bor hali. Mulohaza qilmoq darkor". U mazkur harakati bilan maktubni emas, balki sirli qotillik onini nari surdi. Shu bo'yisi amir maktubni yana bir oydan keyin, yo'lbars ovidan xushnud qaytganida qo'lga oladi. Ajabtovor dadillik bilan muhr bosadi. Bu dadillik hayotiga nuqta qo'yajagini, maktubi oxir-oqibat umuman javobsiz qolib ketajagini bilmaydi. Hatto umrining so'nggi soatlari, orom olmoq uchun chodiriga kirib ketayotganida ham buni o'ylamaydi...

Hali bu voqealarga ancha vaqt bor. Hozir u Kobulda. Ertaga Afg'onistonning kunchiqaridagi suluv Jalolobodga jo'naydi.

Ukasi chiqib ketgach, uning gaplarini mulohaza qilib ko'rib, o'g'lini chaqirishni lozim topdi.

Amirzodaning qaddi-basti otasiga o'xshardi: oyoqlari gavdasiga nomutanosib - sal kaltaroq edi. Shunga qaramay, u otasiga nisbatan chaqqon, serharakat edi. Amir semirib ketgani sababli gavdasidagi nomutanosiblik aniqroq sezilardi. Badaniga yopishib turuvchi harbiy kiyimi, belidagi tilla bezakli enli kamar go'yo uni yoniga o'sishdan to'xtatib turuvchi vositaga o'xshardi. Tilla popukli pogon, ko'kragidagi har biri o'n yashar bolaning shapalog'iday keladigan nishonlar esa uni pastga bosib turganday edi. Kalta qora soqolli amir og'ir-og'ir qadam bosardi.

Amir xonaga chaqqon qadamlar bilan kirib qulluq qilgan o'g'lini ko'rib, jilmaydi. Tikilib qaraganda har qanday odamni dovdiratib qo'yadigan o'tkir nigohini o'g'liga qadadi. Uning ko'zida g'azab ham, tashvish ham yo'q edi. U go'yo sog'ingan odamiga qarab to'yib olmoqchiday tikilardi. Omonullo otasining bu holatiga tushunmay, taraddudlandi. Yuqoriga qayrilgan kalta mo'ylabini silab, yerga qaradi.

- Poytaxtni senga, seni Xalloqi olamga inonib ketyapman, - dedi nihoyat amir. - Ammo xavotirim bor, - amir shunday deb o'g'liga savol nazari bilan tikildi.

- Nimadan? - dedi amirzoda ajablanib.

- Yengilsan. Boshboshoqlikka moyilsan. Hukmni o'tkazmoqda ojiz bo'lib qolmasmikans? Hukmni o'tkazmoq uchun qattiqqo'l, og'ir bo'lmoq darkor. Ko'ngilbo'shlik fuqaroni to'zitib yuboradi.

- Odillik-chi?

Amir o'g'liga yaqinlashib, uni ikki yelkasidan ushladi:

- Davlatning ustvori - odillik. Amir - Ollohnning yerdagi noibi. Tangri yo'lidagi odillik ila qattiqqo'llik qilmoq esa burchimiz. Afg'oniston - xudodot mamlakat. Islomni g'ayridinlardan xalos etmoq uchun Olloh marhamatini darig' tutmay Afg'onistonni tanlagan. Buni unutma.

Habibulloxon yumshoq kursiga o'tirib, o'g'liga joy ko'rsatdi.

- Ollohnning majburiyatini anglaganman, ammo uni amalga oshirish yo'llarini bilmakka aqlim qosirlik qilyapti, - dedi Omonulloxon, otasi yoniga omonatgina o'tirib.

- Dunyo qalqib turibdi. Biz ehtiyotkor sayyod poylagani kabi g'azavotga ko'tarilish onini kutamiz. Inglistonidan va'da qilingan pullarni undirgach, miltiqlar, zambaraklar sotib olamiz.

- Pushtular bizzdan yarog' kutishyapti. Jihodga chorlashyapti. Afg'onistonning badaniga qilich bo'lib tushgan Dyurandning shartnomasi uch million afg'oni bizdan ayirib turibdimi? Bu qilich yigirma olti yildan beri qabilalarni qon qaqshtayapti-ku? Afg'oniston xudodot mamlakat bo'lmosi uchun avval shu qilichni sindirib tashlash kerakmasmi?

"Padarzanining sabog'i". Shu fikr xayoliga urilib, amirning yuzida zaharli jilmayish zohir bo'ldi.

- Tentak. Aqling chindan ham qosir. Bizning ro'paramizda bo'ri turganda bir navi edi, ammo sher turibdi, anglayapsanmi, sher!!!

- Fikri ojizimcha, sher - hayvonlar shohi. Odamlarga hukm o'tkazmoqchi bo'lgan sher mahv etilmog'i shart.

Habibulloxon o'ng qo'liga tayanib, o'rnidan turdi.

- Sherni mahv etmoq... Men buni istamas ekanmanmi? Sher uch-to'rt yuz minglik lashkari bilan bir hamla qilsa, Peshavordan Kobulga qanday yetib olganini bilmay ham qolasan. Shimolda Mashhaddan Ko'shkka yurish boshlasa quduqqa tushganday bo'lasan. Bugun boshlangan g'azavot Afg'onistonning mahv etilishi bilan tugashiga shubham yo'q. Sherni qarib, kuchdan qolgan deysanmi? Unga Almoniya bas kelolmadi. Rusiyaning yangi hukumati bas kelolmayapti... Yengilsan, go'daksan... Kobulni qanday qilib senga ishonib topshiryapman, o'zimning ham aqlim lol.

Amir bir qo'lini beliga qo'yanicha jimb qoldi. "Ajab, kuyunchaklik bu o'g'limga kimdan yuqdi? Vorisim bo'limgani holda yurt taqdiriga buncha tashvishlanadi? Yo taxtdan umidvormi? U holda mendan keyin og'a-inilar... Jihod u yonda qolib... Nasrulloning tek turmasligi aniq. Ajab... Ajab... Mahmudbek Omonulloga shu qadar kuchli ta'sir o'tkazdimi? Sezmabmidim? Inoyatullo Mahmudbekning to'ng'ich kuyovi. Unda Omonulloning fikrlari shijoati yo'q-ku?... U beg'amlikni qaerdan yuqtirdi?..."

- Mendan so'raydigan so'roving bormi? - dedi amir zarda bilan.

- Sizga sidqidildan xizmatda bo'lish - burchim, burchimni ado etmoqqa bobolarimizning ruhlari yor bo'lgay. Nojoiz so'zlarim uchun avf etib, gunohimdan o'ting. Safarga otlangan oningizda so'rashning xosiyani bo'lmasa ham bir o'tinchim bor.

- Ayt.

- Mavlono Abdul G'anini...

- Yo'q!!! - Habibulloxon keskin o'girilib, o'g'liga g'azab bilan tikildi. Omonulloxon otasi ko'zidagi qahrni ko'rib, beixtiyor o'rnidan turib ketdi. - Aslo!!! - dedi amir dag'al tovushda. - Kimga jon kuydiryapsan?!

- Ul zotdan men saboq olganman. Sizning lutfingiz ila bunyod bo'lgan "Habibiya"da ko'p zoti oliylarning farzandlariga tarbiya berdilar. Sizga xusumatlari yo'q edi, inoning menga, sizga bisyor sodiqlar ul zot. Yurtimizga ziyo kelturmakdan o'zga niyatları yo'q edi.

Omonulloxon otam to'xtatmasin, deb bu gaplarni tez-tez aytdi. Amir buni sezdi. O'g'lining jur'ati ma'qul kelgani bo'lsa ham buni sirtiga chiqqarmadi.

O'n besh yil muqaddam u Kobulda yangi usulda mакtab ochmoq niyatida Hindistondan donishmand muallimlarni chorlagan, amir xizmatiga kelganlar orasida Abul G'ani o'tkir zehni, quvvai hofizasi, bilim daryosining chuqurligi bilan diqqatini tortgan edi.

Chindan ham u Omonulloxonga ko'p saboq berdi. Amirzodaning fe'lidagi o'zgarishlar balki o'sha saboqlarning oqibatidir?

Habibulloxon Abdul G'anining yangicha fikri to'da tashkil etganini, bu to'danering amir tutgan yo'lidan norizo ekanini bilib, uni zindonband qilgan edi. Oradan necha yillar o'tdi. Mahmudbek sardor ham shu uzr bilan bir-ikki yuzlangan edi. Yozdag'i suiqasd, so'ngra yaqinda Bog'i balandga tashlangan po'pisali maktub bo'limganida balki amir o'g'liga yon bosardi. Abdul G'ani tavbasiga tayanibdi, deb ishonib, afv etar edi. Suiqasdan keyin... Poytaxtning gavjum ko'chalaridan o'tib borayotganida amirga o'q uzishga jur'at etdilar, fuqaro "ziyo ul millat va-d-din", deb unga sig'ingani holda bir mal'un uning joniga qasd qildi?! Habibulloxon shunisiga chiday olmasdi.

- Padaringga o'q uzganlarini unutdingmi?

- Axir mavlono Abdul G'ani o'n yildan beri hibsdalar?

- G'oyasi-chi? - amirning ovozi ko'tarildi. - G'oyasi ham hibsdami? Afsus, men bu mal'unlarning jisminigina zindonga tashlab, xumordan chiqibman. G'oyalarini quritishni o'ylamabman. Endi... kech, juda kech...

Omonulloxon otasining fe'lini yaxshi bilar edi: endi unga gapirish ortiqcha. Achchiq ustida afv etmoq o'rniqa qatlga amr qilib yuborishi hech gapmas. Shu sababli amirzoda qo'l qovushtirib, mo'minlik holatida turdi.

Mahmudbek Tarzi kirganida Habibulloxon yumshoq kursida yastanib o'tirgan edi. Amiring o'rnidan qo'zg'almaganiga qarab, Tarzi uning noxush kayfiyatini sezdi. Amir hojido'ppi kiygan, cho'qqisoqol qudasining salomiga alik olib, yonidan joy ko'rsatdi.

- Eshitganingiz bordir, Jalolobodga jo'nayapman. Suyukli kuyovingiz Kobulga noib al hukuma bo'lib qolyapti. Kobulni suyukli kuyovingizga, suyukli kuyovingizni Ollohga inonib topshirdim.

Tarzi kulimsiradi. U amiring kinoyasini tushundi. Buyoqqa kelaturib Omonulloning otasi huzuriga kirib chiqqanidan xabar topgan edi. Ota-bola suhbatining qanday kechgani amiring kinoyasidan oshkor bo'lib qoldi. Shu sababli Tarzi ohistalik bilan gap boshladi:

- Ulug' amirim, kuyovlarimnnig har biri men uchun arjumand. Marhamatingiz bilan men amirzodalarga padarzan bo'lish sharafiga yetishibman, ularning har birini ko'zimning oq-qorasini deb bilaman.

- Sardor, so'zga chechansiz. - Amir shunday deb ayyorona jilmaydi. - Ammo Omonulloni ko'proq yoqtirasiz, tan oling. Sababini aytaymi?

- Aytинг, davlatpanoh.

- Amirkodalar ichida Omonulloning zehni bo'lakcha, ahvoli olamga qarashi bo'lakcha. U dunyoga ko'proq sizning ko'zingiz bilan qaraydi.

- Fikri ojizimcha, amirkoda olamga sizning dono nigohingiz bilan qaraydi. U sizning pushti kamaringiz. Afg'onistonni behad suyishi ham sizdan o'tgan.

- U taxtdan umidvormi?

Bu savol Tarzini esankiratib qo'yi. Sermulohazaliligi va aqli donishligi biln shuhrat topgan bu odam amirga tayinli javob qaytarishga taraddudlandi. Bu yerga kelishida amir odatdagiday xayrashish maqsadida chorlagandir deb o'ylagan edi. Dastlabki kinoyalardan ko'ngli noxushlikni sezdi. Endi bu savol... Yana taxt malasida... Nahot ota-bola shu xususda gap yuritganlar?.. Amirning dili g'ash, ko'ngli notinch...

- Xo'sh, sardor, og'ir jumboq berib qo'ydim shekilli?

- Yo'q, davlatpanoh, sukutim sababi jumboqning og'irligi emas. Meni ko'nglingizga oralagan shubha taajjubga soldi. Taxt vorisi - Inoyatulloxon. Padar amri - vojib deydilar. Omonullo padari amriga zid bormaydi. Bunga imonim komil.

Habibulloxon kulib yubordi. Uning kulgisida shodlik emas, balki zahar zohir edi: yuzi kulta-da, ko'zlarida sovuq o't bor edi.

- Sizni sirtmoqqa tushirib bo'lmaydi, sardor. Ammo bilib qo'ying, mana bular, - amir devorlarga ishora qildi, - devor emas, qulog. Hamma xabar oqib kiradi. Nima edi, - amir istehzo bilan jilmaydi, - javoni Afg'onistonmi?.. Amirdan norizo yoshlar. Qani, aytinchchi, sardor, Habibulloxon Afg'onistonning boshiga kulfat soldimi? Quvg'inlarni yurtga qaytarib, gunohga botdimi?

- Ummizim duoi joningiz bilan o'tadi.
- Gapimni bo'l mang, men minnat qilayotganim yo'q... Yangi maktabni Habibulloxon ochgan edi, yodingizdadir? Jannatmakon padarim xat-savodli afg'onlardan o'ttiztasini saroy xizmatiga chorlagan ekan. Yurt kezib, nechta ilm egasini topishgan? O'nta ham topisholmagan, ha! "Harbiya"ni ham Habibulloxon ochib edi, turk zabitlilarini chorlagan ham Habibulloxon edi. O'zingiz chop etayotgan "Siroj ul axbor" ham Habibulloxon amri bilan yuzaga kelganmasmi?
- Ollo shohid, yurt saodati yo'lida xizmatlaringiz afg'onlarni baxt yo'liga olib chiqg'ay.
- Shunday deng... U holda yoshlarining nimani istaydi?
- Yoshlarimi? - Tarzi ko'zini amirdan uzib, soqoloni siladi.
- To'g'risini aytning, qahrimidan cho'chimang. Menga haq gap lozim.
- Yoshlar Afg'onistonni mustaqil ko'rishni istaydilar. Qulay fursat o'tib ketyapti, davlatpanoh.
- Fursat hali kelgani yo'q.
- Fursat almon vakolasi bilan birga kelgan edi.
- Shundaymi?.. Fursatni boy berganimga nima sabab ekan? Qo'rqqdimmi?
- Yo'q, ulug' amirim, sababi boshqa: yiliga oladiganingiz ikki million to'rt yuz ming rupiy va muhoribadan so'ng berilguchi ellik million rupiy...

Amir xona to'ridagi kursi tomon ko'z tashladi. Tarzi aytgan mustaqillikni va ellik millionni talab qilib yozilgan maktub o'sha yerda turibdi. Habibulloxon bir ko'ngli uni qudasiga ko'rsatgisi, so'ng qattiq-qatiq gaplar aytgisi keldi. Lekin "erta, hali erta", degan mulohazaga borib, o'zini tiydi. Sardor Tarzi unga xunuk ayb taqagan edi. Odatda amirga birov yurak yutib bo'lsa-da, bunday muomala qilolmasdi. Hatto Tarzi ham uning oldida muloyim edi. Endi bu ne hol bo'lidi? Habibulloxon uni haqoratlab haydab chiqarsinmi? Amirning shunaqa odati ham yo'q emas. Biroq hozir o'zi ham sezmagan holda odatini kanda qilib, o'zini oqlamoqqa kirishdi:

- Sizdan eshitganlarimni norastalar aytса ajablanmas edim. Men sakson minglik lashkarim bilan nima qila oлar edim? Ikki biqinimga Inglistonning xanjari tiralgan, peshonamda O'rusiya zambaragi tursa... Buni yoshlarga siz uqtirishingiz lozim edi. Biz muhoribaga aralashmay yutdik. Ko'p yutdik, ha!
 - Endi-chi? Endi peshonamizda O'rusiya zambaragi yo'q-ku? Ular endi bizga do'st qo'lini uzatmamlari mumkin.
 - Ularning kimligini men hali bilmayman. O'rusiya ahli podshohi a'lamni quvg'in qilibdi, yurtni kambag'allar so'rayotgan emish, deb o'zingiz aytgan edingiz. Qani, bir mulohaza qilib ko'ring-chi, o'z podshohidan tongan el o'zga amirga qanday marhamat ko'rsatsin?
 - Yurtni boshqarayotganlarning kimligi menga ham qorong'i. Ammo ular O'rusiya podshohining barcha nohaq farmonlarini bekor qildilar. Afg'oniston ila Eronning mustaqilligiga shak keltirmadilar. Musulmonlarga murojaat etib, g'animlarning kishanlarini parchalashga, ozodlikka undamishlar.
 - Sardor, gazitingizdagи gaplarni takrorlamang. Bu tashviqotlar uchun noibi qiroq ro'znomani yopishni talab etyapti. U haq. Siz mening mehrimni suiiste'mol qilyapsiz. Ro'znama yangiliklar chiroq'i bo'lmay, ikki davlatni barvaqt urshtirib qo'yadigan vositaga aylanib qolishiga sira yo'll qo'yayman, buni uqib oling.
- Tarzi, noiloj o'rnidan turib, qulluq qildi. Habibulloxon unga yaqin keldi:
- Sizni yo'qlatishimning boisi bu emas. Mening asl maqsadimni siz anglashingiz lozim. Yaratganning o'zi belgilagan vaqt yetgach, barchamiz jihodi akbarga ko'tarilamiz. Unga qadar Omonulloni tergab turmoq darkor. "Habibiya" atrofidagi, ro'znomangiz atrofidagi yoshlarga tushuntiring: fuqaro orasida barvaqt parokandalik boshlamasinlar. Omonulloni Kobulda qoldirishimdan maqsad - uni sinamoq. Nojo'ya xatti-harakati bilan qahrimga duch kelmasin. Uni nazorat qilib turing. U sizga suyukli kuyov, menga esa... - amir qudasining ko'ziga tikilib jilmaydi, - arjumand farzand, ha!

2

Dalv oyi oxirlab, Kobuldag'i izg'irinning kuchi ancha qirqildi. Xut yaxshi kelib, hamalga eson-omon chiqib olinsa, buyog'i bahor... Demak, amirning qaytishi ham yaqin. Amir Mahmudbek Tarzi bilan ba'zi-ba'zida maslahatlashib turar edi. Ammo xayrashar chog'i allanechuk gaplar qildi. Buning sababini Tarzi anglamadi. Umuman, amir yozdag'i suiqasdan keyin ancha yurak oldirib qo'yan. Bir tomonda yoshlar, bir tomonda din peshvolariga orqa qilayotgan Nasrulloxon... Habibulloxon gangib qolgan. Tarzi buni biladi. Bunday onda amir qat'iy qarorini anglatishi lozim, lekin u galga solyapti. Bu bilan o'z payiga bolta urayotganini nahot sezmasa?! U Inglistonдан ham cho'chiyapti. Inglistonning ilgarigi kuchi yo'q hozir. Shimolda inglising tinchini Rusiya buzgan. Hindistondagi g'alayonlardan joni halak. Lashkarining borini Afg'onistonga tashlay olmaydi. Sarhaddagi qabilalarga quroq berilsa, ular ikki yuz ming askar bilan bosh ko'tarishi mumkin. Amir buni tushuna olmayapti. Unga kim tushuntiradi? Nasrulloxonmi? Amirning gangib turishi unga foyda emasmi?

Tarzi bu muammolar xususida ko'p o'yladi. Savollar go'yo katta daryo o'zani-yu, javob esa irmoqdan jildirab keluvchi suv edi. U Omonulloxonning xatti-harakatidan ham xavotirda edi. Noib al-hukumaning shahar kezishi amirga xush yoqmaydi, qahrini uyg'otadi. Bunga shak-shubha yo'q. Ammo Tarzi bundan emas, shahar kezayotgan amirzodaning falokatga uchrab qolishidan cho'chiydi. Kuyovi bugun ham odmi kiyimda yolg'iz o'zi shaharga chiqib ketibdi. Oxiri baxayr bo'lsin.

Mahmudbek Tarzi o'zini ovutish uchun gazetiga tayyorlangan xabarlarni qayta o'qiy boshlaganida xonaga kuyovi kirib keldi.

- Xorun ar-Rashidning safarlarini qutlug' o'tdimi? - dedi Tarzi kinoya bilan.
 - Sovar1larda bo'ldim, Ingliston sari ot qo'yishga tayyor ular.
 - Inglistonni birgina risale2 bilan mahv eta olish mumkinligini bilmagan ekanman.
- Omonullo kulib yubordi.
- Noroziligingizning boisini bilolmayapman?
 - Xatti-harakatingizning amirga xush kelishiga ishonchim yo'q.
 - Amir meni Jalolobodga chaqirib olib, Kobulga Inoyatulloxonni noib qilib tayinlaydi. Bu Xudoga ham, bandaga ham ayon. Xo'sh, shunday bo'lsa nima? Men amirzodaman. Padarimga tobe fuqaroning dilidagini bilib olsam yomonmi? Lashkar maoshining ozligidan norizo, fuqaro begor3dan norizo, maliat4ning bisyorligidan norizo. Norizoliklar qo'shilsa, ko'chkiday yopiriladi.
 - Risaleda bir sovar ila so'zlashdim. Choraymoqdan ekan. Saroy xizmatiga chorlasammi, deb fikr qildim. Bunday yovqurlar kerak bizga.
 - Nima uchun?

- Davlat bexatar bo'lomogi' uchun...
- Tarzi bu gapni eshitib, amirning: "U taxtdan umidvormi?" - degan savolini esladi.
- Amir bularni devor emas, qulqoq degan edi.
- Sardor, bu qadar yuraksiz bo'lman...
- Ertaga ham Xorun ar-Rashid libosini kiyish niyatingiz bordir? Juma kunlari bu yumushdan saqlanganingiz ma'qul edi.
- Mavlono Abdul G'anini ziyorat qilsam, degan niyatdaman. Padarim Jaloloboddan qaytgunicha boquvidan boxabar bo'lsam...
- Asti unday qila ko'rman. Bu harakatingiz o'sha kuniyoq amir qulog'iga yetib boradi. Abdul G'ani sizdan olgan luqmasini yutishga ulgurmay, qatl etiladi. Amir Jaloloboddagi sayru hushini tark etishdan ham qaytmaydi.
- Men begunoh bandalarning azob chekishiga ortiq xotirjam qaray olmayman.
- Nailoj, amirzoda, otangizning amriga ham qarshi borolmaysiz...

Omonullo jahl bilan qo'l siltadi. Bundan avval ham qaynotasi uni bir-ikki bor bu yo'lidan qaytargan edi. Amirkzoda g'azabini bosolmay, xona bo'ylab u yoqdan-bu yoqqa bir-ikki yurdi. So'ng qaynotasining ro'parasida to'xtadi.

- Ertaga yo'qlashim shart. Buni Xudo ko'nglimga soldi, - dedi qat'iy.

Ammo Omonullo ertasiga Abdul G'anini yo'qlay olmadi.

Kobul tongi bu safar mudhish xabar bilan otdi. Dastlab qayg'u bilan ko'z ochgan bu saboh, oqibatda el uchun xayrli bo'lib chiqdi. Chodirida uxbab yotgan Habibulloxonning qulog'iga o'q uzgan kimsa amirning jonini oldi va shu bilan, o'zi bilmagan holda xayrli ish ham qildi - Afg'onistonni mustaqillik yo'liga olib chiquvchi darvozani ohib yubordi.

3

Kobul osmoni musaffo edi. Go'yo kecha qora bulutlar hunarini ko'rsatmagandek, go'yo izg'irin shaharni yamlab-yutish qasdida sira avjga chiqmagandek...

Bomdoddan ancha ilgari, so'zi kozibda qo'qqis uyg'onib ketgan G'ulomqodir tashqariga chiqib, tabiatning bu ajoyibotidan lol qoldi. Samo yuzini bezab turgan yulduzlarga bir oz tikildi. "Bir qarasang - olam chiroyli ko'rindi, - deb o'yladi u, - yana bir qarasang - hammayoq abri balo ostida: buzuqlik, adovat, riyokorlik, razolat... bulutlari bosib, yamlamay yutaman deydi. Nimaga shunday ekan?"

Kechagina dili xufton edi. Ichiga chiroq yoqsa yorishmasdi. Mo'ylabi yuqoriga qayrilgan past bo'yli notanish yigit bilan hamsuhbat bo'ldi-yu, qalbining allaqaerida umid chirog'i miltillab qoldi. Yigit odmi kiyining bo'lsa-da, so'zlarini tinglay turib, G'ulomqodir uning oliy martabali zotlardan ekanini fahmladi. Bundaylar so'zlarini chertib-chertib gapiradilar, martabalarini yashirishga qanchalik urinishmasin, gap ohanglaridagi takabburlik ularni fosh qilib qo'yadi. G'ulomqodir otasiga mehmon bo'lib kelgan akobirlar suhbatini tinglayverib, pishib ketgan. Kechagi yigit nima uchun risalega keldi, nima sababdan sovarlar bilan suhbat qurdi - G'ulomqodir bilmaydi. Sovarlarning ahvol-ruhiyasi, turish-turmushi bilan qiziqqanidan bildiki, bu yigitni arkonlardan biri yuborgan. "Inglistonning jilovimizni ushlashi abadiyanmi?" - deyishidan angladiki, oliy zotlar jihod tadorigini boshlaganlar. Yo'qsa, sovarlarning bu xususdagi fikrlari bilan qiziqmas edilar. Urushni akobirlar boshlaydilar. Ingliston o'qiga esa sovarlar ko'kragi qalqon bo'ladi. Sovarlar bunga rizomilar yo yo'qmi, bilib qo'yishlari lozim-da. Shunga qarab ish yuritsalar kerakda. Sovarlarga qolsa, ayniqsa G'ulomqodirga qolsa, Peshovorga qarab bugun desa bugun, ertaga desa ertaga ot soladi.

Shahid ketsa zarracha achinmaydi. Bil'aks, jannatda otasiga ro'para bo'lismidan quvonadi. Biron marta bo'lsin ko'rмагани - otasi ko'ksiga boshini qo'yadi. "Ota, sizning to'kilgan qoningiz uchun, zavjamning bulg'angan nomusi uchun qasos oldim. Gunohlarimni qonim bilan yuvdim, billohi azim, armonim yo'q", deydi. Jangda shahid ketsa, jannatda otasi bilan birgalikda hurlar orasida yashaydi. Saodati abadiyani o'sha joyda topadi. Buzuqlik, adovat, razolat, riyokorlikdan holi poklik dunyosida yashaydilar...

Choraymoq ulug'laridan birining o'gay o'g'li G'ulomqodir shularni o'ylardi.

Kecha Inglistonga qarshi adovatni oshkor qilib ketgan yigitning oyin ad davla1, noib ul-hukuma Omonullo ekanidan G'ulomqodir bexabar: u amirkzodani bir necha kundan so'ng - risale shohi2 safida turganida ko'radi.

Bir necha haftadan keyin esa shu yosh hukmdor amri bilan uning taqdiri butkul o'zga yo'lga burib yuboriladi.

Alhol, bomdodga qadar picha vaqt bor, yengil izg'irin xush yoqib, daraxtning nam tanasiga suyanganicha o'y suryapti. Uning uyqusini kechagi yigit buzmadi. Buning sababi boshqa: xotinining badanini xanjar bilan tilib-tilib tashlaganidan beri yil o'tdi. O'shandan beri bu anduh otashida yongandan-yonib, o'rtangandan-o'rtanadi. Uning ahvoldidan ag'yorlar mammun, ahboblar dili xun. "Boriga boricha g'am, yo'g'iga yo'qcha bor g'am" deganlariday, bu olam sitamlarining bori G'ulomqodirga atalgan ekanmi, bolasfaqir tug'ilgan kuniyoq anduh tuzidan totib qo'ygan. Otasi u tug'ilmasdan bir oy ilgari inglizlar bilan to'qnashuvda shahid ketdi. Onasi - Choraymoqning suluvlaridan biribB" iddatlni oyoqlatib, urug' ulug'laridan biriga tegdi. G'ulomqodir uni "ota" deb o'sdi. Bellashuvda, qilich chopishda, merganlikda, chavandozlikda urug'nинг faxri edi. Bunday yigitga suluv lozimmi? Suluv bor edi, unga nasib etdi. O'zining ko'z ostida o'sgan afifa edi u. O, o'sha kunlar olam qanchalar go'zal edi. Quyosh nur emas, baxt yog'dirardi. Zahar ham asalday tatiydigan kunlar edi... Qani, qayda qoldi o'sha kunlar, o'sha shirin damlar?.. G'ulomqodir bularni eslasa birov yuragini go'yo omburda qisib buraydi. Azobiga chidamay, ingrab yuboradigan kezлari ham bo'ladi. Hozir ham shu holga tushdi. Shart o'girilib, peshonasini muzdek daraxt tanasiga tiradi. Keyin yuzini qo'ydi. Yuziga tekkan shilimshiq narsani qon gumon qilib seskanib ketdi. O'shanda qonli qo'li bilan yuzini silaganda shunday seskangan edi. Qon iliq edi, daraxt tanasi sovuq, nimaga qon gumon qildi, o'zi ham hayron.

Oraga iblis alayhila'na aralashgandan beri olam yigitning nazarida har bir tomchisi hasratdan iborat motam seliga ko'milgan. Bu sel qachon to'xtaydi, to'xtagunga qadar nimalarni yakson qilib ketadi, u bilmaydi. Ko'zini bir yumib ochsa - to'shakni qoniga belab yotgan suluvi keladi. Shunda ko'zimni ochmasam deydi, yorug' olamni ko'rmasam deydi.

Bugun tushida xotinini ko'rdi. Tilib-tilib tashlangan badanidan tirqirab qon oqayotgan xotini uni quchoqlab, o'pyapti, o'pyapti... lablari o'sha-o'sha - olovday. G'ulomqodir xotini quchog'idan bo'shashga urinadi. Na oyoqda, na bilakda kuchi bor. O'pichlardan nafasi qaytib, xirillay boshladi... O'zining xirillashidan uyg'onib ketdi. Shundan keyin hovliga chiqdi.

Bomdodni o'qigach, kundalik yumushlar boshlanib, xayolidagi noxush to'lqinlar mavji bir oz pasaydi. Kun yoyilganda Kobulga oqib kirgan g'alati mish-mishlar sovarlar qulog'iga ham yetib kelib, besaranjomlik uyg'otdi:

- Ziyo ul millat va-d-din amir Habibulloxon ovda yo'lbars changalida qolib nobud bo'libdilar.
- Yo'q, ovga chiqmabdilar. Jalolobodni yer yutgan emish.

Amirning o'limi haqida xabar tarqabdimi - demak, rost gap. Bunday ovoza tarqatishga har kim ham jur'at qilavermaydi. Faqat o'lim sababi qorong'i. G'ulomqodir bu sababga o'zgalar kabi qiziqmaydi. Uni boshqa narsa tashvishga soladi: elning yo'qlovchisi

kim bo'ladi endi? Yurtning boshida ne g'avg'olar bor? Inglishtonga qarshi ot suraman, degan G'ulomqodir taxt ishqidagi amirzodalar deb og'a-imiriliga qiliq ko'tarmaydimi hali? Bu ne ko'rgulik o'zi?! G'ulomqodir maoshining kamligiga ko'nar, xalq begorga, maliatning bisyorligiga ham sabr qilar, biroq amirzodalarning so'qishuvi - Xalloq yuborgan baloga qanday chidasin? G'ulomqodir kunni shunday tahlikali o'ylar bilan o'tkazdi. Kobul tinchi buzildi. Ko'pni ko'rgan savdogarlar rastalarini berkitdilar. Zobitlar ancha muloyimlashdilar. Ularning yurish-turishida, ko'zlarida hadik mavjud edi.

"Amirlik toji noib-us-saltana Nasrulloxonga nasib etibdi", degan xabar yetgach, risale bir guvrandi. Taxtga nima uchun valiahd Inoyatulloxon emas, Nasrulloxon o'tirdi, degan jumboq barchani taajjubga solgan edi. To'g'rirog'i, taxt uchun so'qishishning muqarrarligi oydin bo'lib qolgan edi.

Habibulloxon taxtga o'tirar chog'ida ukasini voris deb, keyinroq esa ahdini buzib, to'ng'ichi Inoyatulloxonni valiahd deb e'lon qilganidan G'ulomqodir boxabar edi. Amir qarorining ne boisdan o'zgargani u uchun qorong'i, aniqrog'i bu xususda sira o'ylab ko'rman. Mana endi yurt qalqib ketganda, fahmi yetgancha mulohaza qila boshladi. Nasrulloxonning valiahdni chetga surib, amir bo'lib olgani unga g'ayritabiyy tuyuldi. Alhol Kobulda uning nomi xutbaga qo'shib o'qilmayotgani esa Jalolobodda battarin ish yuz bergenidan dalolat edi. Inoyatulloxon bayovmi, Nasrulloxon badgirmi, G'ulomqodir bilmaydi. Biroq Kobul noibi Omonulloning jimligi, yangi amirga vafosi, sadoqatini bayon qilmay turishi uni sergaklantirdi. "Habibulloxon dan norozi yoshlarning umidi Omonulloxonda" degan gaplarni eshitib yurar edi. Nahot, to'ng'ich - valiahd qolib, uchinchi o'g'il taxtga chovut solsa? Yurt uch o'rtada talash bo'lmaydimi? G'ulomqodirning xavotiri shu.

Ne baxtki, uning xavotiri uzoqqa cho'zilmadi.

Ko'klam nafasi Kobulga bir kunlik mehmon ekan. Shanba tongi bilan yopirilgan sovuq astoydil o'rnashib oldi. Ertasiga kun ochiq bo'lsa-da, sovuqning kuchi qirqlmadi.

Kobul ahli ertalabdan Ark maydoni sari oqdi. Erta tongdanoq jarchilar jar qoqib, noib ul-hukumaning nutq irod etajagini xabar qilib chiqdilar. Risale shohi oldingi qatorda saf tortdi. Jamoa amirzodani uzoq kutdi. Noibning o'z og'zidan eshitilajak so'zlarga bo'lgan qiziqish sovuq qahridan kuchliroq edi.

Kun peshindan oqqanda darvoza ochilib, harbiy libosdag'i amirzoda as'asa-dabdbaba bilan chiqib keldi. U aqrabolardan ilgarilab, maydon o'rtasiga yetgach, jilovni qattiq tortdi. Gijjinglab turgan ot kishnab, ikki oyoqdik tik turdi. Olomon nafas yutib, amirzodaga tikildi. G'ulomqodir uni tanib, bir oz gangidi. Jilovi bo'shagan ot old oyoqlari bilan yer tepindi. Omonulloxon qilichini shart qinidan sug'urib, baland ko'tardi.

- Aziz fuqaro! - dedi u jarangdor ovozda. - Olloh-taolo yurtimiz boshiga beadoq qayg'u yubordi. Din va millat ziyosi, arzandai ikromanda padarim, Afg'onistonimiz amiri amir Habibulloxon bandalikni bajo keltirdilar. Azroil padarimning jonini kimning qo'lli ila olgani menga noma'lum. Kobul fuqarosi qarshisida, Olloh-taolo oldida ont ichib aytamanki, padarim joniga qasd qilgan mal'unni topib qasos olmagunimga qadar bu qilichni qiniga solmayman! Jalolobodagi durbarl da Nasrulloxon valiahd Inoyatulloxonni chetga surib, noib us saltana amirlik tojini o'z boshiga kiyibdi. Aqoidga to'g'ri kelmaydurgon, Ollohning g'azabiga uchrovi bu harakati evaziga Nasrulloxon jazoga tortilgay.

- Aziz fuqaro! Endi mening so'zim shudir: Ingliston Afg'onistonni aftoda yurt qilib qo'ydi. Bugundan e'tiboran Buyuk Afg'onistonning inon-ixtiyori o'zida. Yorug' dunyodagi mustaqil davlatlar qandayin haq-huquqqa ega bo'lsa, bizning ozod yurtimiz ham shu huquqlar egasidir. Ozod Afg'onistonning tobeleri ham ozoddirlar. Bugundan e'tiboran, begorga barham berilgusi, maliat kamaygusi, lashkarlar maoshi oshirilgusidir. Padarim arvohi haqqi shu qarorga keldim!

Omonulloxon qilich o'ynatganicha otni burdi. Yuvosh otda cho'kib o'tirgan Tarzi kuyovining so'zlaridan mamnun bo'ldi.

G'ulomqodir amirzodaning gaplarini jon qulog'i bilan tingladi. Omonulloxon arkka kirib ketgandan keyin ham maydondan ko'z uzmadni. Nazarida darvoza qayta ochilib, noib ul-hukuma chiqib keladiganday, muxtasar nutqiga qo'shimcha yana allanimalar deydiganday edi.

Amirzodaning jumboqli nutqi mag'zini har kim o'zicha chaqib, asta tarqala boshladi. Zobitning buyrug'i bilan sovarlar ham otlarini burdilar. G'ulomqodir Omonulloxonning yashirin niyatini payqaganday edi. Noibning nima sababdan o'zini amir deb e'lon qilmagani ko'p qatori uni ham taajjubga soldi.

4

Omonulloxon amakisining amir bo'lib qolganiga ko'pam hayratlanmadni, aksincha, g'azablandi. Yana ham aniqroq aytilsa, o'ylagani ro'yo bo'lganidan achchiqlandi. Vodarig'kim, amir Habibulloxon qanotidagi ukasining pinhon niyatlarini fahmlamadi. Fahmlasa ham chora ko'rmasdi. Aks yo'l tutib, rostbasar yoshlardan shubhalandi. Endi vovaylo aytmoqqa ne hojat? Endi yurt taqdirini o'yalamoq lozim. "Oh, endi elning ahvoli nima kechadi? U barandozning piri Abdul Razzoq aqoidni ro'kach qilib, yurtni jaholat chodiriga chirmab tashlamaydimi? Mamlakat ixtiyorini butkul Inglistonga berib, sadaqalarini olib, ayshlarini surmaydimi?

Afg'onistonning horijiy davlatlar ila aloqada bo'lmosg'i mutlaq zarar deb hisoblar edi. Uning shu istagi bilan Afg'oniston olam aro vohid bo'lib qolaveradimi? Olam nurga to'lganda nechun biz qorong'ilik ichinda ojiz tentiraymiz, bani bashar sohillarda farog'at qo'ynida bo'lgani holda, nechun afg'on eli to'fon ichinda behalovat yashamog'i kerak? Yurtning yozug'i shumi?!" Omonulloxon shu fikrlar iskanjasida, katta xona, nainki xona, olam ko'ziga tor ko'rinar edi.

U bir narsani aniq biladi - Nasrulloxon amirlik tojiga noloyiq. Inoyatulloxon ham. Ikkinci akasi - Hayotulloxonning onasi past tabaqadan, amirlikni xayol qilmasa ham bo'ladi. O'zi-chi? O'zi loyiqli? Bunga jur'at etib, taxtni omon saqlab qola oladimi? Axir sardorsalor1 Jalolobodda, amirlikning sara lashkarlari ham o'sha yerda. Agar qo'shin Nasrulloxonga sodiq bo'lsa, Omonulloxon nima qilar olardi? Omonulloxon kallasiga kelgan bu fikrdan g'ijinib, shart burildi-da, deraza oldiga bordi. Anchagacha shu ahvolda - harakatsiz turdi.

Eshik ochilganini sezib qaradi: oldinda hindcha libosdag'i Abdul G'ani, orqada qaynotasi Mahmudbek Tarzi.

- Sizni ozod ko'rmaffa yetkurganiga shukr, - dedi Omonulloxon, ustoziga peshvoz chiqib.

Abdul G'ani kaftalarini birlashtirib ta'zim qildi.

- Mening ozodlik kunim sizning anduhli kuningiz ila yobasta bo'lgani afsusli hol. Umid ulkim, idborin Haqtaolo iqbolg'a mubaddal qilg'ay.2 Sizga sabr bersin, hazrat amir sohib.

Omonulloxon, yuragi shig' etib, qaynotasiga qaradi. Tarzi miyig'ida jilmayib qo'ydi.

- Siz yanglish so'z aytdingiz, men... amir emasman.

- Vallhoi a'lam, balki boshingizga tushgan qayg'u Afg'oniston uchun kulfat emas, saodatdir. Buni zindon azobini totgan kishi emas, afg'on eli xizmatiga kelib, ravzamonand yurt baxtini astoydil tilagan odam aytaypti.

- Mavlono Abdul G'ani haqlar, Afg'onistonning boshi johillik kundasida chopilsin, desangiz, amakingizga ostonbo'sliq1 ilá sadoqatingizni bayon qiling. Yurtim osmonida quyosh charaqlasin, desangiz, boshingizga toj kiying. Boshingizdag'i toj - yurtning hurnlik quyoshi.

- Yo'q!!!

Shunday orzusi bo'laturib birdan: "Yo'q!" - deb yuborganiga Omonulloxonning o'zi ham taajjublandi. Taklifni barq sur'atda qabul qilish ham nodonlik bo'lar edi. Bayiharnav: "Yo'q!!!" - deishi durust bo'ldi, faqat... u qadar keskin aytmasligi lozim edimi... Omonulloxonning jimb qolganini o'zlaricha tushungan hammaslak bu ikki odam bir-biriga ma'noli qarab oldi.

- Umr bahori yetsa bulbullar kelgusidir, - dedi Tarzi. - Afg'oniston bahori yetdi. Buni anglamak kerak.

- Anglayman, ammo nochorman, - Omonulloxon shunday deb bir necha daqiqa muqaddam lashkar borasida xayoliga kelgan gapni bayon qildi.

- Vahmak bo'limgan. Ko'nglingizga navmidlik ham yetmasin, - dedi Abdul G'ani unga javoban. - Sardor Tarzi qo'shinda yosh afg'onlar ta'siri baland deb aytdilar. Habibulloxon baytulmol ishqida lashkarni maoshdan siqib, norizo qilgan ekan.

Nasrulloxonning bu borada saxiy bo'lariha imonim komil emas. Alqissa, qo'shin unga nofarmondir, vafo qilmas. Fuqaro esa vati-kuti, a'rofda qolgan odam etagini ushlamas. Siz jur'at etmas ekansiz, yurt parokandalikka yuz tutar, Jalolobodda Nasrulloxon nomini xutbaga qo'shib o'qitaversin. Bunda siz Kobulning osmontaziin ahlini chorlab, qaroringizni aytинг. Yosh afg'onlar esa ahclarini fuqaroga ma'lum qiladilar.

Omonulloxon bu gapdan keyin ham bir qarorga kela olmadi.

- Jalolobodda ne hol, bilmaymiz, - dedi u qaynotasiga qarab.

Shu gapi bilan ikkilanayotganini oshkor qildi. Tarzi buni tushunib, kuyovini yolg'iz qoldirishni ma'qul ko'rdi. Abdul G'anini bilagidan asta ushladi. Ikkovlon xayrashib chiqdilar. Bo'lajak amirni alanga olgan toj kiyish orzusi bilan mag'lubiyat xavotiri iskanjasiga topshirib ketdilar.

Jaloloboddan dastlabki ishonchli xabarlar kelgunga qadar u ichidagini sirtiga chiqarmadi.

"Pulton1da g'alayon ko'tarilibdi. Nasrulloxonga sodiqmiz, degan zabitlarni sarbozlar kaltaklashibdi", degan xabar Omonulloxon ga dalda bo'lib, fuqaroni Bog'i balandga, ark maydoniga chorlash haqida farmon berdi. Shunda ham maqsadini ochiq bayon qilmadi. Jumodul avvalning yigirma oltinchi kuni, Jalolobodda isyon ko'targan lashkar bilan fuqaro birlashib, Nasrulloxon, Inoyatulloxon, sardorsalor Nodirxonni hibsga olganlaridan keyingina, juma namozidan so'ng, amir Omonulloxonning nomi xutbaga qo'shib o'qildi.

Idgoh masjididan Bog'i balanddag'i qarorgohiga qaytganida, Qodir og'a hazratning muborakbod etmoq maqsadida tashrif buyurganini ma'lum qildilar. Omonulloxon bu tashrifdan taajjublandi. Hazrat bilan hozirgina masjidda xayrashib edi. Uni bu yerga muborakbod etish istagi olib keldimi yo boshqa biror niyati bormi? Shu qiziqish bilan hazratning "muborakbod"ini qabul etajagini bildirdi.

Qodir og'a hazrat oppoq soqolli, ko'zlar tiyrak, payg'ambar yoshidan hatlagan bo'lsa-da, yurish-turishi bardam odam edi. Uning qarashlarida anglash mushkul bir sehr mavjud, shu bois u arkoni dinga emas, fusungarga o'xshab ketardi. Hazrat avvallari amir Habibulloxon huzuriga tez-tez tashrif buyurib turardi. Izdahomlarga uning taklif etilishi muqarrar edi. Nasihatgo'ylikni kasb etgan bu odam Omonulloxon ga uncha yoqmasdi. Na iloj, ko'ngil istagi shart-sharoitga hukmini o'tkazishi mushkul, aksincha, shart-sharoit ko'ngil istagini o'z yo'rig'iga solib turadi. Qodir og'a hazrat faqat saroy ahli orasida e'tiborli bo'lsa bir nav edi. Hirotu Jalolobodgacha, Mazori Sharifu Qandahorgacha avom hazratning nomini eshitsayoq ostonbo'sliqqa shaylanadi. Bunday e'tiborga yana Nasrulloxonning piri Abdul Razzoqgina da'vo qilishi mumkin. Agar Omonulloxon ko'ngil istagiga yurib, Qodir og'a hazratni o'zidan uzoqlashtirsa, tang ahvolga tushib qolishi tayin. Ikki qo'chqorning birlashishi mahol deydilar, ammo zarur hollarda ularning boshi bir qozonda qaynay olishi ham mumkin. Bunga ishonmagan odamning aqli qosirdir. Halokat yoqasiga kelib qolgandan keyin ko'zning ochilishidan ne foyda?

Hazrat kirib kelgunga qadar o'tgan qisqa fursat ichida Omonulloxon shularni fikr ko'zgusidan o'tkazib, unga iltifot ko'rsatmoqchi bo'ldi. Amirga yarashmagan ishni qildi: huzuriga kirgan odamga peshvoz chiqib, yengil ta'zim bilan kutib oldi.

Qodir og'a hazrat uzundan-uzoq tabrik so'zlarini aytgandan so'ng amir unga javob berdi:

- Tangri amirlik libosini menga lozim ko'rgan ekan, haq yo'liga jonimni tikgayman. Ammo qanotimda siz, siz kabi akobirlar bo'lmas ekan, sahrodagi yakka daraxt holiga tushaman. Yakka daraxtning qismati ma'lum. Vohidlik - Xudoga oid, amirga emas.

Yosh amirning bu gaplari hazratga behad ma'qul tushib, labida nimkulgu paydo bo'ldi.

- Padaringiz donishmand edi - bobongiz yo'lini tutdi. Noxalafl o'g'ildan o'zi asrasin. Tashrifimning boisi - muborakbod bahonasida sizni ayrim gaplardan voqif etmoq. Ijozat bersangiz...

- Qulog'im sizda.

- Menga yetib ma'lum bo'lishicha, Kobulda Inglis Tonga urush ochmoq qasdida yonib yurganlar mavjud emish. Amir sohibning Inglis Tonga qarshi urush ochish niyatlarini bormi?

- Behuda qon to'kmakka ne hojat?

- U holda ark maydonidagi nutqingizni anglamabman.

- Men Afg'oniston mustaqil bo'lmog'i darkor, tizginini Ingliston qo'lidan olamiz, dedim.

- Tizginini bermasalar-chi?

- Unda... buni mulohaza qilib ko'rishga fursat bor.

- Men bisyor o'ylab, bu xususdagi fikrimni sizga aytmoqqa jur'at qildim.

- Padarim qarshisida qandyarjur'atda bo'lsangiz, mening qarshimda ham shunday bo'lavering.

- Inglis Tonga qarshi harakatlardan o'zingizni tuta turing. Jannatmakon Habibulloxonni bunday harakatdan tutib turgan bir sabab bor edi. Men shuni aytgali huzuringizga kelganman. Padaringiz Afg'oniston sarhadlarini birmuncha kengaytirishni xayol etib edilar. Ya'ni, Jayhunning ul qirg'oqlari ham afg'on yerlariga qo'shib olinuvli lozim, deb edilar. Alhosil, bu kunlarda islam yo'lida qon to'kayotgan ellarga rahnamolik qilishni Olloh dillariga solgan edi. Amirning farmoni ila a'yonlarimiz amiralmuslimin ila shartlashuv niyatida Farg'ona muzofotiga bordilar. Mashriqda Farg'onadan boshlanub mag'ribda Xazar bahriga tutashuvchi ulug' musulmon davlati barpo etuvida amirimiz ko'maklashib, oqibatda bu davlatni qanotlariga olmoq niyatlarini bor edi. A'yonlarimiz amiralmuslimin ila bo'lak qo'rleshilarni baqamti qilmoq harakatida Farg'onada qolganlar. Buxoroda ham talay a'zamlarimiz, alaxsusus, arkoni harbda bor. Alqissa, Inglis Tonga qarshi bormoqlik, padaringiz boshlagan ishlarga putur yetkazmog'i tayin.

Bu gaplarni eshitib, amir qorong'ilik chodiri ostida goldi. Bu odam uning oyoqlari ostiga tuzoq tashlayaptimi yo chindan to'g'ri

yo'l ko'ssatayaptimi? Bular nimalarni orzu qilishgan? O'zi mustaqil bo'limgani holda, o'zga davlatga (hali yo'q davlatga) qanday rahnamolik qilish mumkin? Omonulloxon shimoldagi ahvolni yaxshi bilmaydi. Balki Farg'onadan Xazar bahriga qadar yerlarda musulmon davlati buniyod etishga amiralmusliminda kuch bordir. Ammo shunday katta kuch topa odam Inglistonidan sadaqa olib kun ko'rayotgan Afg'onistonga bosh egib kelarmikin? Panoh istab o'ziga mustaqil, quvvatliroq davlatlarga murojaat etmasmikin? Turk hukmdori turkiy zabonda so'zlashuvchi xalqlarni Afg'oniston xitiyoriga topshirib, qo'l qovushtirib turarmikin? "Nahot padarim shularni mulohaza qilib ko'rman? Do'stni ag'yor bilib, ag'orni birodar etmakning oqibati bu.." Qodir og'a hazrat amirning o'ya botganini ko'rib, "gapim nishonga yetib bordi", deb xotirjam bo'ldi. U aytadiganini aytib, muddaoga erishgan edi, shu sababli yana bir karra muborakbod etib, yana bir karra duo qilib, iziga qaytdi. Omonulloxon esa g'azabdan lovullab, uni la'natladi.

5

Buyuk Britaniyaning Hindistondagi hukmdori - noibi qirol lord Chelmsford keyingi paytlarda Afg'onistondan xushxabar kelishiga ishonchini yo'qtdi. Simlada ob-havo yaxshi bo'lsa-da, u qarorgohidagi tennis kortida kam ko'rinadi. Uning tinchini avval Habibulloxonning mustaqillik so'rav yuborgan maktubi oldi. Bu xomxayol amirning taqdiri osonlik bilan hal etilib, Nasrulloxon dan noma kelgach, noibi qirolning chehrasi sal yorishgan edi. "Buyuk Inglistonning Hindistondagi noibi qiroli lord Chelmsford hazrati oliylariga..." Maktubning boshlanishiyoq unga yoqqan edi. "Buyuk Afg'oniston ila Buyuk Inglistonning birodarlik rishtalari yanada mustahkam bo'lmg'ini Yaratgandana so'raymiz. Ollohning inoyati ila Buyuk Inglistonning qudratiga qudrat, shuhratiga shuhrat qo'shilib, Buyuk Afg'oniston bu qudrat, bu shuhrat soyasida gullab-yashnagay..." Afg'oniston, Chelmsfordning nazarida, endigina farosatli amirga yolchigan edi.

Ko'ngil quyoshining charaqlashi, xushxabarning umri bir haftalik ekan. Bir haftadan so'ng, Nasrulloxonning taxtdan tushgani, Kobulda Omonulloxon toj kiygani haqida darak keldi. Xabar bilan izma-iz amirning maktubi ham yetdi. Chelmsford maktubdan yaxshilik ham kutmagan edi. Birinchi murojaatning o'ziyoq fikrini tasdiqladi: "Hindiston noibi qiroli lord Chelmsford janoblariga..." Bu qadar quruq, bu qadar beadab murojaatnomani Chelmsford shu paytgacha uchratmagan edi. Ayniqsa maktub xotimasi Hindiston hukmdorining bo'g'ziga o'qdek qadaldi: "Ma'lumingiz bo'lsinkim, ozod va mustaqil Afg'oniston hukumati Ingliston hukumati ila istalgan paytda do'stlik va o'zaro hurmat qoidalari asosida ham sizning, ham bizning davlat manfaatlariga mos keluvchi, tijorat ishlarimizga foyda keltiruvchi shartnomalar tuzishga rizodur va bu muzokaralarini boshlashga shaydur..." Chelmsford bu maktubni o'qigach, kun bo'yи o'ziga kelolmay yurdi. Hatto Habibulloxon ham bu qadar bezbetlikka jur'at etolgan emas. Bu go'dak nima qilyapti o'zi? Malokand ahli ko'targan isyonni bostirishda qatnashgan leutenant Uinston Cherchill xotiralari jamlangan kitobida: "G'azavotga ko'tarilgan afg'onlar quturgan itlarni eslatadilar. Shu bois ularni itday xor qilish kerak..." degan ekan. Keyingi kunlar ichi Chelmsford shu jumlalarni qayta-qayta esladi. Agar Georg V1 inon-ixtiyorni unga to'la bergenidami, bu yurting kulini ko'kka sovurib yuborardi-ya!

Necha kunki, u Afg'onistondan kelayotgan xabarlarni sinchiklab o'rganadi. Dastlab, Omonulloxonning maktubini o'qiganda, g'azabini bosish uchun, "amirning g'o'rliqi-da, bu", deb o'ziga-o'zi tasalli ham bergan edi. Xabarlar oqimidan ma'lum bo'lyaptiki, bu shunchaki g'o'rlik emas. Yangi amir otasiga o'xshab mustaqillik so'rav o'tirmadi, hech narsadan tap tortmay, ovoza qilib qo'yha qoldi. Xalqni o'ziga qaratdi. Endi bu xalq amir o'l desa o'ladi, tiril desa tililadi. Kun o'tgan sayin Afg'onistonda tartib qaror topyapti. Hatto Maymana noibi ham tiz cho'kibdi.

Chelmsford Afg'onistoni avvalgiday tobe qilish endi oson emasligiga astoydil ishona boshladi.

Bugun barcha g'alvalardan bir oz holi bo'lmoq maqsadida tennis kortiga kelgan edi. O'yini qovushmay battar asabiylashdi. Raketkani uloqtirdi. Tashqi ishlar bo'yicha kotibiga ruxsat bergenidan afsuslanib, uni yana chaqirtirdi. Gamilton Grant hayallamadi.

- Mister Grant, - dedi Chelmsford uni boqqa boshlab, - siz Nasrulloxonni mendan ko'ra yaxshiroq bilasiz. Bu lapashang Londonda ta'llim olgan. Yanglishmasam, Abdurahmonxon taxtni dastlab shu o'g'ilga mo'ljallagan edi. To'qqiz yuz birinchi yilda og'zidagi luqmasini oldirdi. Bu safar-chi?

- Bu safarmi?.. Bu safar befahmlik qildi. Kobulda katta jiddiy kuch borligini nazarga ilmadi. Ser, buni biz ham hisobga olmadik. Lashkar maoshini oshirganda bu g'avg'olar yo'q edi. Bir necha ming rupiy bilan bitadigan ish edi. Nasrullo xasislik qildi, biz esa qarab turdik. Omonullo noiblik davridayoq sovarlarga va'da bergan ekan. Bu gap Jalolobodga yetib kelib, sarbozlarning g'azabini qo'zg'atgan. Buning ustiga mustaqillik haqidagi va'dalar...

- Xo'sh, va'dalar bilan taxtani qancha ushlab turish mumkin?

- Bir-bir yarim oy. Uzoqqa borolmaydi. Xazinasi ma'lum-ku? O'jarlik qilaversa, subsidiyani to'xtatamiz. Shunda ham esini yig'ib ololmasa, buning ham ishi oson: nari borsa, bir haftalik urushda Afg'oniston degan nomni xaritadan butunlay o'chirib tashlashga to'g'ri kelar, balki?

Chelmsford indamadi. Xayolida: "Qani edi shunday bo'lsa", deb qo'ydi. Gamilton uning rangpar ot yuziga qarab, biron ma'no uqa olmadni.

- Kalta o'ylaysiz, Gamilton, - dedi Chelmsford qat'iy ohangda, - Afg'onistonning shimol bilan aloqasini hisobga olmayapsiz.

- Rossiya bilanmi? - Gamilton zaharxandalik bilan kului. - Bolsheviklar avval o'zlarini eplashsin.

- Lenining topshirig'iga ko'ra Habibulloxon bilan aloqa o'nmatmoqchi bo'lishganini menga o'zingiz aytuvdingiz. Habibulloxonning ehtiyyotkorligi tufayli bu ish amalga oshmagan edi. Endi ularga kim to'sqinlik qiladi? Amirning yonida kim borligini unutmang. Rossiyadagi to'ntarishni gazetasida maqtagan odamdan nima kutish mumkin? Omonulloxonning Lenin bilan aloqa o'nmatishiga shubham yo'q. Bizdan olmagan yordamni, oz bo'lsa ham ulardan oladi. Biz bu yerda savdo yo'lini berkitsak, Rossiya orqali Yevropaga chiqadi.

- Biz bunga yo'l bermasak-chi? Mallison Kushka, Termiz, Karkini olsa, Omonullo dardini kimga aytadi? Qafasga tushadi-ku? Ana unda istasak, don beramiz, istasak...

- Gap bunday, Gamilton, vazifangizdan to'yungan bo'lsangiz, ziyrakroq ish yuriting, Afg'oniston Rossiya bilan aloqa o'nmatish uchun bugun bo'lmasa ertaga harakat boshlaydi. Biz bunga yo'l qo'ymasligimiz shart. Nima qilishni o'ylang. Operatsiyaga shaxsan o'zingiz rahbarlik qilasiz. Hamma choralarini ishga solishingiz mumkin. Amir Olimxonchaga chopar yo'llang: Karki, Termiz, Kushka yo'llarini qattiq nazorat ostiga olsin. Toshkentga bitta ham afg'on, Afg'onistonga bitta ham bolshevik o'tmasligi kerak. General Mallison Olimxon bilan doimiy aloqada bo'lsin. Yana ehtiyyot chorasini ham ko'rib qo'ying: Rossiya bilan aloqa o'natalidigan taqdirda. - Chelmsford Gamiltonga savolomuz tikildi, - bu dunyoda anqov odamlar ko'p, to'g'rimi, xo'sh, demak, aloqa o'natalilgan

taqdirda, afg'on elchilari orasida ham, rus elchilari orasida ham o'z odamingiz bo'lishi shart. - Chelmsford endi boqqa yurmay, saroy tomon burildi. Gamilton unga ergashdi. Chelmsford zinalardan chaqqon ko'tarilayotib, birdan to'xtadi: - Ha, aytmoqchi, Olimxon bilan Omonulloxonning do'stlashuviga zinhor yo'l qo'y mang, bu ham esingizda tursin. Chelmsford yuqoriga ko'tarilganda ichkaridan xizmatkor chiqib, unga dumaloq kumush patnisda bir parcha qog'oz uzatdi. Noibi qirol xizmatkoriga qaramay, xatni oldi. Avval bee'tibor ko'z tashladi. Keyin qoshlarini chimirib tez-tez o'qidi-da:

- Ana! - dedi qo'lidagi qog'ozni silkib, Zinadan ko'tarilayotgan Gamilton uning avzoyini ko'rib, to'xtadi. - Ana, bir yarim oyga hukm qilgan amiringizning gaplarini o'qib ko'ring!

Gamilton yuqoriga ko'tarilib, xatga qo'l uzatdi. Lekin Chelmsford xatni unga bermay, kinoya bilan gapira ketdi:

- Bog'i balandda nutq so'zlabdilar. Afg'oniston boshqa davlatga tobe bo'lib turar ekan, podshohlik tojini kiymas emishlar. Panjobdan Kashmirga qadar ularning yerlari emish. Bobokalonlarining lashkarları bosqinchilarga qarshi mardona jang qilgan emish. Yurtning ozodligi uchun jon qurban qilishga chaqiribdi. Bu nima degani, bilyapsizmi? Urushni biz emas, ular boshlamoqchi. Ha, ha, ular bosh-lash-moq-chi!!! Mana, o'qing buni, mana bu yerini o'qing, - Chelmsford shunday deb barmog'ini qog'oz o'rtasiga nuqdi.

Gamilton pichirlab o'qidi:

- "Ingliston hukumatining barcha tabelari, musulmonlar ham, hindlar ham qirol-imperatorga halollik bilan xizmat qilib, sadoqat bilan bo'ysunib keldilar. Buning evaziga inglislар na dingga, na nomusga, na e'tiqodga shafqat qildilar. Aksincha, berahmlik, zo'rlik, buzg'unchilik bilan taqdirladilar. Mening Hindiston ishlariga aralashish istagim yo'q. Biroq, islom va insoniylik nuqtai nazaridan qaraganda men Rouletteningadolatsiz qonunlariga qarshiman. Nazarimda, g'alayon ko'tarayotgan hindlar juda to'g'ri ish yurityaptilar..."

- Gamilton, bu sizning xatoingiz, - Chelmsford shunday deb xatni uning qo'lidan yulib oldi-da, g'ijimlab pastga otdi. - Odamlaringiz yalqov, lapashang, befahm... - u yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, so'z topolmadi. Tez-tez yurib ichkari kirib ketdi. Gamilton marmar zinada bir zum harakatsiz turdi. U tabiatan og'ir, bosiq hukmdorning bu harakatidan hayron edi. Chelmsford Omonulloxonning amir bo'lganini eshitgandan beri tutaqadi. Uning bu asabiy lashishini ko'rgan sari Gamilton ajablanadi: Chelmsford uni hozir kaltabinlikda aybladi. Lekin lord Kerzon1 uni uzoqni ko'ra biladigan mutaxassis sifatida qadrlaydi. Habibulloxon taqdiri "qimorga tikilgan" onda Gamilton o'nlab gumonlarni hisob-kitob qilgan, shular orasida Omonulloxonning taxtga o'tirishi ham mavjud edi. Shu sababli bu xabarni xotirjam kutib oldi. Hindiston hukmdori esa...

"Hindistonni bu po'k yurak bilan boshqarib bo'lmaydi" - Gamiltonning xayoliga shu gap keldi.

Oradan bir oy o'tgach, u Omonulloxoniga yuborilajak maktub qoralamasini olib, Chelmsford huzuriga kirdi.
"Afg'oniston amiri Omonulloxoniga!

Abadiy do'stlik va o'zaro hurmatga yo'g'rilgan maktubingizni oldik. Otangiz vafotidan cheksiz qayg'udamiz va ta'ziyamizni yo'llaymiz. Sizni taxtga o'tirganingiz bilan qutlaymiz. Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida mayjud mustahkam do'stlik aloqalari marhum bobongiz "millat va din shu'lesi", marhum otangiz "millat va din ziyozi" tuzgan shartnomalar asosidadir. Maktubingizdan menga ma'lum bo'ldiki, Afg'on hukumati bundan keyin ham bizga avvalgiday sodiq do'st bo'lib qoladi..."

Lord Chelmsford maktubni o'qib, kinoya bilan dedi:

- Aql bilan yozilibdi, ma'qul. Ammo... Gamilton, siz ularning umrini bir yarim oy deb belgilagan edingiz, esingizdam? Xo'sh, endi nima deysiz? Shu maktub bilan yengamizmi ularni?

- Ser, ma'lumotlarga qaraganda, Omonulloxon chindan ham urushga tayyorlanyapti. Qo'shinlarini uch yo'nalish bo'yicha chegaralarimizga tashlamoqchi. Bu maktub vaqtadan yutib, ularni chalg'itishimizga yordam beradi. Ular asosiy harakatlarni boshlab ulgurmay, biz hujumga o'tsak bas.

- Bir haftalik urush deng? - dedi Chelmsford yana kesatib.

- Ha, ser, men harbiy emasman, biroq g'alabaning yashin tezligida bo'lishiga ishonaman. Aeroplanlar Kobulga uchib borib, bomba tashlagan kuniyoq Londonga xushxabar yo'llayveramiz, menga ishonavering.

Chelmsford unga ishondi. Chunki harbiy qo'mondonning fikri ham shu edi. Ular hammasini aniq hisob-kitob qilishdi. Ular faqat bir narsani: vatan va ozodlik tuyg'usi aeroplanlardan ham, zambaraklardan ham qudratliroq ekanini unutishdi.

6

Savr seryog'in keldi. O'tgan kuz sovuq barvaqt tushib, barvaqt surgun etilgan qushlar go'shalariga ancha hayallab qaytdilar. Hamal gulga yor bo'lib ko'z ochgandan beri Omonulloxon xavotirda: samoda suzgan bulut uning ko'ziga abri balo bo'lib ko'rindi. Xeshlari unga qilich ko'tarmay, noiblari birin-sirin itoat maktublarini yo'llasalar-da, kun o'tgan sayin u amirlik tojining og'irligini tobora his etardi. Uning ziyrak zehni a'yonlarining yakdil emasligini ham tobora aniqroq sezardi. Qanotlarining biri amirni uchishga chorlasa, biri pastga tortadi.

Omonulloxon har tong amorat devoni1dan xabar kutadi. Hindiston noibi qirolining javobiga bir oydan beri ilhaq. Qaynotasi sardor Mahmudbek Tarzi: "Chelmsford dan yaxshi noma kutmang, shimoldagi qo'shni bilan do'st tutinaylik", deb ko'p eslatdi. Amir Hindistondan keladigan maktubni kutib, qaynotasining taklifini paysalga solaverdi.

Bugun oqshom savalab o'tgan yomg'irning salqinida amir sarobo'stonda sayr qilib yurardi. Xuftan o'qib bo'lingan, Kobul ahlining aksari ertagi yumushlar tashvishida uyquga berilgan. Omonulloxon kiprigiga uyqu ilinishi qiyin. U qaynotasini chorlagan.

Bemavrid yo'qlovdan bir oz xavotirlangan Tarzi bog'da yolg'iz turgan kuyovining ahvol-ruhiyasidagi ezginlikni ko'rib, ajablandi.

- Sardor, Hindistondan xabar yo'qmi? - dedi amir.

- Xushxabarga umid ham yo'q.

- Ajab... Biz ulardan butkul yuz o'girganimiz yo'q, avvalgiday aloqada bo'luvimidni ma'lum etib edik-ku, anglab yetishmadimi?

- Ingliston siz suzib bergan oshga qanoat qilmaydi. Qozon boshini bering ularga.

Amirning lablari titrab ketdi:

- Aks holda... urushmi? - dedi oniy sukutdan so'ng.

Omonulloxon, yaqindagina otasini urush ochishga undagan safdar amirzoda, hozir o'zining gapidan o'zi cho'chidi. Otasiga ayb qo'yanida, yurt ozodligi, mustaqilligini e'lon qilganida botir edi. Endi "urushning hidi kelib qoldi", degan farazning o'ziyoq unga dahshat bo'lib ko'rinyapti. Bir necha oy muqaddam ozod qabilalar yordamida g'animni tavbasiga tayantirish mumkin, deb hisoblagan yigit amirlik tojini kiyib, yurt taqdiriga javobgarlikni bo'yniga olgach, bu ishning butun mashaaqqatini sezib, yuragiga g'ulg'ula tushdi.

Tarzi - quvg'inlik jafosini, musofirlik tuzini totgan, ozodlik, muqaddas tuproq qadriga yetgan, ozod yurt deb jabrlar o'tida jonini yoqqan odam, endilikda donishmand vazir - amirning ahvolini yaxshi tushunib turar edi. Saltanatni yuritish - Kobulga noiblik qilish, va'dalar berish emas. Amir boshiga yog'ilajak g'avg'olarni pisand etmay, toj kiydi. Mana endi ilk to'g'anoqlarda gangib turibdi. Shodlik ortidan fig'on ko'rinar, deganlari shumi yo? Uning gangishi faqat hadiksirashdan emas. Tarzi amir atrofida Qodir og'a hazratning girdikapalak bo'lishidan xabardor. Kuyovi bildirmasa ham hazratning niyatlaridan ogoh. Kunda amirga hazrat misol yana necha odam ta'zimga kiradi. Necha odam saltanatni boshqarish yo'lni ko'rsatadi.

- Bobokalonlarim yo'li menga nasib etgan ekan-da, - dedi amir bir zumlik jimlikdan keyin, - nachora, ayyomi shabobim barham topib, amorat siyt xususida qayg'urmoq vaqt yetibdi. Afg'onistonni butkul ozod ko'rma uchun qo'limizdan kelganini qilib, qolganini sarnavisht hukmiga topshirajakmiz... Rusiyaga noma bitmakni gapirib edingiz?
- Ha, amir sohib, musovida sizning nazaringizga muhtoj.
- Yuring, - amir shunday deb ichkari yo'l boshladi. Yevropa usulida jihozlangan yorug', keng xonaga kirkach, qaynotasiga yumshoq kursidan joy ko'rsatdi.

- Qulog'im sizda, sardor, - dedi u Tarzining ro'parasiga o'tirib. Tarzi qo'yin cho'ntagidan qog'oz chiqarib, ko'zoynagini to'g'rilaqan bo'lib, o'qishga tutindi.

- "Buyuk Rusiya davlati prezidenti oliy hazratlariga..."
- Davlatlarining nomini Sho'ravi Rusi deb edingiz shekilli?
- Amir sohib, davlatlarining nomi, shuning barobarinda a'yonlarining nomi bizga aniq emas. Nomini shu iltifot ila boshlamog'imiz maqbul.

- O'qing.

- "Afg'oniston hukmdori amir Omonulloxon sizga salom yuborib, sof yurakdan hurmat bildirur".
- "Birodarlik salomini", deb tuzating. Shunda iltifotimiz tugal bo'ladi.

Tarzi ma'qul ishorasinda bosh irg'adi.

- "Musibatli voqeа yuz bergenini, xalqimiz ko'zidagi nur, dinimiz tayanchi bo'lган oliy hazrat padarimning o'z yurtida sayohat etib yurgan chog'ida noma'lum jinoyatkor tomonidan o'ldirilganini chuqr alam va hasrat ila bildiraman". "Shuning bilan birgalikda, hijriy sanasining 1337 yilida, jumodul avvalning 19-kunida, ya'nii nasariy sanasining 1919 yili, 21 fevral kunida mustaqil va ozod Afg'oniston poytaxti bo'lgan Kobulda podshohlik tojini kiyganligim hamda taxtga o'tirganimni sizga ma'lum etaman..."

Tarzi maktubni oxirigacha o'qib bo'lach, ikkinchi qog'ozni oldi:

- Horijiy aloqlar qoidasiga binoan men o'z nomimidan tashqi ishlar noziriga maktub bitdim.
- Ma'qul, sardor. Hayallatmay jo'natish tadorigina ko'rib qo'ygandirsiz?
- Fikri ojizimcha, eng yaqin yo'l bilan - Mazori Sharif orqali Tirmiz qal'asiga yetkazmagimiz ayni muddao bo'lur.
- Bu sa'yimiz sir tutilmog'i darkor. Rusiyadan javob olganimizdan so'ng harakatimizni oshkor etamiz. Maktub ittifoqiy odamlar qo'liga tushmasligi shart. Amorat devonidagi ishonchli odamlardan birini tanlang. Uning yoniga... - amir bir zum o'ylandi,- yodingizdami, Kobulga noib ekanimda bir sovarni aytib edim. Nomini eslaysizmi?

Tarzi yelka qisdi.

- Men ham unutibman. Uni huzurimga chorlayman, deb edim. Shu yovqur sovarni topmoq lozim. Ha, Choraymoqdan edi. Musulmonsheva yigit, bir baqamti bo'lsangiz kifoya, bilib olasiz. Ikki notanish yigitni yo'llasangiz, bir-birovidan hadiksirab, xoin bo'lsa-da, o'zini tiyib, niyatiga yeta olmaydi. Alqissa, maktubimiz eson-omon yetib boradi.

G'ulomqodir bomdodni o'qib bo'lib, azmi tasbihu musalloga shaylanganida uni yo'qlashdi. "Azharu min ash-shams amir Omonulloxon" huzuriga oshiqish zarurligini bilib ham ajablandi, ham bir oz xavotirga tushdi.

Amir saroyida xushta'm taomlar bilan qorinni to'qlab olgan G'ulomqodir kun yoyilmay turib, notanish hamrohi bilan birgalikda Mazori Sharif sari ot soldi. U amir bilan ko'p suhbatlashmadi. Omonulloxon gapni qisqa qildi. G'ulomqodir unga e'tiroz bildirib, maqsadini bildirishga jur'at etdi. Amir uning gaplarini inobatga olmadи.

"Zimmangga yuklangan yumushni o'rinalatuvning Inglistonning o'n pulton sarbozini mahv etmak ila barobar", dedi.

Balki olib ketayotgan nomasi g'animning butkul lashkarini qirib yuborar, bundan G'ulomqodirga ne foyda? Sariq yuzli bu noboplardan birining qonini o'z qo'li bilan to'kmas ekan, qasos tashnaligi bosilmaydi. Buni amir tushunmadi...

G'ulomqodir nima qilsin, amir farmoni vojib. Hamrohini tanimaydi. "Bul vazifani saroyning ishonchli odamlariga emas, nechun menga topshirishdi? Men hamrohimni poylaymanmi yo u menimi?" - degan xayol to Mazori Sharifga qadar, undan daryoga yetib, kechib o'tib, tiliga tushunmaydigan odamlarga ro'para bo'lunga qadar tinchlik bermadi. Bu bir umrga jumboq bo'lib qoldi, desakda, yanglismaymiz.

Daryoni suzib o'tishgach, ularni qal'aga olib borishdi. G'ulomqodir gapirdi, ular gapirishdi, bir-birlariga tushunishmadi. Tilmoch kelgandan keyingina har ikki tomon yengil tortdi.

Qal'a boshlig'i amirning muhri bositgan maktubni olib, darhol inqilobiy harbiy qo'mitani yig'di. Muhriga qaraganda muhim hujjat ekanini, uni Buxoro amiri yerlaridan omon-eson olib o'tib, Toshkentga yetkazish zarurligini aytди. Bir qancha takliflar muhokama etildi. Olimxon sarbozlari temir yo'lni ko'p yerlarda buzib tashlagan edilar. Shu bois to'rt kishi drezinada Toshkentga yo'l oladigan bo'ldi.

- Javobni kutasizlarmi? - dedi boshliq, elchilar huzuriga chiqib. - Biz uni Toshkentga jo'natamiz.
- Biz-chi? - dedi G'ulomqodir.
- Sizni yuborolmayman. Yo'l xatarli. Istanangiz shu yerda kuting.
- Men kutaman, - dedi G'ulomqodir.

Shunday qilib G'ulomqodir Termizda qoldi. Hamrohi esa iziga qaytdi.

Uchinchi bob - Ayriliq O'ti

1

Bu nima: tushimi yo o'ngimi? Nahot bir tirik jonga shuncha g'am ravo ko'rilsa?! Nahot odam bu ko'rguliklarga chiday olsa? Bu mitti yurak o'ziga shuncha sitamni qanday sig'diradi? Bu qayg'ularga chidash bergandan ko'ra yorilib keta qolmaydimi, uni

azoblardan qutqara qolmaydimi?

Hech ishongisi kelmaydi. Kenjası hali ham uyda Kalasning qulupnayini kutib o'tirganday. Hovliga qadam qo'yishi bilan, "adajonim keldilar!" - deb mahkam quchoqlab oladiganday...

Taqdirini, endigi hayotini ostin-ustun qilish uchun bir kecha kifoya qildimi? Unda kimning qasdi bor ekan? Qasd qilgan nomard, o'ziga ro'para kelmaysanmi, pichog'ingni ko'ksiga sanchmaysanmi, sanchib-sanchib xumoringdan chiqmaysanmi. Shu bolalarning hayoti uchun bir emas, o'n joni bo'lsa hammasini bermasmidi. Pichog'ingni sanchib, burab-burab olayotganingda ham g'iq etmagan bo'lardi-ku...

Kalasga ketayotganda gullab turgan xonadoni birdan huvilladi.

Ijara uy qidirib yurgan odam uzoqlashgach, safarga chiqishga oyog'i tortmay qolgan edi-ya... Hatto Eskijo'vaga borib, otga minganida ham uyiga qaytgisi keluvdi. Qayta qolmaydimi, bolalari bilan birga yonib keta qolaydimi?..

Ko'ngil xijil bo'lsa ham, qorong'i tushguncha yetib olay, deb otni qichab haydagan edi.

Bora-borgunicha yo'l chetlаридаги xароб bostirmalarni, bostirmalar atrofida yurgan bechorahol odamlarni ko'rib, Asadullaning ichi achishardi. Somonsuvoq bostirmalarning har biridan nola eshitilgандай bo'lardi. Shunday serhosil yerlarda dehqon nochor yashasa?! O'zi ekib, o'zi o'rib, o'zi yanchgan donga zor bo'lsa?

Kalasga borayotgan Asadulla qishloqqa kiraverishda to'xtashga majbur bo'ldi: tarvaqaylab o'sgan bir tup o'rik daraxti ostida oq yaktak, oq ishton kiygan yalangoyoq chol yigirma qadamcha narida javdirab turgan o'n yoshlar chamasidagi bolalarga qarab baqirar edi:

- Xonumonimmi kuydirasanlarmi? Shuni ham ko'p ko'rasanlarmi! Insof bormi senlarda?!

Boshqa vaqt bo'lganida Asadulla cholning bu qilig'dan ranjirdi. Chunki qariyalar mevalarni bolalardan hech qizg'anishgan emas.

Bola-baqua tosh-kesak otib bezor qilaversa, yolg'iz po'pisa bilan quvishgan. Hozir esa... chol astoydil haydayapti.

Asadulla otdan tushib, cholga salom berdi. Chol batartib kiyangan, istarasi issiq bu odamga ajablanib qarab qoldi.

- Otaxon, bolalarni qarg'amang. Bilmay qilishgan bu ishni.

Chol o'z ishidan o'zi uyaldimi, boshini sarak-sarak qilib ko'zini olib qochdi.

- Xo'p gapni aytdingiz-ku, a, qarg'agan bo'lsam til uchida qarg'adim, azbaroyi... mayli, yeganlari osh bo'lsin, iloyim. Ko'z tikib turganimiz shu-da. Uyimda yeguligim bo'lsa, xudo bergen ne'matni qizg'anib baraka toparmidim? Mulla odamga o'xshaysiz, ahvolimiz ma'lumdir sizlarga?

- Ahvolingizdan xabar olay, deb keldim. Ijozat bersangiz, shu supangizda nafas rostlasam, - Asadulla shunday deb, otning oyog'ini tushovladi.

Chol uni nurab yotgan supaga boshladi. Titilib ketgan bo'yra ustiga o'tirdilar. Chol quroq dasturxon yozib, sopol taqsimchada dumbul o'rikdan qo'ydi. Asadulla xaltadan ikkita non, bir bo'lak qand chiqardi-da, bitta non bilan qandni cholga uzatib: "Ichkariga bering", dedi. Qariya nonga xijolat bilan qo'l uzatdi.

- O'zingiz safarda ekansiz, taqsir, nasibangizni yarimta qilib...

- Oling, otaxon, olaberling, yo'l yurganning nasibasi yo'lda, terib yeyaberadi.

Qumg'on qaynab, choy damladilar. Asadulla qarasaki, chol qimtinib, nondan deyarli tishlamayapi. Shu sababli uni gapga solib, chalg'itmoqchi bo'ldi:

- Otaxon, davru davronlar o'zgarib ketdi, turish-turmushingiz qalay bo'lyapti?

Chol og'zidagi nonni qult etib yutdi.

- Bu yil Yaratganning rahmi keldi shekilli, sal durust.

"Yaratganning rahmi keldi", degan gapni eshitib, Asadulla miyig'ida kulib qo'ydi.

- Yerlarni musodara qilishdими? Sizga qancha tegdi?

- Peshonamizga bitgan, Xudo bergen bir parcha yerimiz bor. Musodara yerlardan bizga ham berdilar. Olmadik. Surishtiraman, desangiz, ko'pchilik olmadi. O't bosib yotibdi yerlar.

- Nimaga?

- Sababi ko'p, taqsir.

- Siz shu sabablarni menga aytинг-da. Mendan cho'chimang, niyatim gap o'g'irlash emas. Biz yer ishlaganniki bo'lsin, boy faqirning qonini so'rmasin, deb inqilob qildik, yerlarni tortib olib sizlarga berdik. Bu uchun qon to'kdik, to hanuz qon to'kilyapti, qadrond do'starimizdan judo bo'lyapmiz. Siz esa boyga xizmat qilib yurib, endi o'zingiz uchun ishlagingiz kelmaydi.

- Unday emas, taqsir. Asti unday emas. Ayt desangiz, aytay: bugun boyning yerini olsak, erta boy qaytsa sho'rimizni quiritmaydimi?

- Boy qaytmaydi, bunga yo'l qo'ymaymiz. Hukumat ishchi-dehqonniki, boyniki emas. Mana men hukumat a'zosiman. Siz nuql taqsir, taqsir deysiz. Men siz bilgan taqsirlardan emasman. Aslimni so'rasangiz, imoratsoz ustaman.

- Bu gaplarni xo'p eshitganmiz. Bari bir yurak dov bermaydi-da. Yurak dov bergani bilan cho'pchak aytsgangiz ekin bo'lavermaydi. Yerga qarash uchun ot-ulov kerak. Besh panja bilan shudgor qilolomasak... Bilmadim, nima bo'lyapti o'zi, astag'firullo, oxir zamon deganlari shumikin?

- Oxir zamoningiz nimasi, yangi zamon boshlanyapti. O'zbekning bag'rige shamol tegadigan, davru-davron suradigan zamon boshlanyapti. Bu zamonning qadriga siz bilan biz yetmasak, uvoli tutadi. Harakat qilish kerak, jon kuydirish kerak.

- Xo'p gaplarni gapiryapsiz-da, taqsir, - chol shunday deb bo'shagan sopol piyolani to'ntarib qo'ydi.

- Siz nondan oling, gapga solib, choydan qo'ydim-ku, sizni.

- Qulluq, taqsir, qorining xarxashasi tindi. Kambag'alning to'ygani - chala boy bo'lgani. Chala boy bo'ldik bugun. Sizlarning qadamlaringiz yoqib, chin boy bo'lib ketsak ajabmas... Endi... meni gapga solganganingiz bilan, sezib turibman, bir yumush bilan kelgansiz bu tomonlarga.

- Uch-to'rt dehqon to'ppa-to'sindan omonatini topshirgan emishmi?

- Ha... - chol afsuslanib bosh chayqab, soqolini tutamladi. - Bahorda yangi hukumat yer bergen edi. Odamlar: "Birovning haqqi, olmanglar", deyishibdi. O'jarligimi yo, bilmadim, boshqa sababmi, boshlarini yedi-da. Jo'jabirday jon edi hammasi.

- Kimning yerlari edi?

- Toshkentlik Hasanxon hazratniki.

Bu gapdan so'ng masala oydinlashgандай bo'ldi. Hasanxon hazrat... Asadulla uni yaxshi biladi. Sibirga surgun bo'lгunga qadar ko'p duch kelgana unga. Yangi mакtab desa quzg'unday uchib kelib, yakson qilguchi zot edi u. Hurriyat arafasida "Sho'roi

islomiya" shu hazratning istagi bilan ikkiga bo'linib, "Ulamo" yuzaga keldi. Asadulla o'shanda, "vabodan ham, o'latdan ham battar jamiyat", deb baho bergan edi unga. Eng muhim... "Ulamo" Asadullani o'limga hukm qilganda shu hazrat oq fotiha bergan edi. Qo'qon muxtoriyati bo'g'ilgach, bu hazratning ham nafasi o'chgan edi. Uni o'lgan yo qochgan, deb taxmin qillardilar. Uning tasarrufidagi yerlarda dehqonlarning to'satdan o'lib qolishlari, so'ng "qarg'ish tekkan yer", deb ovoza tarqalishi Asadullada shubha uyg'otdi. Bu hazratning ishimi yo noma'lum kavaklarda jon saqlayotgan muridlarnikimi, shuni bilmay hayron edi.

Ko'chada eshak yetaklagan o'n to'rt-o'n besh yoshlar chamasidagi bola ko'rindi. Bola qari eshak bilan bahs boylaganmi, qovurg'alari aniq-tiniq sanalguday edi. Bola hovli tomon qarab, qariyaga salom bergan choqda eshagi munkib ketdi-yu, ustidagi bir qop bug'doy tushib, sochildi. Bola picha garangsib, sochilgan bug'doyga tikildi. So'ng yoshiga yarashmagan holda yig'lab yubordi. Qariya o'rnidan chaqqon turib, bola tomon yurdi.

- Nimaga yig'laysn, bolam, yig'lama. Xudoga shukr qil, bug'doy to'kildi, endi yurtda serobchilik bo'ladi, shukr qil, bolam, shukr qil.

Chol to'kilgan bug'doyni ko'ziga surtib "xudoymidan aylanay, serobchilik yuboradi endi", deb qo'ydi. To bug'doyning so'nggi boshog'i terib olinguncha chol bu gapni bir necha marta takrorladi. Bir dona ham boshoqqa xiyonat qilmagan chol yaqindagina o'rik qoqqan bolalarni haydagan odamga sira o'xshamas edi.

Asadulla qorong'i tushgani uchun qishloq oralamadi. Chol bilan shu supada yotib qoldi. Azonlab turib, uyma-uy yurdi. So'rib-surishtirdi. Hammaning og'zida bir gap: qarg'ish tekkan yerda ishlamasliklari lozim edi... Asadulla bu gaplarni eshitgani sayin ko'ngliga xavotir oralardi. Dehqonlarning birdan shaytonlab, jon berishlari ular zaharlanganliklaridan dalolat berardi. Sho'rolarga ishonmay yurbanlar shu ishga astoydil bel bog'lagan bo'lsa, ularning payini qirqish qiyin bo'ladi. Odamlar yerkarga qarg'ish tekkaniga ishonib, dalaga chiqmay qo'yadilar. Oqibatda minglab tanob yer qarovsiz qoladi. Bu, demak, yurtga kutilmagan yangi qahatchilik chovut soladi.

U hurriyatdan keyin hamma narsa o'zgaradi, yaxshi bo'lib ketadi, deb bekor kutgan ekan. Mal'unlarning mal'unligi o'zgarmay qolarkan. Kiyimlar boshqa, muomalalar boshqa, ammo dehqon haqiqat nimadaligini bilolmay hanuz hayron.

Asadulla o'zicha shu xulosaga kelib, shaharga qaytdi. Kun tik kelganda Toshkentga kirdi. Xulosalarini bayon qilish maqsadida to'g'ri Markaziy Ijroqo'mga uchrangan edi, unga, "tezda uyingizga boring", deyishdi. Bu gapni eshitib, yuragi shig' etib ketdi.

Nimaga shunday bo'lganini o'sha topda bilmadi.

2

Gullab turgan, charaqlab turgan, yashnab turgan uy bir kechada kuyib, ko'mirga aylansa...

Endi quyosh nimaga chiqyapti, nimaga nur sochib turibdi... Endi bu quyosh, bu nurning unga nima keragi bor...

Turkijroqo'mdan avtomobilda yo'lga chiqqan Asadulla uyiga yetib kelgach, qorayib turgan devorlarni ko'rди-yu, esi og'ib qolayozdi. Shoshilganidan avtomobil eshigini qanday ochishni bilmay timirsiklandi. Haydovchi chaqqonlik bilan pastga tushib, eshikni ochmaganda anchagacha shunday o'tirishi tayin edi. Pastga tushgach, to'planib turgan odamlarga qaradi. Ko'z oldi qorong'ilashganidan ularni daf'atan tanimadi. U o'sha odamlar orasidan xotini, bolalari ajrab chiqishini kuttdi. Lekin ular ko'rinnadi... xotini, bolajonlari ko'rinnadi... "Qulupnay olib keling", deb qolgan kenjatoyi ko'rinnadi...

- Qani... bolalarim qani?!

U, nazarida, jonholatda, bor ovozi bilan baqirdi. Aslida esa bu dardli so'roq titrab, lablaridan bazo'r uchdi. Uyiga talpinib, yugurmoqchi edi, tosh qotgan oyoqlarini qimirlata olmadi.

Kimdir yaqinlashib unga dalda berdi - so'zlar qulog'iga kirmadi. Boshqalar ham unga bir-bir yaqin kelib gapirdilar. Bu gaplarni ham anglamadi. U hozir bir narsani aniq bilardi: uyi yongan. Xotini, bolalariga bir nima bo'lgan. Nima bo'lgan: kuyishganmi?

Shifoxonaga olib ketishganmi ularni? Asadullaning ko'z oldi bir oz ravshanlashdi; darhaqiqat, yengil-elpi kuygan bo'lsa davolagani olib ketishgandir... O'zini o'rab turgan odamlar ko'zidagi mungni ko'rib birdan tomog'iga nimadir qadaldi. Bilagidan ushlab turgan odamni tanidi: Shuvalov. Tuproqko'rg'onda topishgan, birga yaralanib, birga davolangan, sinashta bo'lib qolgan do'sti. Shuvalov uni uy tomon boshladi. Asadulla unga suyanib og'ir-og'ir qadam bosardi. Boshqalar turgan yerlarida qolishdi. Avval hovliga kirdilar. Kechagina bu hovlida atirgulning dastlabki g'unchasi lab ochgan edi. Qad rostlab, shoxlay boshlagan rayhonlar hidi atrofga taralardi. Endi hammasi toptalgan. O'tni o'chirishayotganda payhon qilib tashlashgan. Hozir Asadullaning ko'ziga bular ko'rinnmaydi. Hozir uning ko'zi uyga olib kiruvchi eshik o'rnida. Nazarida bu yonib ketgan eshik o'rni emas, balki o'lim g'origa boshlovchi qora tuyruk bo'lib ko'rindi.

Shuvalov uni uy ichiga emas, hovli etagiga, mevasi pishay-pishay deb turgan bayabat balxitut tomon boshladi. Tut tagidagi supaga bo'yra solingen. Unda nimadir do'mpayib turibdi, ustida ancha uringan choyshab. Asadulla bu manzarani keyinroq elas-elas eslaydi. Hozir esa yonidagi odamni nari itarib, supa tomon intiladi. Oyoqlari chalishadi. Supaga yetib kelib choyshabni tortadi...

Asadulla ko'rganini dahshat deb bo'lmas. Chunki dahshatni ko'rganda odam zoti qo'rquvgaga tushadi. Undan qochishga yoki uni daf etishga kirishadi. Yo'q, bu dahshat emas, tasvirlashga so'z ojizlik qiluvchi undan battar narsa edi...

Jizg'anagi chiqib ketgan xotini, bolalari akashak bo'lib yotishardi. Kenjası onasiga qattiq yopishgan. Uni ajratib olisholmagan shekilli... Uyqusida onasini achomlab yotishni yaxshi ko'rardi. Shunday yotibdi.

Hali o't to'la o'chmay turib, uyga birinchi bo'lib Shuvalov otilib kirgan edi. Alanga bosilgani bilan hali g'o'lalar pisillab oqish tutun chiqarardi, bu tutunda uy ichini ko'rish mahol edi. Shuvalovning ko'zi burchakdag'i qorani ilg'adi. Yaqin borib qaradi: o'rtada ona, atrofida bolalari. Ona tovuq jo'jalarini qanoti ostiga yashirganday Hojiyaxon ham bolalarini quchoqlab olgan...

Shuvalovning ko'rgani shu. U hali eshik, derazalar oldiga g'o'zapoyalar uyulib, ustiga yermoy sepilib yoqib yuborilganini, ichkariga tutun o'rmalab kirishi hamon Hojiyaxonning uyg'ongani, bolalarini uyg'otgani, yo'l topolmay o'zini har yon urgani, bolalarning avval qo'rquvgaga tushib, so'ng jon achchig'ida faryod urganlarini bilmaydi.

- Adajon, qaerdasiz!!!

- Adajon, jon, adajon!!!

Bu norasidalarning, bu onaizorning ne azoblar bilan jon bergenlarini hech kim bilmaydi. Ko'z oldiga ham keltira olmaydi. Eng oxirida kenjatoyning joni uzildi. Onasini qattiq quchoqlab, dodlashga ham qurbi yetmay o'tdi bu olamdan...

Zorlanib chaqirganlari, adajonlari keldi...

Nechun jimsan, Hojiyaxon? Ko'z oshib ko'rganining, yo'llariga ko'z tikkanning, Sibirda yurib seni sarg'aytirgan, xavotirga solgan shirinso'z ering keldi. Och ko'zlarining, hech bo'lmasa bir og'izgina gapingni ayтиб ketgin...

Nechun jimsiz, bolalar? Otangiz hovliga qadam bosishi bilan hammangiz yugurar edingiz, bo'yning osilar edingiz... Sizga, sizning o'rtoqlaringizga savod o'rgatuvchi, kitoblar o'qib beruvchi, ertaklar aytuvchi, sizlarni dorilfununlarda o'qishlariningizni umid qiluvchi mehribon dadangiz keldi. Hech bo'lmasa sizlar bir nima denglar...

Kenjatoy, sen-chi? Sen nimaga jimsan? Axir sen emasmiding dadang kelganda eng ko'p suyunadigan. Sen emasmiding, dadangning quchog'idan tushmay, kalta soqolini silab o'tiradigan. Sen emasmiding uni hammadan qattiqroq quchoqlab oladigan... Sen ham gapirmaysanmi?

Nimaga jimsizlar? Axir dadangiz keldi...

Asadulla supaga chiqdi. Xotini yoniga tiz cho'kdi. Birdan atrof qorakuyaga aylandi qoldi. Nafasi tiqildi. Qulog'i shang'illadi. So'ng shang'illash tindi. Atrof sokin... Tiq etgan tovush yo'q. Ko'z oldidagi qorakuya ham yo'qoldi. Hammayoq oppoq... oppoq... Hech nima ko'rinxaydi. Atrofda hech nima yo'q...

3

Gospitaldagi vrachlar, Asadulla uchinchi kuni ham hushiga kelmagach, undan umid uza boshlagan edilar. Lekin muolaja ta'sirdanmi yohud azob-uqubatlarda toblangan jismi bu safar ham mash'um ko'rgilikka bardosh bergenidanmi, ishqilib, to'rtinchini kuni ko'zini ochdi. Badani zirqiradi, miyasi g'uvilladi. Biron nimani daf'atan anglay olmadi. Sibirdaligida yomon tush ko'rganda shunday bo'lardi. Bugun tushida nimani ko'rdi? Uyi... yongan uyi... bolalari... Esladi. Hammasini esladi. Supani, supadagi xotini, uni quchoqlagan kenjas...

U ingrab yubordi.

Asadulla ko'zini ochganda navbatchi hamshira doktorga yugurgan edi. Doktor kirganda Asadulla yana behush yotardi. Doktor uning bilak tomirini ushladi. Hamshiraga savolomuz qaradi.

Bir ozdan so'ng Asadulla yana ko'zini ochdi. Bu safar miyasidagi g'uvillash kamaygan edi. Doktor o'tkir hid tarqatayotgan suyuq dori tutdi. Qurushgan lablar unga itoat etmadidi. Dori to'kilib, jag'idan tomog'iga oqdi. Doktor uni suyab, qaddini ko'tardi. Asadulla ko'rganlari tushimi yo'ng ekanni so'ramoqchi bo'ldi. Biroq unga tili ham bo'ysunmadi.

Keyingi kunlarni bir hushidan ketib, bir o'ziga kelib o'tkazdi. A'zolari asta-sekin o'ziga bo'ysuna boshladidi. Ikki haftadan so'ng, o'zini tetik sezib, o'rnidan turdi.

Uning oldiga asosan Shuvalov kelardi. Ahamiyatsiz, Asadullani mutlaqo qiziqtirmaydigan voqealarni gapira-gapira chiqib ketardi. Uning shoshib turganini Asadulla sezardi. Hozir ChK xodimining kasalni yo'qlashdan muhimroq ishlari boshidan ortib yotibdi. Shu sababli ham Asadulla uni tutib turmasdi. Shuvalov har safar Asadulla bo'lib o'tgan mudhish voqeadan so'z ocharmikin, deb cho'chirdi. Bu voqeani eslash, hayajonlanish Asadullani yana to'shakka mixlashi mumkin edi. Bu voqeas haqida so'z ochila bermagach. Shuvalov avval: "Nahot butunlay unutgan yo'xtirasiga bir nima bo'ladimi?" - deb o'ylardi. So'ng uning botiq ko'zlaridan nur qochganini, ba'zan bir nuqtaga tikilib o'nga botganini ko'rib, uning irodasiga qoyil qolardi.

Asadullaning xotirasi joyida, mudhish manzarani unutgani yo'q edi. U hamma narsani esidan chiqarishi mumkin, ammo bunisini unutmadi. Hatto oradan yillar o'tib, so'nggi nafasi chiqayotganda eslaydigan narsasi ham shu bo'ladi. Ko'z oldiga qora parda tortilganida shu manzara - jizg'anagi chiqqan xotini, unga yopishgan kenjatoyi ko'rindi. Qattiq uf tortadi. Keyin ikki ko'zidan ikki tomchi yosh sizib chiqib yonog'iga dumalaydi... Vassalom... Bunga hali bir necha yil bor. Asadullani hali oldinda ko'p sinovlar, ko'p kurashlar kutadi...

Hozir u gospitalning keng xonasida yolg'iz. U endi o'lim haqida o'ylamaydi. Chunki bu haqda o'ylash - o'limdan qo'rqish demak. Asadulla bu qo'rquv maydonidan o'tib bo'lgan. U ko'proq qotilning kimligini o'laydi. Har safar ko'z oldiga ijara, boshpana qidirib yurgan ayiqday yigit keladi. "U-ku, bajaruvchidir. Uni yo'llaganlar kim?" Asadulla ba'zan "Ulamo"ning hukmini eslaydi. Bu hukm o'n yettinchi yilning yozida o'qilgan edi. Oradan ikki yil o'tib... Bolalarida nima gunoh edi? Yo uni ham uyda deb gumon qilishganmi?.. Ikki yildan so'ng hukmni ijro etish ularga nima sababdan zarur bo'lib qoldi?.. Asadulla turli taxminlarga borardi. Qotillikdan maqsad - Afg'onistonga borajak vakolatga to'sqinlik ekani haqidagi o'y xayoliga kelmas edi.

4

Muhiddin Asadulla bilan uchrashgandan keyin muyulishdagi paxsa devorga suyanib turgan yigitga yaqinlashdi.

- O'sha odamni tanib oldingmi? Hali kechroq uyiga qaytadi. Qaytganidan keyin boshlaysanlar. Ovoz chiqmasin. Sen shu udan ko'z uzmaysan. Mening kimligimni bilasan, a?

Bu gap xotinini boy bergen qimorbozga malol keldi.

- O', manam yuribman erkakman, deb, ja tuproqqa qorishtirvormang, oka!

Muhiddin uni yelkasiga urib qo'ydi.

- Yigitligingga borman-da.

Muhiddin qimorbozlarning bir so'zli ekani, aytganidan qaytmasliklarini bilardi. Shu uchun xotirjam edi. Oqshomda yana to'rt qimorboz somonbozorga keldi. Ular aravaga g'o'zapoya bosib, Mirobodga jo'nadilar.

Qorovullikda qolgan yigitning ko'zi ko'chaga tikila-tikila toldi, yuragi siqildi. Oxiri bor-e, dedi-yu, samovarxonaga kirib, piyolaga ko'knordan ezib, ichib oldi. G'ira-shira qorong'ida samovarxonada nimadir sharaq etib, kayfini uchirib yubordi. U shoshib o'rnidan turdi-da, Muhiddin tayinlab ketgan joyga jo'nadi. Atrofga timqorong'ilik tushganda arava g'ildiraklarining g'ijirlashi eshitildi.

- Keldimi?

- Keldi. Uyida xotinini quchoqlab yotibdi...

Tun yarmidan oqqanda Asadullaning uyida alanga ko'tarildi...

Muhiddin Asadullaning qanday tirik qolganini bilmaydi. Qorovullikdagi yigit yuz qasam ichsin, ming qasam ichsin, foyda bermadi, bari bir asfalasofilinga jo'nadi. Boshqalar o'z ishini bilib qilgan edi. Muhiddin ularga tegmadi.

Xauston Muhiddinning Asadullaga duch kelib qolganidan bexabar edi. Agar buni bilganida safar tadorigini tezlatardi.

Asadullaning tirik qolishi uning rejalarini ko'p ham o'zgartirmadi. U tirik qolgani bilan bu mudhish voqeadan keyin o'ziga kelishi qiyin. Agar bolsheviklar shoshilayotgan bo'salar, uni kutishmaydi. O'rniga boshqa odam jo'nayveradi. Lekin ungacha ancha vaqt o'tadi.

Eng muhimi, u hozir Buxoroga beshikast yetib olishi kerak. Mirkomil hoji uning maslahatiga amal qilib, "Xudo yana haj qilishni ko'ngliga solganini" masjid ahliga bildirib qo'ydi. Muhiddin esa Xasanxon hazrat tirik ekanlar, besh-o'n muridlari bilan

Afg'onistonga ketmoqchilar, degan gapni uch-to'rt odam orasida ma'lum qildi. Xabarning qanot chiqarishiga shuning o'zi kifoya edi.

Xaustonning rejasicha, Muhiddin aeroilga ham pichoq tortib yuborishdan qaytmaydigan besh-o'n ishonchli yigit bilan Mirkomilboyning qanotiga kirishi kerak. Yana bir guruhni - "Afg'onistonga boruvchi muridlarni" ham o'ylab qo'yan. ChK tuzoq qo'yan bo'lsa shular tushadi. Guruhboshi ham aniq - Tal'at maqsum degan betayin jadid. Hali unga qo'shilib, hali bunga qo'shilib gangib yuribdi. Xauston bir-ikki sirni unga aytib qo'ysa bas. Qo'lga tushib, qiyonoqqa chidamay gullaydi-yu, tamom-vassalom. Unga chippa-chin ishoni shadi. Mirkomilboyning borib-kelushi esa xamirdan qil sug'urgandek bo'ladi.

Asadulla gospitalda shifo topayotganida Xaustonning o'y-hayoli shu edi.

5

Doktorlar xatar orqada qoldi, endi bemor odamlar orasida ko'proq yursa, xotiralardan picha uzoqlashadi, xayoli faqat dahshat bilan band bo'lmaydi, ish bilan ovunadi, deb unga ruksat berishdi.

Asadulla Turkijroq'o'mdan yuborilgan avtomobilga o'tirmay, uyiga piyoda ketdi. U uy o'rnida xarobani ko'raman, deb yurak yutib borgan edi. Ko'chasiga burilib qarasaki, uyi o'sha-o'sha turibdi - devorlar oqlangan, atrof sarishta... Faqat... boloxona yo'q.

Eshik og'zida turib ichkari kirishga yuragi betlamadi. Birdan hovlida kimdir chelakni tepib yuorganday bo'lidi. Birov gapirdi. Hatto kenjatoyi shod qiyqirdi shekilli? Chelakni shu bolajoni tepib yubordimi? Nahot... hammasi tush bo'lsa... Nahot xotini, bolalari tirik?! Uning kasalxonadan qaytishini kutishyaptimi?

Asadulla, nafasi qaytib, eshikni shart ochib, ichkariga qaradi. Hovli o'rtasida chelak ko'targan Shuvalov turardi... Hovliga qadam qo'yib, etak tomon ko'z tashladi: supa ham huwillagan.

Shuvalov u bilan salomlashdi-yu, ortiq gapga tutmadi. Samovar o'txonasiga tarasha tashlab, puflay-puflay o't oldirdi.

Uyga qarasa ham, supaga ko'zi tushsa ham Asadullaning yuragi zirqirardi. Bu yerdan qochib ketgisi kelardi. Lekin bu oniy tuyg'u edi. Axir bu yerlardan qochib, qayga ham ketari. Dahshatdan dalolat berib turuvchi bu imoratdan-ku, qochib, uzoqlashar, ammo xotiralaridan qayga qochadi, nimaga qochadi? Mudhish kechmish yonida shirin xotiralarini ham bor-ku, ular uyga qo'shilib yonib, kulga aylanmagan-ku?!

Shuvalov ayvonga joy oldi. Asadulla zinaga oyoq qo'yaturib beixtiyor shiftga qaradi. O'zi hafsala bilan tergan toqilar yonib bitgan. Endi toqi o'rniga duch kelgan qing'ir-qiyshiq moyalar tashlanib, ustiga lo'mboz bostirib qo'yilaverilgan. Ayvon shifti bilan devor birlashgan joyda qaldirk'ochning ini yo'q. Uylari kuyib qayoqlarda chirqirab yurishgan ekan? Tuxumiga ilhaq ilon-chi? Jon saqladimi yo kuyib ketdimi? Qaldirk'och polaponini ochganda... qutqara olardimi yo...

To'shalgan ko'rpačha notanish. Biroq... choynak-piyolalar o'zlariniki, Hojiyaxon shu choynakda choy damlardi, shu piyolalardan biriga quyib uzatardi. Anavi labiga g'azal bitilgan xitoyi piyolasini bolalari talashishardi. Unga ko'proq oilaning erkatoyi ega chiqardi...

Yo'q, Asadulla choy icha olmadi. Do'stining ko'nglini ranjitmaslik uchungina piyolani qo'liga oldi. Piyolaning issig'i Hojiyaxon qo'lining taftiday tuyuldi unga. O'sha kuni ertalab piyolada choy uzatib, "hadeb o'zingizni o'tga-cho'qqa uravermang", degan edi. Shunday deb... o'zi o't ichida qoldi...

Shuvalov bir haftadan beri shu uyda yashayotanini, Asadullaga malol kelmasa bundan keyin ham shu yerda qolish niyati borligini aytdi. Asadulla uning nima sababdan bu qarorga kelganini o'yalamadi ham, "istagingiz", deb qo'ya qoldi.

Uy ichkarisidan hali tutun, ohak hidi anqib turardi. Shuning uchun, Shuvalov ayvonga joy soldi. Asadulla go'yo mehmon edi, xizmatni Shuvalov qilardi.

Asadulla tongga qadar cho'g' ustida yotganday bo'lidi. Tongga yaqin ko'zi ilingan ekan, qaldirk'ochning vijir-vijiridan uyg'onib ketdi. Shart ko'zini ochib, shiftga qaradi. Nazarida uyilon toqilar orasidagi teshikdan chiqiqib, qaldirk'och iniga hamla qilayotganday edi. Shiftda ilonni ko'rmadi. Axir qaldirk'ochning ovozini aniq eshitdi-ku! U qani? Bir vaqt ayvonga qaldirk'och uchib kirdi.

Yengil suzib, shiftga yaqinlashdi-yu, yana tezgina hovliga otildi.

Bu ona qaldirk'och uyasida polaponlarini kutayotgan edi. Avvaliga ilon hamla qildi, undan omon saqlab qolishdi. Keyin o't... Bu baloga bas kelisha olishmadni. Hozir boshqa yerga uya qurishgan. Lekin har tong shu tomon uchgisi keladi. Avval qorayib turgan devorlarga uncha yaqinlashmasdi. Keyin devorlar asl holiga keldi. Keyin odam isi anqidi. Shunday so'ng ayvonga dadil uchib kiradigan bo'lidi. Avval ayvonga bir martagina uchib kirardi. Bu tong ilonni daf qilgan odamni tanib, yana bir marta uchib kirdi... Shuvalov yengil xurrak otib uxlardi. Asadulla o'rnidan turib, hovliga tushdi. Ko'tarilayotgan quyoshti endi ko'rayotganday mashriqqa tikilib qoldi. Keyin oyoq ostiga qaradi. Toptalib, singan atirgul tanasidan yangi novdalar chiqqa boshlabdi. Ildizi omon qogan rayhonlar ham novda chiqaray deb qolibdi. U yer-bu yerda ko'katlar bosh ko'taryapti. Ular orasida o'tgan kunlar sharpasi sassiz ivirsidi. So'ng yangi oqlangan uy devorlariga urilib, jarangladi. Shunday jarangladiki, Asadullaning qulog'i qomatga kelib, o'zi chayqalib tushdi. Xotiralar oqimi toshib, dilini ovlab, talashib, qora o'pqonga tortayotganda birdan ko'zi oshxona yonidagi ketmonga tushdi. Loxonada ishlatilganicha qolib ketgan ketmonni zang bosgan edi. Asadulla cho'p olib, ketmonga yopishib qotgan loyni qirdi, so'ng atirgullar atrofini yumshatdi. Qo'shni devori ostidagi ko'milib qolgan quvur og'zini ochdi. Keyin ko'chaga chiqiqib, suv boyladi. Dam o'tmay gulzorga suv oqdi.

Shuvalov o'rnidan turib, Asadullaning harakatlarini kuzatib, ko'ngli ravshanlashdi. "Har g'amning poyoni, har alamning oxiri bo'lishi kerak-da, o'zi", deb o'yldadi.

- Dehqonchilik zo'r-ku, Mira'lamovich! - dedi quvnoqroq ohangda.

- Ha... yerga qaramasa uvoli tutadi. - Asadulla shunday deb, qaddini rostladi. Anchadan beri bunday ish qilmagan va bedarmon ekanidan hansirab qolgan edi.

Shuvalov yana nima deb uning ko'nglini ko'tarishni bilmay turganida Asadulla ayvonga yaqinlashib, o'zi so'z ochib qoldi:

- Vitaliy Sergeevich, siz Afg'onistonga jo'nashingiz kerak edi-ku?

- Shu hafta ichi afg'onlar kelishi kerak. Shuni kutishyapti shekilli. Keyin... Moskva Xmarinning nomzodini hali tasdiqlamagan.

- Tasdiqlamasligi ham mumkin... Vitaliy Sergeevich, vakola hay'atini nimaga asoslanib tanlashgan, bilmaysizmi?

Shuvalov Asadullaga qarab, kulumisiradi:

- Sen Markaziy Ijroqo'm a'zosisan, men oddiy chekistman, hay'atni Markaziy Ijroqo'm tasdiqlagan, demak, bu savolni men senga berishim kerak.

- Men bir odamning qo'shilishiga qarshi chiqqan edim. Ushinskiyning kimligini bilasizmi? Sobiq eser. O'n yettinchi yil yozda men u bilan jazo otryadini kutib olganman. Biz Korovichenkoning soldatlariga Toshkentdag'i vaziyatni to'g'ri tushuntirishimiz lozim

edi. Soldatlarni: "Toshkent kallakesarlarga to'lib ketdi, o'zbeklar o'rislarni bir chekkadan so'yshiyapti", deb ishontirishgan ekan. Men bir tomondan, vaqtli hukumat nayranglaridan gapirsam, bu odam bolsheviklarning g'oyasi puchligini gapiribdilar. Oxiri bir poruchik menga, "qay birlaringga ishonaylik", deb qoldi.

- Mira'lamovich, bu ikki yil avvalgi gap. Zamon o'zgardi, odamlar o'zgardi. Balki Ushinskiy ham... Unda shaxsiy adovating yo'qmi o'zi?

Asadulla qo'lidagi ketmonni jahl bilan nari otdi-da, shaxt bilan yurib Shuvalovning ro'parasiga kelib to'xtadi.

- Shaxsiy adovat... Siz ham shunday o'yladingizmi?.. Agar bilsangiz... men mana bu tomirlarimni, - Asadulla shunday deb bilagini ko'rsatdi, - yurtim ozodligining tomirlariga ulaganman, Shaxsiy adovatga quloq tutib yurgandan ko'ra, pana-panada to'pponcha tutib yo'l pojardim.

- Mir'alamovich, seni ranjiddim shekilli, kechir meni, Ushinskiy masalasida... unga qarshi biror dalil bo'lmasa... Umuman, hozirgi ahvolni anglab turibsan. Turkiston Markaziy Ijroq'mida ham, partiya markazqo'mida ham tushunarsiz ishlar bo'lyapti. Chetdan kelganlarga munosabatlarini aniq bildirishyapti. Meni ham shu sababli elchilar safiga qo'shishgan, bilib turibman. Men chekistman, maxsus topshiriq bilan kelganman, diplomat emasman. Xullas, Mira'lamovich, partiyada boshqacha fikrlaydigan odamlar ham bor ekan. Avval mahalliy millat vakillariga to'sqinlik qilishdi, endi markaz yuborgan vakillarning ko'kragidan itarishyapti. Katta g'oyaviy kurashlarning isi kelib turibdi.

- Vitaliy Sergeevich, o'sha majlisda sizni "sobiq politsiyachi" deyishdi?

Shuvalov qo'l siltadi.

- Deyishsa deyishaverishsin. Politsiyachi bo'lganman, to'g'ri, xo'sh, nima qipti?

- Qanday qilib?

- Mana, sen Mira'lamovich, bir paytlar "Ulamo" degan jamiyatdan kechirim so'rangan ekansan-a? Gapimni bo'lma. Demak, tavba qilgansan. Men esam shaxsan imperator hazrat oliylariga tavba qilganman. Xo'sh, nimasi yomon? Men dvoryanlardanman, ha, asl dvoryanlardanman! - Shuvalov shunday deb ko'rsatkich barmog'imi yuqoriga nuqib qo'ydi. - Beshinchchi yildagi ishlarim uchun qamashdi. Men tavba qildim. Xo'sh, qamoqda burga boqib yotganim yaxshimidi yo yolg'ondan tavba qilib, ozodlikda inqilob ishini davom ettirganimmi? Men ikkinchisini tanladim. Ha, buni yashirmayman. Bundan afsuslanmayman ham. Tavbam inobatga olinib, Orenburg politsiyasida ishlaysan, deyishdi. Amalning eng kichkinasini berishdi. Asl dvoryan uchun haqoratli edi bu, ammo chidadim. Ana endi ayt: bolsheviklar ishi uchun qamoqdagi odam kerakmidi yo politsiyachi zarurmidi? - Bosiqlik bilan so'z boshlagan Shuvalov shu yerga kelganda asablarini jilovlay olmadi. - Mening mana bu yerim, - ko'ksiga mushtladi,- inqilob tomiriga ulangan.

- Vitaliy Sergeevich, siz meni noto'g'ri tushundingiz, - dedi Asadulla, - men sizni ayblaganim yo'q-ku? Boshqa yerda, Moskvadami, Kievdamni, Tiflisdami ishlaganingizda balki eslatmas edim, Orenburgga tegishli bir gapim bor. U kunlarni eslash malol kelsa, mayli, so'ramay qo'yaqolay.

- So'rayver, Mira'lamovich, sendan xafa bo'lganim yo'q. So'rayver.

- Surgun bo'lmasimdan avval biz orenburglik o'rtoqlar bilan yaqin aloqada edik. Men bunda o'zbekcha gazit chiqarar edim. Orenburgdan oladiganimiz "Soldat" degan gazitni o'zimiznikiga qo'shib yashirincha tarqatar edik. "Soldat"ni bilarsiz?

- Bilmay-chi, necha marta fosh bo'lishidan o'zim asrab qolganman.

- Xullas, Orenburg inqilobchilari bilan aloqamiz durust edi. Bir faolimiz o'sha yoqqa jo'nadi-yu, izsiz ketdi. Oradan ko'p o'tmay, bizni bitta-bittadan, risoladagiday qilib terib oldilar. Faolimizning izsiz ketishi bilan bizning fosh etilishimiz orasida bog'liqlik yo'qmikin, deb ko'p garang bo'laman.

- Kim edi o'sha faolingiz?

- Irisov, Rafiq Irisov.

Shuvalov iyagini qashib, o'yga toldi.

- Irisov... Irisov... - dedi u pichirlab, keyin Asadullaga boqdi. - Ha, esladim. Shunaqa nuxsani qo'lga olganmiz. Birinchi so'roqdayoq gullagan. Agar yanglishmasam, savdogar oilasidan edi, a? O'ylamay-netmay ishonavergansizlar.

- Orenburgga borib-kelishi xavfsiz edi, shu nazarda tutilgan.

- O'lchovni kalta olgansizlar, kalta o'ylagansizlar. Orenburgdagi o'rtoqlarni ogohlantirishga ulgurdik. Sizlarni...

- U-chi?

- Kim? Irisovmi? Qo'yib yuborilgan.

- Bu yerga qaytmadi-ku? Axir bu yerda oilasi bor.

- Shu yerdami, Toshkentdami? - Shuvalov sergak tortdi. - O'zining kelmagani aniqmi?

- Kelmagan deyishadi.

- Mira'lamovich, iltimos sendan, aniqla shuni. Bilasanmi... bunaqalar bir-ikki odamni sotib tinchishmaydi. Balki qaytgandir, yashirinib yotgandir. Kimlarningdir topshiriqlarini bajarayotgandir.

Shuvalovning bu gapi Asadulla uchun antiqa bo'ldi.

6

Shu kuniyoq O'qchiga qarab yo'l oldi. Kaftdek hovli osmonini bir tup tok berkitib turuvchi bu xonadonga Asadulla surgundan qaytgan paytda kirgan edi. Ikki bolasi bilan yolg'iz qolgan Roziyadan tez-tez xabar olib turish savob ekanini bilsa ham, xonadonda erkak yo'qligi sababli kelmas, tanish-bilishlari orqali bu oilaning ahvolini surishtirib qo'yishdan nariga o'tolmas edi. Ikki yildan beri oyoq bosmayotgan odamning to'satdan kirib kelishi Roziyani ajablantirdi. Asadulla supa chetiga omonat o'tirib, hol-ahvol so'radi. Hovli sarishta, xonadonga yo'qchilik nafasi urmagani sezilib turibdi. "Yolg'iz ayol boshi bilan bu qiyinchilik, bu ocharchilikda qanday yashayapti ekan? Eri shuncha yilga yetarli mablag' tashlab ketganmidi yo?" Bu savol Asadullaning xayoliga ikki yil burun kelgan edi. Hozir yana uyg'ondi.

Asadulla hovlida uzoq qolmadi. Boshidagi ro'molining bir uchi bilan yuzini chala-yarim to'sib, supaning narigi chetida o'tirgan ayolni ko'p gappa solishni o'ziga ep bilmay, o'rnidan turib, hayrashdi.

Bolaligidan qadrdon bo'lib qolgan tor ko'chalardan yurib, Shayxontahurga yo'l oldi. Roziya bilan bo'lgan suhbatni dilida yana takrorladi:

"Rafiq afandidan hanuz darak yo'qmi?"

"Yaratgandan umid qilib o'tiribmiz".

"Dunyo o'zarib ketdi, xat-xabar ham qilmadilarmi?"

"Yo'q..."

"Ketgan keladi, ketmonlagan kelmaydi. Qaerda bo'lsalar ham bolalarning baxtiga sog'-omon yursinlar".

"Illoym..."

Avvalgi kelganida ham shunday qisqa savol-javob bo'lib edi. Eri bedarak ketgan ayol bunchalik xotirjam javob bermaydi. Buni Asadulla o'shanda sezgan, ko'ngliga shubha oralagan edi. Bugun o'sha shubhasi haqiqatga aylanganday bo'lidi. Nazarida Rafiq Irisov shu uyda berkinib, qaysi bir tirkishdan mo'ralab o'tirganday edi. Asadulla bir narsaga hayron: Rafiq Irisov vaqtida firqa uchun xizmat etdi. Qo'rqbmi yo boshqa sabab bilanmi sotqinlik qildi. Shunga shuncha qo'rqb, qochib yuribdimi? Nahot kelib, bola-chaqasidan xabar olmasa? Bolalarning sog'inchi ko'r qilmaydimi uni? Shuvalovning shubhasi Asadullaga ham o'tib, turli-tuman xayollar girdobiga tushib borar, ammo haqiqatga moyil biror aniq fikrga ojiz edi.

Turtinchi bob - Muxtor Vazir

1

Omonulloxon dog'da qoldi: ag'yorlar ularning rejasidan xabar topishdimi yo boshqa sabab bo'ldimi, har qalay uch yo'naliш bo'ylab borayotgan qo'shin manzilga yetib ulgurmay, Peshovor yo'lida nogoh urush boshlandi. Kecha Kobul osmoniga qanotli maxluqlar uchib kelib, poytaxtni xokiturob qilib ketdi. Shahar ahli bundan tahlikaga tushdi. Risalpurda qirol harbiy floti mavjudligi, Kobulga "Xendli-Peyj" deb nomlangan aeroplanelar uchib kelib, bomba tashlaganini amir biladi. Fuqaro bunday mo"jiza, yo'q, mo"jiza emas, bunday ofat borligiga bugun guvoh bo'lidi.

Janggohdan ko'ngilni xushlovchi darak kelmay turibdi. Sardorsalor Solih Muhammadxon sarbozlarining Ingliston lashkarlariga bas kelolmasligi aniq bo'lib qoldi. Jalolobod isyonchilar hibsga olgan, Omonulloxon marhamati tufayli ozod etilgan sobiq sardorsalor Muhammad Nodirxon esa nimaningdir payida, nimanidir poyleyapti. Abdulquddusxon ozod qabilalar bilan birgalikda hujumga o'tishi kerak. "Ular qachon bosh ko'taradilar, qachon yovga zarba beradilar?" Omonulloxon yursa ham, tursa ham, hatto shabistoniga kirganda ham xayoli shu bilan band.

"Bobolarim inglis bilan ikki karra to'qnashdilar. Taxt menga - amirning uchinchi o'g'liga nasib etdi, uchinchi muhoriba ham mening peshonamga yozilgan ekan. Yozug'imda yana nelar bor: kunmi yo tun? Olam aro hali ro'yi siyoh bo'lmaymanmi?.." Dilkusho saroyining ikkinchi qavatidagi serbar xonasida yolg'iz o'tirgan amirning xayoli uzildi: sardor Tarzi bilan mavlono Abdul G'anining salomga kelganlarini ma'lum qildilar. Omonulloxon ajablandi: sardor Tarzi odati bo'yicha har tong yo'qlaydi. Mavlono Abdul G'ani nima yumush bilan kelibdi ekan?

Xonaga kirgan Tarzi amirning ajablanganini payqab, muddaoga ko'cha qoldi:

- Amir sohib, mavlono Abdul G'ani istig'for tariqidan1 kirishni istak qib edilar, men boshlab kelishga jur'at etdim.
- Istig'for? - Omonulloxon battar ajablandi. - Allomai kishvarning qanday gunohlari bor ekanki istig'for tariqidan yuzlansalar?
- Hazrat amir sohib, - dedi Abdul G'ani suhbatga aralashib, - mening harakatim istig'forga loyiq, alqissa, adl eshigini kushod aylagan sizdayin saltanat hukmdorining qanotidan chiqmakni xayol qilishning o'zi ko'rnamaklidir. Biroq, mening bu sa'y-harakatim Afg'oniston kamoli yo'lida ekanini inobatga olursiz.
- Mavlono, maqsadingizni oydinroq bayon eting.

- Men Kobulni tark etib, Hindiston sari yurishni niyat qildim. Qulog'imga yetgan daraklar Hindiston shaharlarida isyonlar ko'tarilganini ma'lum qilyapti. Panjobdagisi inglisni ancha parokanda etibdi. Temir yo'llar buzilibdi. Bu harakatlar muhoribadagi inglis lashkarlarining tizginini tortibroq qo'yar!

Amir Abdul G'aniga tikilib qoldi: bu simyon odam kichkina jussasiga bunchalik ko'p tashvish yuklamasa? O'zi afg'on bo'limgani holda Afg'oniston tuprog'i uchun bunchalik jon koymitas?

- Mavlono, harakatingiz nojoiz. Olam hodis...
- Amir sohib, javobingiz meni hayratga solarlik bo'ldi. Bu onda men o'z yurtimda, qasos bahri to'lqin urgan yerda bo'lism shart. Bil'aks, bu dunyodan hijrat qilsam, yuragimda ulug' armon qoladi.
- Hoshalloh!2 - Amir shunday deb Abdul G'anining ikki yelkasini ushladi. - Hoshalloh, bu gapni siz aytmang. Xiradmandga munosib emas. Biz sardor bilan fikrashib olaylik.

- Sardor rozi.

Amir qaynotasiga savol nazari bilan, aniqrog'i, norozilik nazari bilan qaradi.

- Amir sohib, - dedi Tarzi bosiq ohangda, - mavlono xayrli ishni niyat qilganlar.

Hamisha qaynotasining maslahatiga qulq soluvchi amirning qaysarligi tutdi. Tarzi bilan Abdul G'anining avvaldan ishni pishitib, so'ng huzuriga kirishlari unga malol keldi.

- Javobni keyinroq aytaman, - dedi u qoshlarini chimirib.

Avval Abdul G'ani, so'ng Tarzi ta'zim qilib, eshik sari yurdilar. Tarzi ostonaga yetganda amir uni qaytardi.

- Sardor, - dedi u qaynotasiga tik qarab. - Hindistonga odam yubormoq zarur bo'lsa Kobulda Ingliston zulmidan ozor chekkan hijronzada muhojirlar ko'p. Mavlono Abdul G'anining yumushlari bo'lak. Menga bir odam aytib ediki, go'yo ma'rifatsiz davlat nochor go'dak misol, fuqarosi ilmdan bahramand saltanat esa mamolik1 orasinda o'z o'rnini topa olguvchi qudratga ega bo'lar ekan.

Tarzi bir vaqtlar aytgan gapini kuyovi og'zidan eshitib, kulimsiradi. Amir unga e'tibor bermay, davom etdi.

- Fuqaroga bergen va'dalarim bisyor. Bu yerdagi, - amir ko'ksiga nuqdi, - umidlarim undan ko'p. Siz, sardor, yoshlarni o'qitmak uchun Farangistonga yubormoqni orzu qilib edingiz. Men esam, amorat xizmatidan ta'lim beruvchi, oliy muallimlar yetishtiruvchi, muhandislar, qozilar ilmini beruvchi maktablarni orzu qilganman. Mavlono Abdul G'ani shu orzularimning rahilkushi, unga tegmang. Muhoriba taqdirini arkoni harbga qo'yib bering.

Tarzi javob o'rniga yengil ta'zim qildi. Amir gaplarining qaynotasiga malol kelganini sezsa ham sezmaganga oldi.

- Sardor, noibi qirolning maktubi mening hamiyatimga tegib, tinchimni oldi. Unga javob yo'llashga qasd qildim, - dedi suhbat mavzuini shartta o'zartirib.

- Shu damda-ya? - dedi Tarzi ajablanib.

- Ha. Takallufsiz maktublarining mazmuniga tushunib yetganimizni ma'lum etib qo'yishimiz shart. Shunday bir noma biting, - amir o'yga toldi. Tarzi toqat bilan kutdi. - Javobimiz iltifotdan xoli bo'lmog'i kerak. Alqissa bunday deymiz: "Siz janobning bu qadar kechikib javob yo'llashingiz menda beqiyos hayrat o'tini yondirmoqqa asos bo'lidi va yuragimga zarracha quvonch baxsh eta

olmadi. Sizning hukumatingiz mening hukumatimni mutlaq mustaqil deb tan olmog'i lozim edi, chunki Afg'oniston muhim jug'rofiya holati, o'mi va siyosiy martabasiga ko'ra shunga loyiqdır. Ming afsuslar bo'l sinkim, Ingliston ila do'stlik va ittifoq bog'lash umidlarimiz rishtalari sizning maktubingiz tufayli butkul uzildi".

Amir so'zini davom ettirishga qynalib, Tarziga najot ko'zi bilan qaradi:

- Shunday desak bo'ladi?
- Ma'qul. Chelmsford bizning tavbamizni kutayotgani holda bu javobni olsa, boshini qay toshga urishni bilmay qoladi. Ofarin, amir sohib.
- Bizga xuddi shu kerak. Ingliston hukumati hech qachon bizga yaxshilik istamas ekan, bunga amin bo'ldim, sardor.

2

Mahmudbek Tarzi amir huzuridan chiqib, xonasiga yo'naldi. U Rusiyaga yuborilgan maktublarning javobini sabrsizlik bilan kutardi. Tarzi daryoning narigi qirg'og'idan xushxabar kelishiga ishonar, shu bois, yuborilajak elchilar vakolasini xayolan tayin qilar edi. Muhoribadan olingan ko'ngilsiz daraklar, Kobulga bomba yog'dirilishi unda javobni kutmay, vakolani yo'lga otlantirish fikrini uyg'otdi.

Tarzining xonasi ham yevropa usulida jihozlangan: deraza yoniga katta yozuv stoli, o'rta yumshoq kursilar qo'yilgan edi. U yozuv stoliga borib, tortmani ochdi. Rusiyaga oid barcha ma'lumotlarni shu yerda saqlaydi. Tarzi qog'ozlarni bir-bir olib, ko'z tashlay boshladi. Qog'ozlardan biridagi baytni o'qib, o'yaldi: qachon, nimaga yozib qo'ygan ekan?

"Tanan zi bandi libosi takalluf ozod ast,

Barahnagi ba baram xil'ati xudodot ast.

Bu bayt Habibulloxon atalmaganmidi? Ha, Habibulloxon Inglistondan pul ta'ma qilganida g'azablanib, Mirzo Bedilning shu satrlarini eslagan edi. Eslashga eslab, amirga so'z aytishga jur'at qilolmagandi. Ne shodki, sarpo tamaidagi amirning pushtikamari takalluf libosining bandidan ozod bo'lmoqni lozim topdi. Shukrki, ko'ngli kayfi sahboni istamadi. Aks holda, Tarzi dodini kimga aytar edi? Otasi surgun qilingan zamonda yorug' dunyoga kelgan, musofirlik sahrosida sarsari kezgan, mardudi davron madarini begona tuproqqa qo'ygan bu aftodavash, ozodlik ilinjida dunyodan ko'z yumib ketmasmidt..

Eshik og'asi kirib, Hirotdan chopar yetib kelganini bildirdi. "Rusiyadan xabar keltirdimikan? Unday desam, biz Termiz sari yuborib edik-ku? Hirotdan qanday xabar yuborishlari mumkin?" Chopar ostonada paydo bo'lgunga qadar Tarzini shu jumboqlar qamrab oldi.

Chopar shoshganmi, hatto yuvinishga ham ulgurmagan, ust-boshi chang bir ahvolda kirib keldi. Tarzi uning kirtayib, qizarib ketgan yuzlariga qarab, behad holdan toyganini sezdi.

- Noib ul-hukuma Muhammad Sarvarxon hazrat sardorga duo yo'lladilar, - chopar shunday deb qo'yndan muhrlangan qog'oz chiqarib, ta'zim bilan uzatdi.

Tarzi nomani olib, shoshib ko'z yogurtirdi. Hirot noibi Tarziga sihatlik tilab, Ko'shk tomondagi hamhudud qo'shinlar yaxshi niyat ila chopar yuborganlari, yurtni amir Habibulloxon so'rab turgan damlarda ham shunday chopar kelgani, biroq amir sohib ro'yxush bermagani sababli ularning salomlari qabul bo'limganini bayon etib, endigi noma amir hazratlari tomonidan inobatga olinuviga umid bildirgan edi. Noib maktubiga Tarzi anglamaydigan harflardagi noma, so'ng pushtuda yozilgan xat ham ilova etgan edi. Tarzi bu xatni o'qib, avvaliga hayron bo'ldi: Afg'onistondan yo'llagan maktub haqida nechun kalima yo'q? U maktub bitilgan muddatga qarab olgach, hammasiga tushunib yetdi: demak hamhududlar ulardan o'n kun ilgari maktub yozishib, Afg'onistonning mustaqilligini tan olishibdi.

- Nечун hayallab yetkazding? - dedi Tarzi norozi ohangda.

- Gunohkorman, sardor sohib, - dedi chopar bosh egib, - men kecha-kunduz beto'xtov yo'l bosdim. Hazrat noib aytdilarki, noma Hirota yetgunga qadar behad uzoq yo'l yuribdi.

Tarzi choparni bejiz ayblaganini bilib, unga ruxsat berdi.

"Darvoqe, maktubni nima sababdan uzoq yo'l bilan yuborishibdi? Shu yo'lni bexatar deb bilganlarmi? U holda Tirmizga yuborganimiz chakki bo'lganmi? Maktublarimiz aro yo'lida qolib ketganmi yo?"

Tarzi shu jumboqli o'ylar bilan amir huzuriga oshiqdi.

Omonulloxon maktubni eshitib, xayolga botdi: "Xatolik bo'ldi, - dedi u o'ziga-o'zi. - Dastlab Inglistonga yuzlanganim, so'ng ulardan xushxabar umid qilganim xatolik bo'ldi, ko'p xatolik bo'ldi. Inglistondan muruvvat kutib, mudoxala1ga o'zim eshik ohib berdim. Mahdud saltanatim ozodlikka chiqmas ekan, joyim saqarda bo'lumi muqarrar".

Tarzi amirning javobini toqat bilan kutdi. Nihoyat, Omonulloxon ko'zini derazadan olib, unga qadadi:

- Shaytanat taxtidan umidvorlikning gunohi mening bo'ynimda, sardor.

- Amir sohib, o'kinchingiz o'rinsiz. Ulardan iltifot kutmay, dastlab shimolga chopar yuborgan holingizda ham mudoxala muqarrar edi. Hazrat mirzo Bobur aymoqchi, "har kimki jafo qilsa jafo topqusidur".

- Inshoollo. Fikri ojizimcha, Rusiya ham Afg'onistonga ega chiqmoqlikni istaydi. Tarixda Hirot sari qo'shin tortib, ko'p yerlarimizni bosib olganini unutsak, nodon bo'larmiz. Ammo... bu fursatda ilojsizmiz. Tarbiyatsiz bog'u bo'stondan samar kutmak abas bo'lganidek, yolg'iz yurtning taraqqiyot sari yuz tutmagiga umid yo'q edi. Endi maktubga iltifot ila javob yo'llashimiz lozim.

- Amir sohib, endi maktubga ehtiyoj yo'q. Turkiston jumhuriyati Rusiya nomidan gapirib, bizni ozod, mustaqil deb bilib, o'ziga teng tutibdimi, bas, saforat ishlarini beto'xtov yo'lga qo'ymak tadorigini boshlamog'imiz darkor. Yo'llagan maktubimiz eson-omon qo'llariga yetsa, ularning-da shunday yo'l tutmoqlariga imonim komil.

- Ma'qul. Nechoqlik simu zar zarur bo'lsa, oling. Saforatga kimi larni lozim ko'rasiz?

- Muxtor vazirlik sardor Muhammad Valixonga lozim ko'rilsa. O'zga yurt sardorlari bilan uningdek fikrlasha oladigan odam oramizda yo'q. Muhammad Valixonga mavlaviy Sayfurrahmonxon, Mirza Muhammadxon Yaftali, Sulton Ahmad ko'mak beradilar. Fayiz Muhammadni maslahatchi hamda munshi etib tayin etsak. Edin afandi muxtor vazirning noibi bo'lsa.

- Kamolxonni lozim topmadingizmi? So'z aytishga suyagi yo'q-ku? Saforat ishida so'zamol bo'lish kerakdir?

- Fikringiz o'rinali. Biroq ko'p so'zlamoqlik saforat ishida husn emas. Bunda ko'p emas, xo'b so'zlamak darkor.

Amir kulimsiradi:

- Ko'p otgan mernan emas, ko'p aytgan chechan emas, deng?

- Alqissa, shunday, amir sohib. Vakolani uzatib bormoq uchun sarbozlar ham zarur.

- Risale shohining eng botir sovarlarini oling.

- Yana bir mulohazam bor edi.
 - Aytin.
 - Buxoroi Sharifda, Toshkentda ham saforatxona ochsak. Buxoroga Abdushukurxon, Toshkandga Muhammad Aslanxonni tayin etsak. Ular ham muxtor vazir bilan yo'lga chiqishsa...
 - Sardor, minnatdorman sizdan. Hammasini puxta o'ylab qo'yibsiz. Farmonim shu: vakola beto'xtov safarga otlansin. Tarzi eshikka yo'nalganda amir uni to'xtatdi.
 - Hozir menga bir xabar yetkardilar. Mendan norizo amlokdorlarning mulki dehqonlarga bo'lib berilsin, degan amru farmonimni faqirlar noxush qabul etibdilar. Yerlarni olmayotgan emishlar. Mening aqlim lol. Siz bu ko'rnamaklik boisini bilmaysizmi?
 - Bu ko'rnamaklik emas. Buning sababi shulki, farmoni oliyningiz o'sha damda zarur edi. Siz taxtga o'tirar chog'ingizda va'dalar berib edingiz. Shul va'daga binoan mulklarni hadya etdingiz. Va'daga vafo qildingiz. Endi esa ular muhoribada amir mag'lubiyatga yuz tutsa, amlokdor qaytadi, deb qo'rqedilar. Bu - birlamchi. Amlokdor qaytmagan taqdirda, ammol1 qalamidan ro'zg'ori qaro bo'ladi, bu - ikkilamchi.
 - Ammol qalamidan? Soliqlarni kamaytirdim-ku?
 - Ahli ammol orasida nobakorlar, ahli dehqon ichida dilu jonini jaholat qoplamish nodonlar bisyor. In'omingizni qabul etmaganlariga yana bir sabab, ularda yer boru ishlov bermoqqa ot-ulov yo'q. Ularning amlokdor hukmida qad bukkanlari afzalroq.
 - Ozodlikning fahmiga bormaydilar, deng? - amir shunday deb qo'l siltadi.
 - Siz saxovatda Hotamtoydan, adolatda No'shiravoni odildan ortiq ish yurityapsiz. Buning fahmiga yetishlari uchun fursat darkor.
 - Qancha?
 - Muhoribada yengib chiqqanimizdan so'ng fuqaro qudratingizga tan berib, farmonlaringizga amal qila boshlaydi.
- Tarzining: "Muhoribada yengib chiqqanimizdan so'ng", deb ishonch bilan, qat'iy aytishi amir ko'ngliga taskinlik berdi.

3

Tavba! Bu odamlar sirlardan qanday voqif bo'ladilar? Omonulloxonning marhum otasi, "bular devor emas, qulqoq", deb ta'kidlashni yoqtirar edi. Chindan ham saroy devorlari qulqoqqa aylanib ketgan shekilli? Yo'qsa, Qodir og'a hazrat Rusiyaga muxtor vazir tayin etilganidan qanday ogoh bo'ldi? Hazrat og'zidan: "O'russiyaga safir yuborayotgan emishsiz?" - degan gapni eshitib, amir avval lol qoldi. Keyin achchiqlandi. Hazratni siltab tashlagisi keldi-yu o'zini tutdi.

- Inglistonidan marhamat kut, deb edingiz, kutdim.
 - Muhoribaga kirishmaslik lozim edi.
 - Urushni kim boshladi? Bu bandasiga ham, Yaratganga ham ma'lum-ku, nahot siz bilmasangiz?
 - Uzunquloq gaplarga inonavermayman.
 - Amirning gapiga-chi?
- Omonulloxon, "amirning gapi", deb chertib-chertib aytadi. Hazrat bu ta'kid boisini anglab, rangi quv o'zgardi, ammo sir boy bermadi.
- Siz O'russiyaning vafo qilishiga aminmisiz?
 - Siz-chi, hazrat?
 - Amin emasman.
 - Sabab?
 - G'ayridinga ishonu qo'yningda xanjaring bo'lisin.
 - Inglis-chi? U ham g'ayridin-ku?
 - Inglis sinalgan do'st edi, Xudo xohlasa, gunohlarimizdan kechib, yana do'st bo'lib qoladi. O'russiyaning vafosini esa sinab ko'rmoq kerak.
 - Sinab ko'rmoq? - amirga bu taklif qiziq tuyuldi. - Qani, aytin-chi?

- O'russiyaning vafosini sinash bahonasida Afg'oniston yerlarini birmuncha kengaytirishingiz ham mumkin, - Qodir og'a hazrat ayyorona jilmaydi. - Siz ulardan daryoning u qirg'og'ini, xususan, Ko'shk, Karki, Tirmiz qal'alarini berishni so'rab ko'ring. Qal'alar qo'lga kirsa, Buxoro payi qirqiladi, undan Turkistonga qo'l uzatsa yetgulik, Jannatmakon padaringiz amir Habibulloxon orzulari sizga madad bo'lgay. So'raganlaringizni olsangiz, Ingliston gunohimizdan o'tib, yana marhamat sandig'ini keng oshib beradi.

- Gaplaringiz mushohadaga arziyi, hazrat. Ammo gunohlarimiz xususida ikki karra eslatdingiz, bu chakki. Bizning Ingliston oldida gunohimiz yo'qdir, bil'aks ular gunohkordurlar. Fikri ojizimcha, padarimning o'limiga ular fatvo bergenlar.

- Alhazar! - hazrat titroq qo'llarini baland ko'tardi. - Alhazar! Bunday demakning o'zi gunoh. Ingliston jannatmakon padaringizga zo'r tilfotlar ko'rgazar edi, hazrat amir ham ularga sodiq edi.

Omonulloxon uning harakatlariga qarab turib, "ajab, bular inglisi buncha xushlamasa, tobelikni buncha qadrlamasa, gulistonidan kechib, sayri mazoratni bunchalik istamasa..." deb o'yldi. U tepaga qayrilgan gajak mo'ylabini burab, hazratga yaqinlashdi.

- Hazrat, duo qiling, sizning duolarining ijobat bo'lgusi: Olloho gunohlarimizdan kechib, g'alabaga yetkazsin, shahidlar jonini dargohida qabul etib, jannatdan joy ato qilsin, omin!

Hazrat noiloj fotihaga qo'l oshib, uzoq duo qildi. "Ayyor bu bola, juda ayyor", deb o'yldi u chiqib ketar chog'ida.

Qarashlari muloyim, bo'y-basti kelishgan, kalta mo'ylabli Muhammad Valixon amir uzatgan maktubni olib ko'z yogurtirdi: "Bu zamonda baxtdan darak beruvchi taraqqiyot nuri xalqlarni birlashuvga, birodarlik aloqalari o'rnatuvga chorlayotgan damlarda, do'stlik iplari avval hamhududlarni, so'ng bo'lak elatlarni bir-biriga bog'lamog'i lozim. Afsuslar bo'lsinkim, uzoq vaqt mobaynida Buyuk Afg'oniston Ingliston nayranging tufayli ozodlik va mustaqillik nuridan bebahra qolib, eng yaxshi, eng saxovatli qo'shnilaridan hazor-hazor chaqirim nariga surib qo'yildi. Endi afg'on xalqi bu nayranging barham berib, qaddini rostladi va shavkatli hamhudud mamlakatga safir yo'llaydi. Sardor Muhammad Valixon bizning muxtor vazirimiz sifatida sizlar bilan muzokara yuritib, har ikki davlat o'rtaсидagi chin, mustahkam do'stlik qasriga poydevor tayyorlaydi..."

Muhammad Valixon maktubdan nigohini uzib, amirga qulluq qildi.

- Bag'oyat dono so'zlar bitilibdi, - dedi u.

- Siz, avvalo, Sho'ravi Rusiyaga, so'ng Ovrupodagi barcha mamolik hukumatlariga Buyuk Afg'onistonning mustaqil ekanini ma'lum eting. Sho'ravi Rusiya hukumatidan esa iltimos qiling: Ovrupodagi bo'lak mamolik ila tijorat aloqalari o'rnatgan taqdirimizda mollarni xiroj-bojsiz Rusiya yeridan olib o'tuvimizga izn bersinlar. Yana aytinchi, urush tufayli bizlarimizdan tortib olishgan daryoning ul qirg'og'idagi yerlarni qaytarib bersinlar.

- Amir sohib, - dedi Tarzi, bu gapdan hayratga tushib, - asti bunday demaylik. Hozirgi ahvolimiz bunday iltimoslarga imkon bermaydi.
- Hechqisi yo'q, - amir Tarzining gapiga pinagini buzmadi, - biz bu bilan ularning... - amir "vafosini" demoqchi bo'ldi-yu, joiz emasligini fahmlab, boshqacha aytди: - maqsadini bilib olamiz. Tarzi bu gapni eshitib, ichidan zil ketdi-yu, bosh chayqab qo'ydi.

Ikkinci qism - Diydor Yo'li

Birinchi bob - Hisobli Dunyo

1

Asadulla ish bilan ovora bo'lib asta-sekin ovuna boshladi. O'z g'amiga yemirilib o'tiradigan zamon emasdi. Turkiston Markaziy Ijroqo'mi uning Afg'oniston safaridan ozod qilishni so'rab yozgan iltimosnomasini rad etdi. Barcha nomzodlarni Moskva tasdiqlagan, ularning nazarida qarorni o'zgartirishga "arzirli asos" yo'q edi. Asadulla ilgari "elchilikni eplay olarmikanman", deb o'ylagan bo'lsa, endi "sihatim dosh berarmikin", degan xavotirga tushgan edi.

Afg'onistondan kelayotgan elchilarни kutib olishda shaxsan ishtirok qilajagini bilib, safarga jo'nash masalasi uzil-kesil hal etilganini anglati.

Afg'oniston elchisi sardor Muhammad Valixon va uning a'yonlari kutilganday kunduzi emas, oqshomda yetib kelishdi. Temir yo'l bekatida qo'shkarnay, qo'shsurnay, qo'shnog'ora as'asayu dabdabani boshlab berdi. Muhammad Valixon vagondan tushishi bilan Tashqi ishlar xalq noziri, Xmarin va Asadulla Mir'alam unga peshvoz yurdilar.

- Ozod Turkiston jumhuriyatining poytaxtida ozod Afg'oniston amirining elchisini Sho'ro hukumati nomidan muborakbod etaman. Xmarin nozirning so'zlarini forsiyga o'girdi. Bunga javoban Muhammad Valixon yengil ta'zim qildi.

- Bir daryo suvini ichsak-da, bir quyoshdan nur emsak-da, - dedi u, - oramiz uzoq edi, nainki uzoq, oramizda Ingliston tiklab qo'yan Iskandar devori mavjud edi. Bul devorning yiqiluvi har ikkимizга ham qutlug' bo'lsin.

- Safaringizning bexatar o'tgani rost bo'lsin, ziyoratlarinig qabul bo'lsin, - dedi Asadulla suhbatga qo'shilib.

Elchi forsiyda gapirgan cho'qqisoqol, qotmadan kelgan, istarasi issiq bu odamga qarab:

- Olloh ziyoda qilsin, - dedi-da, yuziga fotiha tortdi.

Nozir Xmarin bilan Asadullani unga tanishtirdi.

- Yorug' dunyoda ikki yurtni do'stlashuviga xizmat qilishdan savobroq ish yo'q, - dedi elchi Asadullaning qo'lini siqib. - Shu savob bizga nasib etgan ekan, hazor-hazor shukr.

Muhammad Valixonning hamrohlari behad ko'p edi. Xizmatchilar, sovarlar alohida to'p bo'lishdi. Elchi nozirni saforat ishlar bilan shug'llanuvchi a'yonlari bilan bir-bir tanishtirdi. Zar choponlilar orasida sersoqol bir odam Asadullaning diqqatini tortdi.

- Said G'afforbek, - dedi elchi, tanishtirish navbati unga yetganda, - Buxoro amiri Said Olimxon hazrati oliylarining iltifotlari ila saforat ishlariga ko'mak bermoqqa chorlanganlar.

Said G'afforbek nozir, so'ng Xmarin bilan jilmayib ko'rishdi. Navbat Asadullaga kelganda esa ko'zlarini undan olib qochdi.

Asadulla uning qo'lini olib, darrov qo'yib yubormadi.

- Azaldan birodarsizlar shekilli? - dedi Muhammad Valixon Asadullaning harakatidan ajablanib.

- Yo'q, yo'q, bir birodarimga o'xshatdim. Rafiq Iris o'g'li degan qadrdomim bo'lar edi. Xudo uni bizga ko'p ko'rdi.

- Olloh rahmat qilsin birodaringizni, - dedi Said G'afforbek, yuziga fotiha tortib.

Mehmonlar shaharga yo'l olishganda Asadulla Shuvalovga yaqinlashdi.

- Sersoqolga e'tibor qiling, Irisovning xuddi o'zi.

- Elchilar orasida nima qilib yuribdi?

- Buxoro amiri qo'shgan emish.

- Buxoro amiri?... Yaxshi, Mira'l amovich, sen sir boy berma. Buyog'ini o'zimiz kuzatamiz.

Kechqurun sobiq general-gubernatorning bog'ida ziyyofat berildi. "Sen je, men je, qolganini tomga tashla", deydigan zamon emasdi. Shu bois dasturxon kamtarona bezaldi. Buxoro amiri saroyida to'kinlik guvohi bo'lgan afg'onlar bu yerda bundayin kamtarinlikni ko'rib, ajablanishdi. Mezbonlar esa izoh berishni lozim topishmadidi.

Asadulla Said G'afforbekdan nariroqda o'tirdi. Ammo ko'z qurg'ur nuqul shu odam tomonga tortadi - beixtiyor qarab-qarab qo'yadi. Said G'afforbek uning qarashlarini sezар, illo sezsa-da, sezmaganlikka yo'yib, pinagini buzmaslikka tirishadi.

Libosiyu turqi tarovatini o'zgartirgan Rafiq Irisov - Said G'afforbekni qaysi balo yo'ldan urgan, uning qaysi yerlarda qanday hunar ko'rsatgani Asadulla uchun qorong'i. Hozir u bir narsaga aniq ishondi - Buxoro amirining ishonchiga kiribdimi, demak, katta xiyonatlar ko'chasidan o'tib borgan. Mayda xoinligu chaqimchilik bilan amir qarorgohiga kirib bo'lmaydi. Xo'sh, endigi vazifasi nima uning? Asadullani shu jumboqlar o'rtaydi. Shuvalov-ku, uni nazaridan qochirmas, ammo u ham anoyimasdir. Pinak buzmay o'tirganiga qaraganda, uncha-buncha hiylagarga dars berishi mumkin. Ilgari ham shunaqamidi yo keyinroq o'zgardimi?

Irisov yoshligiga qaramay, ko'pni ko'rgan, ko'zi pishgan edi. Ming to'qqiz yuz beshinchchi yildagi g'alayonlar davrida naq Peterburgda bo'lgan ekan. Uning hikoyalaridan Asadulla lol qolardi. "Kayfu safoni tashlab, vafosiz dunyoda mehru vafoni boshlamoq vaqtı yetdi", degan edi u. "Faqir shodlikni naylaydi, bir kunlik vafosi bo'lmasa. Vafoli shodliqg'a erishmoq uchun esa kurashmoq, hokimiyat egasi bo'lmoq kerak". Asadula bu gaplarni unutgani yo'q. Rafiq Irisovga nisbatan ko'ngliga shubha oralaganda shu so'zlarni eslardi. Shunday dono, haq gapni aytgan odamning xoin bo'lishi mumkin emas, deb hisoblardi. Hozir ham shuni eslab, balki bu odam Rafiq afandi emasdir, degan gap xayolini bir yoritib o'tdi.

Asadulla qorong'ilikda gangib qoldi. Go'yo tun bog'ni emas, uning vujudini bosgan edi. U yo'llariga churuk turmushning qanday go'rilar hozirlaganidan bexabar edi.

Asadulla ham, Shuvalov ham Said G'afforbekka qarab, bu nusxa Buxoro amiri ishonchini qanday qozondi ekan, amir nima uchun afg'onlarga lutf qilib uni qo'shdi ekan, deb bosh qotirardilar. Ular Xaustonning Buxoroga qo'noq bo'lgani, amir bilan uzoq suhbatlashganidan bexabarlar. Buxoroga boraturib Kattaqo'rg'onidan Rafiq Irisovni yoniga olganini ham bilmaydilar.

2

G'ulomqodir Termizda javob kutaverib yuragi to'lib-toshib ketdi. U to hanuz bu qadar bekorchilikka bandi bo'lмагan edi. Kunda qal'aga boradi, xabar oladi. Avval: "Odamlar Toshkentga yetib borishmabdi, o'zimiz ham xavotirdamiz", deyishdi. Keyin: "Amir hazratning maktubi Toshkentga yetkazilib, Moskvaga uzatilibdi, endi javobini kuting", deyishdi. "Maktub egasiga tegibdi, bugun-

erta javobini ham yetkazishar", deb yurdi. Kun o'taverdi. Ingliston bilan boshlanib ketgan urushdan bu yerga chala-yarim xabarlar kelib turardi. Ana shu uzuq-yuluq daraklar uning ko'nglini battar ezar edi. G'ulomqodir Eron sarhadi, Hazar bahridan o'tgan inglislarning ahvoli birmuncha tang ekani haqida ham xabarlar eshitardi. Eshitardiyu ich-ichidan zil ketardi. Loaqal bittagina inglising ko'ksiga dudamasini sanchganda edi, ko'nglidan armoni chiqarmidi...

Mana shu armonlar tutunida bo'g'ilib yurganida daryoning u betidan chopar o'tib, muxtor vazir Mazori Sharifdan yo'lga chiqqanini ma'lum qildi. Keyin Termizga Muhammad Valixon kirib keldi. G'ulomqodir o'sha kuniyoq unga ro'baro' bo'lib, vazifasini ado etganini, endi iziga qaytish ilinjida ekanini ma'lum qildi.

Sardor, ko'rinishi muloyim bo'lgani bilan, gapni shart kesdi:

- Seni saforat ishlariga lozim ko'rgan ekanlarmi, demak, biz bilan yo'lga otlan. Muhoriba sensiz ham sharaflı nihoyasiga yetgusi. Bizning safarimiz esa uzoq, ham xatarli.

G'ulomqodir yana dardini ichiga yutdi. Paroxod degan ajoyibotda Chorjo'yga suzib bordilar. Undan Buxoroi Sharifga o'tdilar. Buxoroning shuhrati qulog'iga chalingan edi, shaharning o'zini ko'rdi-yu, ko'ngli taskin topmadi. Chunki uning tasavvuridagi Buxoro faqat tilla minoralardan iborat mo"jiza shahar edi. Ko'cha-ko'yda faqirlar, saroy atrofida esa zar to'n kiygan odamlarni ko'rib, "bizdan hech bir farqi yo'q ekanda", deb qo'ydi.

So'ng siltab-siltab o'rnida qo'zg'aluvchi poezd degan g'aroyibotga o'tirib Samarcandga, undan Toshkentga yetishdi.

Toshkent Buxorodan salqinroq, yerning umurtqasini sindirib yuboradigan katta imoratlari kam, ko'chalari ancha batartib shahar edi. G'ulomqodir bu yerda ham to'kinlikni ko'rmadi. Ayniqsa bog'dagi ziyofat uni lol qoldirdi. "Ahvollari shu bo'lsa, amir sohib ulardan nima umid qilyapti", deb o'yladi. Ahvoli olamdan bexabar, faqat miltiq otishu qilich chopishga chapdast bu yigitning ajablanishi tabbiy edi. Faqat u emas, vakolani kuzatib kelayotgan o'zga sovaru sarbozlar ham shu fikrda edilar Serdaraxt hovli tashqarisiga faqat muxtor vaziru bir necha a'yonlar chiqib turishar, shahardan esa kam odam tashrif buyurar edi. G'ulomqodir bu yerga tez-tez kelib turuvchi cho'qqisoqol, kichik jussali odamni yaxshi tanib qolgan. G'ulomqodir uni shu yerning sardorlaridan deb bilib, ro'para kelganda ta'zim bilan salom berganda u gerdayib o'tmay, o'shanday ta'zim bilan alik oldi. G'ulomqodir sardorlar orasida bundayini uchratmagan edi. Uning ziyrk ko'zi yana bir narsani kuzatdi: Buxorodan qo'shilgan sardor shu hovliga qo'nishgandan beri shaharga chiqmadi.

Said G'afforbekning shaharga chiqishdan o'zini tiyishini Muhammad Valixon ham sezdi. Turkiston jumhuriyatining elchisi deb tayin etilgan Asadulla Mira'lam tashrif buyurganda a'yonlar suhbatidan o'zini tortishi esa uni shubhalantirdi.

Muxtor vazir Buxoro amiriga Afg'oniston amirining nomasini yetkazib, Buxoroda Afg'oniston saforatxonasini ochib, Toshkentga yo'l olaman deganda, Said Olimxon marhamat ko'satdi: O'rusiya yerlarini, urf-odatlari, shuningdek, lisonini ham durust biluvchi a'yonlaridan birini vakola birlan jo'natajagini ma'lum qildi. Muhammad Valixon bundan norizo bo'lsa-da, amir marhamatini qaytara olmas edi.

Bugun Turkiston jumhuriyati nozirlari huzurida bo'lganda unga noxush gaplar aytishdi: Moskva yo'li ag'yorlar tomonidan band etilgani sababli ularning safarlari Toshkandda vaqtincha barham topar emish. Ag'yorlar mahv etilib, temir yo'l ochilgach, ularning Moskva tomon boruvlari mumkin emish. Toshkandda qancha fursat ipsiz bog'lanishlarini na nozirlar, na-da muxtor vazir bilardi. Jumhuriyat nozirlari Afg'onistonga harbiy yordam berilajagini ma'lum qilishgach, muxtor vazirning ko'ngil g'ashligi bir oz tarqaldi. Toshkanddan Kobul sari elchilar vakolasi jo'nashga hozir ekanini bilib, ko'ngli taskin topdi.

Saforat ahli Toshkandda nomalum fursat qolajagi tufayli xizmatchilardan va sovaralardan bir nechasini ortga qaytaruvga qaror qildi. Toshkanddag'i saforatxonaga yetarli sovarlar a xizmatchilardan tashqari barcha odamlar Mirza Qandilxon boshchiligidagi Kobulga qaytish amrini oldilar. Muxtor vazir shu bahonada Said G'afforbekka ham ruxsat bergen edi, u darhol ko'naqoldi. "Vakola bahonasida Kobulni ziyorat qilib, umrulari uzun bo'lgur hazrat amir Omonulloxon xizmatiga yuz tutajagini", bildirdi.

Shunday qilib, hijriy hisobning 1337 yili javzosida, milodiy hisobning 1919 yil 15 iyunida sho'rolarning birinchi elchilar vakolasi hay'ati qizil askarlar, afg'on a'yonlari, sovarlari kuzatuvida Kobulga qarab yo'l tutdi.

3

Taqdir beshafqat bo'lsa, u bilan kelishishga urinib ko'r, deydilar. Poezd o'rnidan jilganida Asadulla Ushinskiyga hamxona bo'lishini bildi-yu, Afg'onistonga borib-kelgunga qadar taqdir bilan kelishuvdan o'zga chorasi yo'qligini fahmladi.

Kupeda yolg'iz qolishgach, anchagacha bir-birlariga qarab indamay o'tirishdi. Ikkovi ham deraza osha tashqariga tikilar, ikkovi ham o'z fikrlariga bandi edi.

Sukutni birinchi bo'lib Ushinsiy buzdi:

- Xo'sh, o'rtoq Mira'lamo, Afg'onistonga borib kelguncha shunday gung-soqov bo'lib o'tiramizmi?

- Gapingiz bo'lsa gapiring, - dedi Asadulla noxush ohangda.

Uning ko'ngil noxushligiga sabab faqat Ushinskiyga hamxona bo'lishi ems. Uyini maktab ixtiyoriga topshirib, Mirobodni tashlab chiqar mahalida ko'kragidan bir nima uzilib qolganday bo'lди. Nazarida bu tuproq ko'chani, devorlarga yelka tirab o'sgan jiylalarini, olchalarni... boshqa ko'rmaydiganday edi. Uning xotini, bolalarisiz huvillagan uy, ko'cha, mahalla endi butunlay yetim bo'lib, bo'zlab qolayotganday edi.

U sog'inch qirg'oqlarida sarsari kezmoq uchun yo'lga chiqdi. Hali duch kelgan qayg'ularini, quvonchli chog'larini, puchga chiqqan tilaklarini, aytilmagan so'zlarini eslaydi. Bedork qolgan ko'zlarni qo'msaydi. Bu qadron ko'chasiga, bolalarining kindik qoni to'kilgan uyga qachon qaytadi, mungli uyi qachon qayta jonlanadi? Hayot uni bahor mo"jizasi-la qarshilarmikin hech, yo hazonrezgi tomon ayovsiz surib ketaverarmikin? Chigallashib ketgan hayot ipi qachon, qaerda uzilarkin? Tun qachon, qaerda erib, qachon, qaerda umidi tongi otarkin?.. Asadulla shu dard bilan mahallani tashlab chiqdi. Shu dard bilan bekatga keldi. Dardini sirtiga chiqarmay, yaqinlari bilan xayrashdi.

Mana endi kupeda bu dard huruj boshlagan. Uni yengillatay desa, ro'parasidagi odam dardkash emas. Shuvalov bo'lganda boshqa gap edi. Aksiga olib u Kogonga ketgan. Vakolani o'sha yerda kutib oladi. Asadulla o'z yog'iga o'zi qovuriladi. Ushinskiy esa uning noxushligini boshqa narsaga yo'yadi.

- O'rtoq Mira'alamov, mening nomzodimga qarshi chiqqan ekansiz, eshitdim, lekin bundan xafa emasman. Men boshqa narsadan ranjidim. Nahot mening tanqidiy gaplarimni ko'ngilda saqlab yurgan bo'lsangiz, axir haqiqat bahslarda yuzaga chiqadi. Men orqangizdan g'iybat qilmay, fikrimni ko'pchilik orasida aytganimdan beg'araz ekanimni bilishingiz kerak edi. Unda boshqa-boshqa yo'lda edik. Endi bir firqadamiz...

- Veniamin Samoylovich, men bir gap uchun gina saqlab yuradigan yoshda emasman. Buni siz ham bilib oling. Bir firqada

bo'lginimiz bilan maslaqdosh ekanligimizga ishonchim yo'q, buni ham bilib oling.

- Eserlar safida bo'lginimga shama qilyapsizmi? Qiziq... Pershinga ham shunday deganmidingiz?
- Pershinni holi qo'ying. Umuman, unga o'zingizni tenglashtirmang. Pershin qoya edi. Men ham, siz ham Pershinday inqilobchi bo'la olsak, bu dunyodan armonsiz keta olardik.
- Shunaqa deng... - Ushinskiy pensnesini ko'zidan olib, ko'krak cho'ntagiga soldi. - Biz Pershin bilan uzoq vaqt yelkama-elka turganmiz. Darvoqe, - Ushinskiy istehzo bilan jilmaydi, - buni bilmasangiz kerak, unda siz jadidlar bilan bo'lgansiz...
- Veniamin Samoylovich, to'g'risini ayting, "jadid" nim degani, bilasizmi?
- Bilaman: aksilinqilobiy tashkilot.
- Jadidlarning bir guruhi "Sho'roi islomiya", "Ulamo"ga qo'shilgani uchun shunday deyapsiz. E'tiboringiz uchun "jadid" - "yangi" degani. O'qish-o'qitish ishlarini yangi usulga ko'chirish ularning maqsadlari edi. Maorif yo'li bilan zulmga, nohaqlikka barham beriladi, deb ishonishgan. Men esam hurriyatga faqat maorif yo'li bilan erishib bo'lmasligini anglab, kurash yo'liga o'tdim, ulardan uzoqlashdim. Jadidlarning qay birlari haq, qay birlari nohaq ekanini kelajak ko'rsatadi. Shuning uchun o'tmishni yuzimga solishingiz o'rinsiz.

- Bu gapni o'zingiz boshladitingiz.

- O'ylab ko'ring-chi, kim boshladi ekan?

Ushinskiy Asadullaga tikilib, mug'ambirlik bilan kulimsiradi.

- Yaxshi, meni kechiring, - dedi u qo'l uzatib, - tinchlik sulkini imzoladik, desam bo'lar?

Asadulla istar-istamas uning qo'lini olib, "ha", deb qo'ydi.

- Elchimizning kotibalarini ko'rdingizmi, juda huriliqo-yu, a? - dedi Ushinskiy, oradagi noxushlik yo'qolganidan xursand bo'lib. - Nima uchun bu parini qo'shdi, bilmaysizmi?

- Bilmayman, diplomatiya qonun-qoidasi shunaqa bo'lsa kerak.

Ushinskiy: "Asadulla to'g'ri javobdan bo'yin tovlab atayin shunday deyapti", deb o'yladi. Holbuki Asadullaning o'zi ham bu xonimni ko'rganida hayron bo'lib edi. Xizmatchilar, kuzatib boruvchi qizil askarlar nomzodi Tashqi ishlar xalq nozirligida ko'rigan, bundan Asadullaning xabari yo'q edi. Nozirlik mahkamasida ishlovchi bu ayloning Xmarining tanish ekani, vakolaga Xmarin istagi, iltimosi bilan qo'shilganini u keyinroq bildi.

- Unda siz nimaga olmadingiz, axir siz Turkiston respublikasining elchisisiz-ku? - dedi Ushinskiy uning javobidan qanoatlanmay.

- Veniamin Samoylovich, bunaqa ikir-chikirlarga aralashmaylik. Bizning vazifamiz bo'lak.

- Yo'q, azizim, vakola hay'atini biz boshqarishimiz kerak. Safar natijasiga elchi emas, biz - bolsheviklar javob beramiz. Xmarin partiyasiz. Unga to'la ishonib bo'lmaydi. Siz, men, o'rtoq Shuvalov - har bir ikir-chikirga javobgarmiz. Aytmoqchi, harbiy attashemiz ko'rinnadilar?

- Bilmadim. - Shu qisqa javob bilan Asadulla suhabatga toqati yo'q ekanini bildirdi.

Poezd Sirdaryodan o'tganda atrofni qorong'ilik chulg'ay boshlagan edi. Asadullaning nazarida ular tun qa'rige uchishardi. Zimziyo tun ko'p o'tmay ularni bag'riga oladi.

Ushinskiy hadeb gapirovargani uchunmi, Asadulla ko'pchilik yodga olayotgan o'sha mojaroni esladi.

O'shanda Asadulla majlisda emas, cho'g' ustida o'tirganday betoqat edi. Bu yerga kelaturib Shuvalovdan ham hayratlaniruvchi, ham g'azablantiruvchi bir xabarni eshitib, boshiga cho'qmor urilganday gangib qolgan edi. U aksilinqilobchilardan hamma mal'unliklarni kutishi mumkin edi. Lekin yurtni sotishlari yetti uxlab tushiga kirgan emasdi: o'zini TVO deb yurituvchi Turkiston harbiy tashkiloti Turkistonni yigirma besh yil muddatga Angliyaga sotibdi! Odam aqldan ozsa mol-mulkini, hatto xotinini, boringki eng ashaddiyulari onasini sotishi mumkindir. Lekin yurtni sotish, Vatanni sotish!?

Shu xabardan dunyo ko'ziga tor ko'rinyotgan Asadulla munozaraga aralashmay o'tirgan edi.

Majlis boshlanishida keskin munozara ham kutilmagan edi. Chunki unda aytarli bahs talab etmaydigan masala - mahalliy aholi orasida maorif ishlarini yo'lga qo'yish, Munavvar qori tashabbusi ila aprelda ish boshlagan Turkiston xalq dorilfununiga yordam berish masalasi o'rtaqa qo'yilgan edi. Lekin kutilmaganda go'yo to'g'on o'pirildi-yu, yig'ilib qolgan suv o'zanni boshqa tomonga burdi.

Turkiston O'lka Sho'rolarining III qurultoyida mahalliy aholida ishchilar sinfi tashkilotlari yo'q, degan bahonada hokimiyatga bironga o'zbek kiritilmagan edi. Majlisda bu katta xato ekani aytildi-yu, eserlarning jon tomiriga bolta urildi. Chunki III qurultoya eserlar ta'siri kuchli bo'lgan edi. Maorif ishi uyoqda qolib, mahalliy aholiga ishonish kerakmi yo yo'qmi degan masala yana ko'ndalang bo'lib qoldi.

Asadulla bilan Ushinskiyning to'qnashuvi shunda boshlangan edi.

Eserlarning janjalkash vakili sifatida tanilgan Ushinskiy munozaralarning oxirrog'ida gapirishni xush ko'rardi. U mo'ljalni aniq olardi: boshqalarning fikridan ogoh bo'lib, shiddatlari zarbaga tayyorlanardi. Bu gal ham odatini kanda qilmadi. Bahs yakunlanay deganda o'tirgan yerida:

- Siz dekabr voqealarini unutib qo'yypsiz! - dedi baqirib. Majlis ahli tinchigach, viqor bilan o'midan turdi. U shu gapi bilanoq Bolsheviklar fraktsiyasini mag'lub etganday ro'parasidagi odamlarga g'olibona qarab qo'ydi.

- Muhammad payg'ambarning tug'ilgan kunini nishonlaydigan to'da eski shahardan yurishni boshlab nima qildi? - dedi u yana ro'parasidagi odamlarga murojaat qilib. So'ng javob kutmay gapini davom ettirdi: - Yangi shaharga keldi. Keyin turmani o'rab oldi. Ishg'ol ham qildi. Xo'sh, keyin-chi? Keyin sovet hokimiyatni dushmanlarini chiqarib yubordi. Ana endi, muhtaram Bolshevik o'rtoqlar, menga javob bering: bu yil Muhammad payg'ambar tug'ilgan kuni nishonlanmaydimi? Endi ular Turkiston Markaziy Ijroq'miga yurish qilib, komissarlarni turmaga tiqmaydi, deb siz kafolat berasizmi, o'rtoq rais? Meni kechiring-u, - Ushinskiy istehzo bilan kuldi, - men kafolat bera olmayman. Turmada o'tirishga toqatim yo'q. Men bir narsaga kafolat bera olishim mumkin: ularning TVO tarafida turib, bizga qarshi kurashishlari aniq!

Notiqning gaplari quruq safsataga aylanganidan g'ala-g'ovur kuchaydi. Ushinskiy esa bunga parvo qilmay ovozini balandlatdi:

- Ana, o'rtoq Asadulla Mira'lam nima deya oladilar? Keyingi qurultoyda bu o'rtoq rahbar organlarga mahalliy millat vakili sifatida saylandilar. Men bu o'rtoqning inqilob ishiga sadoqatlari boriga, afsus, ishona olmayman.

- O'rtoqlarning shaxsiyatiga tegmasligingizni talab qilaman!

- O'rtoq rais, iltimos, gapimni bo'l mang. Biz hozir printsipial masalani hal qilyapmiz. Men aytgan har bir gapim uchun javob berishga tayyorman. Demak, o'rtoq Mir'alamga ishonchim yo'q, dedim. Endi o'rtoq Mir'alamga savolim bor: yanglishmasam, siz o'tgan yili, "Sho'roi islomiya"ning gazetasida ishlardingiz, shundaymi? Aniqrog'i, muharrir edingiz?

Asadulla o'rnidan turdi. Majlis ahli jim bo'lib, unga o'girildi. "Eserning niyati ma'lum, qani, oxirigacha eshitay-chi?" - degan o'yda javob berdi:

- Ha, muharrir edim.
 - Ular sizdan xafa bo'lishganda tavba qilgan-siz-a?
 - Ha, tavba qilganman.
 - Bo'ldi, rahmat, shuning o'zi yetarli. Ana, o'rtoqlar, shu odamga qanday ishonish mumkin? Bu odamning men bilan birga bo'lishiga sira ishonchim yo'q.
- Xonada yana g'ala-g'ovur kuchaydi.
- O'rtoq Ushinskiyiga mening ham savolim bor, - dedi Asadulla. Uning jussasi kichik bo'lgani bilan ovozi jarangli edi. So'zlarni dona-dona qilib, chertib-chertib gapirishi diqqatni tez jalb qilar edi. Hozir ham shunday bo'ldi: hamma jimb, unga tikildi.
 - Mening "Sho'roi islomiya" xizmatida bo'lganim sababini nahot bilmasangiz? - dedi Asadulla, Ushinskiyiga tikilib.
 - Bu sizning shaxsiy ishingiz. G'oyangiz shunga yo'l qo'yari ekan... - Ushinskiy shunday deb undan ko'zini olib qochdi.
 - Ha, men o'z g'oyamni amalga oshirishda "Sho'roi islomiya" dan ham, "Ulamo" dan ham foydalandim. Men ularning gazitini o'zlariga qarshi kurashda quroq qildim. O'rtoq Mirmuhsinining "Ikki tarixiy voqe" degan maqolasi aynan shu gazitda bosilishi kerak edi. Biz ayrim din peshvolarinning razilligini o'z gazitida fosh etdik. Maqolaning birinchi yarmi uchun tavba qildim, to'g'ri. Chunki maqolaning asosiy - ikkinchi qismini ham xalqqa yetkazishim lozim edi. O'rtoq Ushinskiyiga hayronman, mening tavbamni unutmabdilaru Mirmuhsinining sazoyi qilingani, mening esa "Ulamo" tomonidan o'limga hukm qilinganimni eslaridan chiqaribdilar-da, a? Agar biz bu yerda "men sadoqatliroqman, u esa ishonchisiz", deb safsata sotsak...
 - O'rtoq Mira'alam, o'ylab gapiring... - Ushinskiyning endigi gapida avvalgi shijoat qolmagan edi.
 - Ha, safsata sotsak, - Asadulla Ushinskiyning holini sezib, qat'iylik bilan ta'kidladi, - podachi ko'payib, qo'ylar harom o'lishi tayin. O'rtoq Ushinskiy: "Bu odamning men bilan bo'lishig ishonmayman", dedi. To'g'ri gap bu o'rtoqlar. Men Ushinskiy bilan birga bo'lmayman. Hatto uni "o'rtoq" deyishga tilim bormaydi.

Ushinskiy jahldan bo'zarib, bir oz turdi-da, keyin shartta o'tirib oldi.

Majlis ahli garchi Asadullani ayblamagan bo'lsa-da, uning ko'ngli g'ashlandi. Aslida-ku Ushinskiyning gaplariga e'tibor qilish kerak emas. Kadetlarga yuvindixo'r bo'lgan bu balodan har narsani kutish mumkin. Ertaga anarxistlarga, indinga menshevikkarga qo'shilibdi, deyilsa, hech ajablanmaslik kerak. Asadulla bunga o'tgan yiliyoq amin bo'lgan. Shunga qaramay, uning gaplari malol keldi.

Kuzdag'i jang kunlari, Tuproqko'rg'on atrofida jon olib jon berilayotganda: "Yaxshi ham eski shaharliklar bor ekan, shular bizni boqmasa ochdan o'lardik", degan kim edi? Shu Ushinskiy emasmidi? Endi nima uchun eski shaharliklarga ishonmay qoldi? O'shanda, Tuproqko'rg'on yaqinida yurakdan gapirgan edi. Endi-chi? O'sha gapini unutdimi? Unutmagan. Dekabrdagi yurishga kim aybli ekanini biladi. Lekin o'z firqasining obro'yini to'kmashlik uchun eng pokiza narsalar ustiga ham mag'zava ag'darishdan toymaydi.

Mana shunday beburd odam eserlarni tark etib, bolsheviklar tomoniga o'tdi. Unga ishonishdi. Ishonganda ham muhim vazifa bilan borayotgan vakolaga qo'shishdi. Shu odam qo'shilmasin, degan Asadulla adovatchiga chiqarildi. Ana endi bir kупеда ketyapti. Hatto yarashishdi, "sulh" tuzishdi...

Kupe dimiqib ketgani uchun Ushinskiy derazani pastga tushirdi-da, boshini chiqarib, yuzini shabadaga tutdi.

- O'rtoq Mira'lamov, hind muhojirini yaxshi bilasizmi? - dedi Ushinskiy joyiga o'tirgach.
 - Zikriyo afandini aytapsizmi? Unchalik emas, nima edi?
 - Meni ularning platformasi qiziqtiradi. Kobulda ularning muvaqqat hukumati bor ekan, eshitganmisiz?
 - Bo'lsa bordir... Boburiylar hukmdorligi tugagandan beri inglizlarga tobe ular. Yuz yillab qaramlikda yashagan xalqning ko'z ochadigan vaqtி yetgandir. Tutgan yo'llari ham shundan kelib chiqadi. Asosiy maqsadlari ozodlik ekaniga shubham yo'q.
 - Ozodlikka ham turli yo'l bilan boriladi.
 - Bu tabiiy. Yuz million yo'l, qing'ir-qiyishq yo'ldan eng adlini tanlay olishsa muddaoga erishishadi.
 - O'sha siz aytgan adl yo'li qanaqa bo'ladi?
 - Buni bilmayman.
 - Ana ko'rdingizmi, ularning maqsadini bilmaymizu, ammo ishonib, qatorimizga olaveramiz.
 - Veniamin Samoylovich, siz bu shubhalaringiz bilan oramizda ishonchisizlik uyg'otasiz, safarimizni tahlikaga qo'yasiz.
 - Yo'q, azizim, men bir narsani bilmasam gapirmayman. Hammaga ishonishga haqqim yo'q. Ishonganlarimizdan biri Osipovmid? Revolyutsiya taqdiri qil ustida turganda hatto o'zimdan ham shubhalanaman.
 - Bekor qilasiz. Inqilobni shubhalar bilan ushlab turish mumkin emas. Inqilobning suyanchiqlaridan biri - ishonch.
- Ushinskiy yana Osipovni misolga keltirib javrab ketdi. Asadulla u bilan bahslashish ortiqchaligini bilib, yostiqq yonboshladi, gaplariga e'tiroz bildirmadi. Ushinskiy hamrohining bahsdan bo'yin tovlayotganini anglab, gapni bas qildi.
- Poezd bir-ikki silkinib, Asadulla uyg'onib ketdi. Tong yorishib qolgan edi. Asadulla o'rnidan turib, dahlizga chiqdi.

- Sabohingiz xayrli bo'lsin.

Asadulla ovoz kelgan tomonga qaradi. Qora qoshlari tutashgan, jussador kishi tutqichga suyanganicha unga kulimsirab turardi.

- Zikriyo afandi? Uyqungiz qochdimi?

- Uyqu - g'aflat. G'aflat jafosini bilamiz biz, - dedi Zikriyo afandi o'ychan tarzda.

- G'am yemang, g'aflatlar chekinuvchi davronlar keldi.

- Bunday davr o'zi kelmaydi. Vujudi jaholat ichida tor-mor bo'lgan xalqni kurashga ko'tarish oson emas. - Zikriyo afandi shunday deb sukut qildi. Keyin deraza ortida mudrayotgan o'lik cho'lga boqqancha gapini davom ettirdi:

Ko'zlardin oqar qon yosh, bilmam, nechuk olamdu,

Dunyoni bosib selob, har go'shada motamdu.

To'fonmu, balodurmа har qatrasи bir g'amdur,

Bizlarni yaratmoqdan savdosi nedur, bilmam...

- Zikriyo afandi, badbinlik ham jaholat kabi yomon illat.

- Men badbin emasman, bu gaplaringiz bekor. Nekbinligim boisidan musofirlilikda, quvg'indaman. Eshitganingiz bordir. Kobulda Hindiston muvaqqat hukumati tuzilib edi. Kaltabinligimizni qarangki, biz Rusiya imperatoridan marhamat kutibmiz. Hukumdorga maktub yo'llabmiz. Maktubni nimaga zarb etganimiz, bilasizmi? Tilla laganga! Umid bilan yo'lga chiqdik. Safarimiz Toshkanda

uzildi. Bizni tutib, inglislarga topshirdilar. Men qochdim. Rusiya hukmdoriga bizning qullikda qolmog'imiz ma'qul ekan.

- Afg'onistonning o'zini mustaqil deb e'lon qiluvi hindlarga ta'sir etmasdan qolmas? Bizning do'stlik aloqlari o'rnatuvimiz ozodlik kurashiga qanot bo'lar?

- Aytganingiz kelsin. Sharq uyg'onadi, uyg'onish shodiyonasini ko'rish bizga-da nasib etadi, bunga ishonaman.

Zikriyo afandi shunday deb jimb qoldi. Asadulla uning o'yiga xalal bergisi kelmadi. "Uyi, bola-chaqasi yodiga tushdi shekilli", deb o'yldi. U yanglishmagan edi. Chindan ham Zikriyo afandi uyini esladi. Hindistonda uning bir qizi, xotini, qarib, kuchdan ketgan ota-onasi, besh ukasi, singlisi qolgan. Uyini eslaganda eng avval quchog'ini ochib, yugurib kelayotgan qizalog'i ko'ziga ko'rindi. Uyni tashlab chiqqanda qizi besh yoshda edi. Hozir o'ndan oshgan. Lekin bari bir ko'ziga besh yoshli do'mboq qizaloq bo'lib ko'rinaraverdi. O'n yoshli qizini tasavvur qila olmaydi.

Afg'oniston safariga otlangandan beri Zikriyo afandi tinchini yo'qotgan. U har kuni xayolan uyiga kirib boradi. Yugurib chiqqan qizini dast ko'taradi. Keyin tiz cho'kib, avval ota-onasining etaklarini ko'ziga surtib tavob qiladi. So'ng onasi uni bag'rige bosadi... Kim bilan qanday ko'rishihi bir-bir ko'z oldidan o'tadi. Ana shu shirin umid uni Hindiston sari chorlaydi. Zikriyo afandi uch yil burun barcha yaqinlarining vaboden ko'z yunganligini bilmaydi. Bu dunyoda yakka-yolg'iz qolganidan bexabar u. Orzu ummonida sarxush suzadi...

Asadulla Kogon bekatida Shuvalovni ko'rib chehrasi ochildi. Kogonda ularni tantanali suratda kutib oldilar. Bundan Xmarin ham, boshqalar ham hayron edilar.

- Men bu yerga shuning uchun barvaqt keldim-da, - dedi Shuvalov, ularga izoh berib.

- Faqat buning uchun emasdир? - dedi Ushinskiy.

- Buyog'ini surishtirmang. Ijozat bersalaring, o'rtoq Mira'lamovni bir-ikki soatga olib ketsam.

- O'rtoq Shuvalov, - Ushinskiy shunday deb uni qo'lting'dan olib, chetga boshhladi, - sizning sirli harakatlaringiz menga yoqmayati. Bolsheviklar orasida sir bo'lmasligi kerak. Safar natijasi o'zaro ishonchga ham bog'liq. Do'stingiz Mira'lamov kela-kelguncha menga ishonch haqida gapirib keldilar.

Shuvalov bu pichingdan g'ashi kelsa ham o'zini tushunmaganga oldi.

- Veniamin Samoylovich, - dedi muloyim ohangda, - bizning hozirgi ishimiz safarga aloqador emas. ChKni qiziqtirgan ishni ovoza qilishga haqqim yo'q. Endi kelishib olaylik: bundan keyin hamma o'z ishi bilan mashg'ul bo'lsin.

- E, yo'q, azizim bu anarxiyaga yo'l qo'ya olmayman. Har bir ish kollektiv hal qilinadi. Markazkomning topshirig'iga ko'ra, safar chog'ida firqa guruhib men rahbarlik qilaman. Shuning uchun, o'rtoq Shuvalov, o'zboshimchalik qilishni o'ylamang.

Bu gaplardan Shuvalovning xamiri achigandan achidi: "Mira'lamovich to'g'ri aytgan ekan, bu odam bilan hamtovoq bo'lgandan ko'ra devonaning mushtini yegan afzalroq..."

- Veniamin Samoylovich, menga boshqa gapingiz yo'qmi? Men hozir muhim ish bilan bandman, Mira'lamovich menga yordam berishi kerak. Xayr, siz bilan kechqurun ko'rishamiz.

Shuvalovning harbiychasiga shartta gapni uzishi Ushinskiyning e'tiroziga o'ren qoldirmadi.

- Sog'intirgan do'stlaring bilan uchrashishga hushing qalay? - dedi Shuvalov, izvoshga, Asadullaning yoniga o'tirib.

- Kim ekan?

- "Ulamo"chilarning qolgan-qutganlaridan biri. Sen Hasanxon hazrat degan odamni bilarmiding?

- Ha. Qo'qon voqeasidan so'ng izsiz yo'qolgan edi. Birovlar o'ldiga chiqardi, birovlar xorijga ketgan dedi.

- O'limgan bu hazrat, tirik. Afg'onistonga ketayotgan ekan. Buyoqqa shoshilganimning sababi ham shu. Afsus, katta baliq to'rga ilinmadni. Maydarolarini ushladik. Bittasi seni tanir ekan. Seni o'lindan qutqarganmish.

- Kim? Tal'at maqsum emasmi?

- Ha. Gapi rostmi?

Asadulla kulimsiradi.

- Rost, tavba qilishga undagan.

- Endi o'zi tavba qilyapti, ishonsa bo'ladiimi?

- Tulkining tavbasidan, mug'ambirning navhasidan qo'rqish kerak. Yana kim biladi, balki chindan ham tavbasiga tayangandir?

- Hozir shu odam bilan gaplashasan. Hazratning qaerdaligini aytisin.

Tal'at maqsum bilan Asadulla sakkizinch yilda tanishgan edi. Jadidlar safiga qo'shilgan bu yigit davralarda maorif haqida ko'p gapirardi. Ana shu sergapligi tufayli ham Asadullada noxush taassurot qoldirgandi. Asadullaning o'zi kamgap, sermulohaza bo'lgani sabablimi, ko'p gapiradiganlarni uncha xushlamasdi. "Ko'p gapiradiganlar amalda kam ish qiladilar", deb hisoblar edi. O'shanda ham Tal'at maqsum maorif haqida ko'p gapirar edi-yu, ammo yangi muktab ochish yoxud ochilganlarida ishlashni o'yamasdi.

O'n yettinchi yilda surgundan qaytgan Asadulla o'zini yana maorif ishiga urgan edi.

Bahor adoqlay boshlagan pallada odamlar Shayhontahurga oqdi. Mardikordan qutulib kelganlar shu yerga to'plandilar. Olomon qalqib turgan zamon edi. Siyosatni to'la anglab yetmagan aholini har kim o'z maslagi tomon og'dirish yo'lida bo'lardi. Demakki, bunday yig'inlarda kattayu kichik firqa, to'da, jamiyatlar yeng shimarib, maydonga tushardi. Kimki xalq dilidagisini topsa - marra o'shaniki.

Bu yig'in xabarini eshitgan Asadulla ham boshqa do'stlari qatori ota mahallasiga kelgan edi. Notiqlardan biri Kerenskiyini alqay boshhladi. Xudodan o'ris askarlariga g'alaba tiladi.

Bu azamat notiq besh-olti oy muqaddam "podsho imperator a'zam Nikolay hazratlari"ga uzoq umr tilagandir. Zamon o'zgardi-yu, duoning mazmunini ham o'zgartirib qo'ya qolibdi. "Ikkii-uch yil vatandan uzoqda, xorlikda, it azobida mehnat qilgan, qancha yoronlarini o'rmonlar, botqoqlar bag'rige dafn etib, ko'zlaridan yosh emas, qon oqqan, muhoriba nima ekanini bilib qaytgan odamlar endi Xudoga nola qilib, Kerenskiyga g'alaba tilasharmikin? Muhoribani baning davom etuviga boshdag'i kulfat toshlarining ko'payishiga olib kelishimi xalq anglamaydi, deb o'ylaydilarimi ular?"

Asadulla shu g'azabnok fikrlar changalida turganida kimdir bilagidan ushlatdi. Yoniga o'girilib ko'rdiki, eski tanishlaridan biri - Tal'at maqsum. Bo'ydor, yelkador bu yigit qorin qo'yib yanada basavlat bo'libdi. Darvoqe, to'rt yil oldin u kelishgan yigit edi, endi katta kishi kelbatida. Burniga qo'ndirilgan to'garak ko'zoynagi katta yuziga yarashmabdi.

- Asadulla afandim, sizni ko'rар kun bor ekan-ku, a? - dedi u past ovozda.

Asadulla surgundan qaytganidan keyin ularni ko'rishga oshiqmagan edi. Tal'at maqsumning bu gapini gina o'rniда qabul qilib, o'zini sal noqlay sezdi.

- Vatanga qaytib, rohatda bo'larman, desam, Toshkandni doshqozonga aylantirib, tagiga o't qo'yib qaynatib yuboribsiz-ku, - dedi u gapni hazilga burib.

- O't qo'ymasak, osh pishmayapti, - dedi Tal'at maqsum, tagdor qilib.

- Jadidlarimizning vazifalari nima: go'lahlikmi, o'tin keltirishmi yo haybarakallachilikmi?

- Jadidlar yo'q endi, "Sho'roi islomiya" bor.

Asadulla bir zum o'ylanib qoldi.

- Demak, jadidlarning bari...

- Hammasi emas, yuragida yurt tuyg'usi qolganlari. Boshqalari o'zga yo'llarda.

- Shunday bo'lishi tayin edi. Yagona maslaksiz birlashuv - qog'ozni tupuk bilan yopishtirishday gap. Buni endi tushungandirsiz?

- Asadulla afandi, endi maslak bor, aniq yo'l mavjud. Sizday odamlar rahnamo bo'lmoqlari kerak.

- "Sho'roi islomiya" gami? Rahnamolari bor shekilli? - Asadulla shunday deb minbarga imo qildi.

- Sizning kelganingizni Qori akamdan eshituvdim, - dedi Tal'at maqsum, Asadullaning kinoyasiga parvo qilmay. - Siz bilan uchrashish niyatlari bor ekan.

- Sababini bilarsiz?

Tal'at maqsum ayyorona jilmaydi:

- Bilaman. Jamiyatimizga gazit kerak. Bu ishda sizning oldingizga tushadigani yo'q. Bokuga borib, arabcha harflar olib kelib, gazit chiqarganlaringiz esimizda.

Vatan mehri agar bo'lsa dilingda ishq savdosi,

Otil, nuri ozodliqqa, o'zingni misli Farhod et... -

degan satrlarni ham unutganimiz yo'q. Farhodlikdan yuz o'girmagandirsiz?

- Yuz o'girganimcha yo'q... Ammo maqsum, baytni o'zingizga ma'qul tarzda yodlash odatingiz chakki. Xotirim faromushlik qilmasa, men "nuri ozodlik" emas, "nuri maorifg'a" deb edim shekilli?

- Ammo maorif - ozodlik yo'li, shunday emasmi? - Tal'at maqsum Asadulladan javob kutmay davom etdi. - Qori akamning uylarini bilasiz, a, ertaga kutishsinmi?

Asadulla shartta rad javobini bermoqchi edi. Biroq nimadir ushlab qoldi. O'sha "nimadir"ni keyin ham ko'p o'yladi. Lekin anglashga qurbi yetmadni. "Sho'roi islomiya" gazetidan o'z maqsadida foydalanmoqchi edi, deyilsa, o'sha onda bunday fikr uyg'onmagan edi. Bu fikr oqshomda, depodagi o'rtoqlari bilan maslahatlashganda yuzaga chiqqan edi. Jadid oshnasining yuzidan o'tolmadi, deyilsa - kulgili hol.

Qo'shtutdagi bu uyda Asadulla ilgari bir necha marta bo'lgan. U Tal'at maqsum yetkazgan taklifni qabul qilgandan keyin bu uyda qanday kutib olinishini ko'p o'yladi. Turli tahminlar qildi.

Bularga gazetachi muharrir lozim ekan, Toshkentda gazetachi kammi, qalam ahliga qahat kelibdimi? Nima sababdan Asadulla Mira'lampa xaridor bo'lib qolishdi? Bir paytlar jadidlar safida bo'lgani uchunmi? Maorif uchun jon kuydirgani, muallimlar orasida obro'yi balandligi uchunmi? Bokudan arabcha harflar olib kelib, gazit chiqarganini unutishmagan emish. Unda "Shuhrat" gazetasining yashirin temir yo'l inqilobi qo'mitalar bilan, Orenburgda yashirin chiqadigan "Soldat" degan ruscha gazeta bilan aloqada bo'lgani, bu faoliyatining oxir-oqibati nima bilan tugagani ham yodlaridan ko'tarilmagandir?

Qo'shtutni qoralab yo'lga chiqqan Asadullaning xayoli shu o'ylar, gumonlar bilan band edi. U yo'l-yo'lakay do'sti Mirmuhsinnikiga kirib, maslahatlashdi. Shu sababli ham Munavvar qorinikiga kechikib keldi.

- Surgun degan ofatdan qutulib kelganingiz muborak bo'lsin, - dedi Munavvar qori unga quchoq oolib. Yaratganing ishiga ba'zan tushunmay qolaman. Sizday donishmand odamga shu azobni ravo ko'rsa-ya!..

- Arining zahrini chekmagan bolning qadrini bilmas ekan. Surgun bahona Vatan, ozodlik qadriga yetdik.

- Ko'rganingiz shu bo'lsin, qani, to'rga marhamat.

Asadulla bu takallufni inkor etmadni.

- Jadidlikni o'zingizga nomunosib ko'rganingizdan so'ng, safimizda parokandalik bo'ldi, xabaringiz bor, ko'p fazillar o'zga yo'l tutdilar. Vallohi, bu harakatlarning barchasi chakki, - dedi Munavvar qori. - Negaki, siz O'rda bo'yiga Miroboddan kelasiz, men esam Shayxontahurdan. Yo'limiz bo'lak, ammo marramiz bir.

- Qirg'og'imiz-chi?

- Gap qirg'oqda emas. Eng muhimi ichadigan suvimidir. Ya'ni siz ham millat deysiz, biz ham. Sizning:

"Marizing bir tarafdan, bir tarafdan xorsan - millat!

Badandan doimo qon oldurur bemorsan - millat!" -

dagan satrlaringizni unutganimizcha yo'q. Endi bemorni davolash vaqtini yetdi.

- Millatni johil ulamolar ishtirokida davolamoqchimisiz?

- "Sho'roi islomiya" - johil ulamolar to'dasi emas. Bunda ma'rifat deb jon kuydiruvchi do'stlaringiz ham bor, tijorat ahli, katta-kichik sarmoya egalari, ziyo istagidagi mullalar...

- Mullarlarning ziyo istashini bilmagan ekanman.

- Hammani bir qarichdan o'lchashingiz chakki. Johil mullalarga mening ham tob-toqatim yo'q, bilasiz.

Munavvar qori "Sho'roi islomiya" ning maqsadini tushuntira ketdi. Asadullaning ziyrak fahmi uning bayonidan ko'p narsani ilg'ab oldi. "Mmaslaksiz to'da", deb yanglishibman. Qadamni katta olmoqchi bular. Uchrashganim yaxshi bo'libdi". Asadulla shu qarorga kelib, hamkorlik qilishga rozilik berdi.

Sarmoya bo'lsa gazetani chiqarish oson ekan. Asadulla ortiqcha urinishsiz ish boshladi. Mirmuhsin so'zida turdi: "Ikki tarixiy voqe'a" degan kattagina maqola yozib berdi. Podsho ag'darilganini aytib turib, din ahli johilligini fosh etib, "Sharhi mulla"ni yoqishga undagan bu maqolani Asadulla hech bir tap tortmay bosmaga berdi.

Gazeta chiqqan kuni idorasiga to'rtta chapani yigit kirib, ura-ura uni izvoshga olib chiqdi. Keyin o'zini zax yerto'lada ko'rdi.

Maqoladan ba'zilaning norizo bo'lismeni kutgan edi. Ammo bu holga tusharmagan, chapanilarining mushtini yeb, yerto'laga tashlanarman, deb o'ylamagan edi. Baqamti kelganimda norizolarga tushuntirman, deb bahona tayyorlab qo'yan edi. Endi uni kimga aytadi? Uning so'zlarini tinglasharmikin? Umuman, bu yerdan tirik chiqarmikin? Oilasi ham, depodagi o'rtoqlari ham endi uni izsiz yo'qotishdi. Ertalab idoraga ketyapman, deb chiqqan. Boshqa gapni bilishmaydi. Depodagi inqilobi qo'mita dindorlarga da've qilishi mumkin. Lekin, bular "biz ham yo'qotib qo'yidik, o'zimiz ham garangmiz", deyishsa-chi?

Asadulla xayolan ming ko'chaga kirib chiqdi, ammo yorug'lik yo'llini topmadi. Birdan Mirmuhsinni esladi: uning ahvoli nima

kechdi ekan? Unga zug'um qilishmadimikin? Maqlada nomini yashirib, taxallus bilan chiqarsa bo'larkan, shu ishi xom bo'libdi. Asadullaning suyaklari zahdan zirqirayotgan damda Sebzor ahli eshakka teskari mindirilgan, yuziga qora chaplangan odamni tomosha qilardi. G'ulomxon qoziga ro'para qilinganida ham shakkokning tavba o'mniga: "Sharhi mulla"ni yoqing, odamlar", deb hayqirish, ularga ajab tuyuldi.

Asadulla bu voqeadan bexabar, do'stining taqdiridan xavotirda edi.

U yerto'lada qancha o'tirganini bilmadi. Mo'ljali bo'yicha kunni ham, tunni ham o'tqazdi. Umidlari asta so'na boshlaganda yerto'la eshigi ochilib, zinada odam qorasi ko'rindi. Asadulla to Tal'at maqsum tushib, ovoz bermaguncha uni tanimadi.

... Asadulla Shuvalovning yonida o'tirib, shularni xayolidan o'tqazdi.

Kogon turmasidagi tor, zax xonada Tal'at maqsum yolg'iz edi. Temir panjara bilan to'silgan tuyukdan yopirilgan nur xonani ojjiz yoritib turardi. Tal'at maqsum eshik og'zida paydo bo'lgan Asadullani ko'rdi-yu, hayajondan o'nidan turib ketdi. Quchoq ochib, unga peshvoz yurdi.

- Mahbus, joyingizga o'tiring!

Soqching dag'al tovushi uni to'xtatdi.

- Asadulla afandi, siz meni yaxshi bilasiz, maslakdosh edik, men jinoyatchi emasman, muallimman, aytинг ularga.

- Muallimligingizni kech, juda-juda kech eslabsiz, Tal'at maqsum.

- Gapirmang, Asadulla afandi, gapirmang, boshim tars yorilib ketadi hozir. Istanasangiz yalinay, istanasangiz oyog'ingizga bosh uray, tavbamni yetkazing ularga, Toshkandimizga qaytarishsin, maorif ishidan bo'lak yumushlarga bosh suqmayman. Maorifdan o'zgasini o'ylasam, kalomullo ursin! Xizmatingiz evaziga bir sir aytaman sizga.

- Aytинг.

- Avval va'da bering.

- Maqsum, savdolashmaylik, aytgingiz bo'lsa aytинг, bo'lmasa yo'q.

U ikkilanib o'ya toldi. Nihoyat, bir qarorga kelib, tilga kirdi:

- Vakolangizda g'ayri fikrli odamlar bor.

- Kim?

- Ikki kishiligi ma'lum menga, ammo nomlarini bilmayman.

- Maqsadlari?

- Vakolangiz Kobulga yetib bormasligi kerak.

- Bizning aynan shu kunlarda yo'lga chiquvimonizni qaerden bildilaring?

- O'sha odamlardan.

- Siz o'zingiz nima qilib yuribsiz, bu yerlarda?

- Manzilimiz Buxoro edi.

- Shuginami?

- ...

- Yashirmang, Tal'at maqsum. Siz Buxoroni ziyyarat qilgali kelmagansiz. Hazrat qani?

- Hazratni ko'rmasdim. U boshqa, biz boshqa yo'l bilan borishimiz kerak edi.

- Nima uchun?

- Nima uchun bo'lardi, sizlarni chalg'itish uchun-da.

- Sizning vazifangiz nima edi?

- Biz Turkistonning kofirlar zulmidan azob chekayotganiga kafolat berishimiz lozim edi.

- Kimga?

- Afg'on amiriga... Istanasangiz, yana bir sir aytay sizga... Uyingizni Muhiddin degan yigit yoqqan.

Bu gapni eshitib, Asadulla uzoq o'y surdi, so'ng ijaraga boshpana so'ragan yigitni eslati: "Yuzida chandig'i bor edi shekilli?"

- O'sha odamning yuzida chandig'i bor edi-a? - deb so'radi Asadulla. - Shundaymi, a?..

- Ha, bor, uni taniysizmi?

- Taniyman... - Asadullaning boshi qizib, ko'kragida sanchiq turdi, qo'l-oyog'i darmonsizlandi. Picha o'tgach, chuqur nafas olib, og'riqdan bir oz holi bo'ldi.

- U "Ulamo"ning o'sha hukmini bajarmoqchi bo'lgan, baxtingiz bor ekan, qutulib qolibsiz.

"Baxtingiz bor ekan?.." Asadulla bu gapni eshitib, dodlab yuboray dedi. Baxti bor ekanmi? Bu baxtning nima keragi bor unga?

"Ulamo"ning hukmini ijro qilibdimi u iblis? O, bilganda edi, ularning bu qadar razilliklarini, bu qadar vahshiyiliklarini bilganda edi. "Ollohga shak keltirgan Asadulla Mira'laming jazosi - o'lim", deb hukm qilganlarida to'g'ri borib kundaga boshini qo'yib bermasmidi?

Hozir g'azabga, xotiralar oloviga beriladigan payt emas edi. Asadulla chuqur-chuqur nafas olib, o'zini bosdi.

- Tal'at maqsum, siz ko'p narsalarni bilasiz, ammo aytgingiz yo'q. So'roq qiluvchi o'rtoqqa yashirmay aytинг hammasini. Bo'lib o'tgan ishlardan ham, rejadagilarni ham. Men siz bilan uzoq qola olmayman.

- Va'dangizda turasizmi, meni Toshkandimizga qo'yib yuborishadimi?

- Tal'at maqsum, men ularga kafolat beraman. Jinoyatlardagi ulushlaringizga qarab, ajrim qilishadi.

- Bu - nohaqlik! Siz o'ch olyapsiz!

- Maqsum! - Asadulla baqirib yuborganini o'zi ham bilmay qoldi. Eshik ochilib, soqchi ko'rindi. Asadulla, badaniga titroq yugurgan bo'lsa ham o'zini bosib gapirdi: - Tal'at maqsum, birgina mening uyim kuygan bo'lsa mayliga edi. Bir qarang atrofingizga, qancha-qancha yoziqsiz mazlumlarning uyi kuydi ekan. Uyaling, shunday deyishga, - Asadulla shart burilib, dahlizga chiqdi.

Asadulla Shuvalovning yoniga kirib, bo'lgan gaplarni aytди.

- Ikki odam bor ekanmi? Kim bo'lishi mumkin? - dedi Shuvalov.

- Biri Irisov, bunga shubham yo'q.

- U... Toshkentda qolmadimi?

This is not registered version of TotalDocConverter

- Bi'lan qaytdi?
 - Toshkentda hech kim bilan uchrashmagan. O'rtoqlar kuzatishdi. Qiziq... nimaga qaytyapti?
 - Afg'onlar hali-beri yo'lga chiqishmaydi. Shuning uchundir?
 - Bo'lsa bordir. Lekin sen bilan birga qaytishi... "Men Irisov emasman, bilib qo'y, men sen bilan birmagan, sendan qo'rqlayman", deganimi yo? Demak, azizim, yo'lda zerikmas ekanmiz. Xo'-o'sh, ikkinchisi kim?
 - Shunga boshim qotdi?
 - Ushinskiymi?
 - Undan nimaga shubhalanyapsiz?
 - Hamma narsadan xabardor bo'lishim kerak, deyapti-ku? Yo Xmarinmi? U biz uchun sinalmagan odam. Balki muhojirdir?
 - Menden shubhangiz yo'qmi, Vitaliy Sergeevich?
 - Piching qilma, Mira'lamov, ikkita odamdan bittasini topishimiz shart.
 - Balki ikkita deb chalg'itgandir?
 - Yo'q. Agar vakola Kobulga yetib bormasligi kerak, degan vazifa qo'yilgan bo'lsa, bitta odamga suyanilmaydi. Uch-to'rttaga ishonaman-ku, ammo bitta odam qo'yilishiga ishonmayman. Maqsadlari faqat bizning safarimizga to'sqinlik qilish emas, amirni qayrashmoqchi. Ikki amir bir bo'lib urushga kirishsa, janubimizda ham halovat yo'qoladi. Bu uzoqni ko'zlagan harbiy taktika! Bu ishni hazratga o'xshagan bitta-ikkita odam qilmaydi. Ularning orqasida boshqa kuchlar bor.
- Poezd ertalab belgilangan vaqtida yo'lga chiqmadi. Kecha oqshom Said Olimxon mulozimlari kelib, afg'onlarni amir qarorgohiga chorlab olib ketgan edi. Afg'onlar kun yoyilganda qaytdilar. Said G'afforbek Mirza Qandilxon yonida viqor bilan yurib keldi-da, Asadullaga muloyim salom berib, afg'onlarga ajratilgan qo'shni vagonga chiqdi.

AvvalgiI- qismB Keyingi